Ma’lumotlar to‘plash va korpus yaratish. Tadqiqot uchun qoraqalpoq tilida faoliyat yurituvchi jaslarnews.uz [3] va kknews.uz [4] kabi ikkita asosiy internet resursi tanlangan. Ushbu saytlar yordamida yangilik maqolalari avtomatik ravishda yig‘ib olingan.

Matnlarni tozalash va dastlabki ishlov berish. Xom matnlarni qayta ishlash bir necha bosqichda amalga oshirilgan. Avval HTML teglari, URL manzillar va maxsus belgilar olib tashlanib, apostroflarni turli xil variantlari (’, ', ` , ´) standart shaklga keltirilgan. Matnlar kichik harflarga o‘tkazilgan (lowercase). So‘ngra qoraqalpoq tili uchun maxsus to‘xtash so‘zlari (stop words) lug‘ati yaratilgan va bu so‘zlar matnlardan olib tashlangan.

Belgilarni shakllantirish. Tasniflash uchun uch xil belgilar to‘plami yaratilgan:

So‘z darajasidagi belgilar (Word-level features): TF-IDF vektorlashtirish usuli qo‘llanilgan. N-gramm diapazoni esa unigram, bigram va trigramlarni qamrab olgan.

Simvol darajasidagi belgilar (Character-level features): Belgi n-grammlari (3-5 belgi uzunlikdagi) TF-IDF usuli bilan vektorlashtirilgan, bu morfologik belgilarni ushlash imkonini beradi.

Lingvistik belgilar: So‘zlar soni, belgilar soni, o‘rtacha so‘z uzunligi, Type-Token Ratio (TTR) – leksik rang-baranglik ko‘rsatkichi, raqamlar soni, defis belgisi foizi kabi statistik ko‘rsatkichlar hisoblab chiqilgan.

Mashinali o‘qitish modellari. Tasniflash vazifasini yechish uchun klassik mashinali o‘qitishni beshta algoritmi tanlab olingan va taqqoslangan [5]:

1. Linear Support Vector Machine (Linear SVM) – chiziqli klassifikator, yuqori o‘lchamli fazolarda samarali ishlaydi.

2. Logistik regressiya – ehtimollik asosidagi klassifikator, maksimal 2000 iteratsiya bilan o‘qitildi.

3. Multinomial Naive Bayes (MNB) – Bayes teoremasiga asoslangan, matnlarni tasniflashda keng qo‘llaniladigan usul.

4. Random Forest – 300 ta qaror daraxti ansambli, parallel hisoblash qo‘llanildi.

ISSN 3030-3907

5. K-Nearest Neighbors (KNN) – k=7 yaqin qo‘shniga asoslangan klassifikator.

Baholash mezonlari. Modellar samaradorligi Accuracy, Precision, Recall, F1-score kabi metrikalar asosida baholangan.

NATIJALAR

Mazkur bo‘limda tadqiqot davomida olingan tajribalar natijalari taqdim etilgan bo‘lib, bunda jami 142 ta yangilik maqolasi to‘plangan. Korpusni kategoriyalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Korpusning kategoriyalar bo‘yicha taqsimoti

Kategoriya	Maqolalar soni	Ulushi (%)
Jamiyat	49	34.5
Siyosat	48	33.8
Iqtisod	18	12.7
Boshqa	17	12.0
Sport	6	4.2
Madaniyat	4	2.8
Jami	142	100.0

Mashinali o‘qitishning 5 ta modeli va ularning ansambl kombinatsiyasi validatsiya va test to‘plamlarida baholandi. Natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Modellarning validatsiya va test to‘plamlaridagi natijalari

Model	Val Accuracy	Val F1-score	Test Accuracy	Test F1-score
Linear SVM	0.7273	0.6891	0.7143	0.6825
Logistic Regression	0.7727	0.7456	0.7619	0.7321
Multinomial NB	0.6364	0.5892	0.6190	0.5743
Random Forest	0.8182	0.7983	0.8095	0.7856
K-Nearest Neighbors	0.7273	0.6954	0.7143	0.6892
Ansambl	0.8182	0.7921	0.8095	0.7803

Natijalardan ko‘rinib turibdiki, eng yuqori ko‘rsatkichga Random Forest modeli erishdi: test to‘plamida accuracy=0.8095 va F1-score=0.7856. Ushbu modelni kategoriyalar kesimida ko‘rsatkichlari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval.

Random Forest modelining kategoriyalar kesimida ko‘rsatkichlari

Kategoriya	Precision	Recall	F1-score	Namunalar soni
Jamiyat	0.88	0.78	0.83	9

ISSN 3030-3907

Siyosat	0.86	0.86	0.86	7
Iqtisod	0.67	1.00	0.80	2
Sport	1.00	0.50	0.67	2
Boshqa	0.00	0.00	0.00	1

Eng yuqori natija “Siyosat” kategoriyasida qayd etildi, “Jamiyat” kategoriyasi ham yaxshi tasniflandi. “Iqtisod” kategoriyasi yuqori recall (1.00) ko‘rsatdi, biroq precision past bo‘ldi. “Sport” kategoriyasida precision ideal (1.00), lekin recall past (0.50). “Boshqa” kategoriyasi uchun model yetarli o‘quv namunalari yo‘qligi sababli klassifikatsiya qila olmadi.

XULOSA

Qoraqalpoq tilidagi yangilik matnlarini mashinali o‘qitish algoritmlari yordamida tasniflash doirasida olib borilgan tadqiqot natijalaridan quyidagi xulosalar shakllandi:

– qoraqalpoq tilidagi yangiliklar korpusi turli xil internet manbalaridan to‘plandi va ular 6 ta kategoriyaga ajratildi;

– Linear SVM, Logistic Regression, Multinomial Naive Bayes, Random Forest, K-Nearest Neighbors kabi klassik mashinali o‘qitish algoritmlari va ularni ansambl kombinatsiyasi sinovdan o‘tkazildi;

– Random Forest modeli test to‘plamida accuracy=0.8095 va F1-score=0.7856 qiymati bilan eng yaxshi natijani ko‘rsatdi;

– kategoriyalar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki, “Siyosat” (F1=0.86) va “Jamiyat” (F1=0.83) kategoriyalari eng yaxshi tasniflash natijalarini ko‘rsatdi, “Sport” va “Iqtisod” kategoriyalarida esa o‘quv namunalarini hajmi kam bo‘lganligi uchun tasniflashda yaxshi natija ko‘rsatmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. N. A. Niyozmatova, N. S. Mamatov, B. I. Otaxonova, A. N. Samijonov and K. K. Erejepov, "Classification Based On Decision Trees And Neural Networks," 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2021, pp. 01-04, doi: 10.1109/ICISCT52966.2021.9670345.

2. Nielsen, M. A., & Chuang, I. L. (2010). Quantum Computation and Quantum Information (10th Anniversary ed.). Cambridge University Press.

3. https://jaslarnews.uz/category/

4. https://kknews.uz/qq/category/news/

5. D.Muhamediyeva, N.Niyozmatova, N.Turgunova, A.Mamatov. Text vectorization based on the quantum bag-of-words algorithm. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. April, 2025-4. ISSN 2181-9750. Pp. 33-39.

ISSN 3030-3907

ZAMONAVIY YUQORI TEZLIKDAGI SIMSIZ TEXNOLOGIYALARNI TURLI GEOGRAFIK SHAROITLARDA QO‘LLASH

Abdug‘afur Hotamov
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali dotsenti
X.R. Bobobekova
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali o‘qituvchisi

Anotatsiya. Ushbu maqola turli geografik zonalarda elektromagnit to‘lqinlarning tarqalish xususiyatlari va ular asosida ishlovchi yuqori tezlikdagi simsiz texnologiyalarning (Wi-Fi, WiMAX, LTE, 5G) samaradorligini ilmiy asosda tahlil qiladi. Tadqiqotda to‘lqinlarning sochilishi, yutilishi, multipath, shadowing kabi fizik hodisalar, shuningdek har bir texnologiyaning chastota diapazoni, modulyasiya usullari va ma’lumot uzatish imkoniyatlari batafsil solishtiriladi. Shuningdek, tadqiqotda ochiq maydon (dasht), o‘rmon massivlari va shahar muhitidagi to‘lqinlarning tarqalish modeli solishtiriladi. Har bir muhitda texnologiyalarning samaradorligi modulyasiya barqarorligi, signal-to-noise ratio (SNR), path loss modeli va to‘siqlar zichligi orqali baholanadi. Bugungi kunda simsiz aloqa texnologiyalari inson-mashina interfeysi, IoT ekotizimi, sanoat 4.0, transport logistikasi va intellektual shahar infratuzilmasining asosiy drayveriga aylandi. Ularning rivojlanishi chastota spektridan samarali foydalanish, adaptiv modulyasiya, masssive MIMO va beamforming kabi texnologik yutuqlarga tayangan. Simsiz tarmoqlar kabel infratuzilmasining cheklovlarini bartaraf etib, mobil, moslashuvchan va tezkor ulanishni ta’minlaydi. Ayniqsa, to‘lqinlarning geometrik-optik modeli asosida shakllangan line-of-sight (LOS) va non-line-of-sight (NLOS) kanallar orqali uzatish texnologiyalari zamonaviy aloqa tizimlarining poydevorini tashkil etadi va ma’lumotlarga ulanish va kirish imkonini beradi. Tadqiqotning maqsadi — turli geografik sharoitlarda simsiz texnologiyalarning qo‘llanish chegaralari, uzatish sifati va to‘lqinlarning fizik muhitga moslashuvchanligini ilmiy baholash. Natijada, har bir texnologiya uchun optimal muhit, samaradorlik ko‘rsatkichi va qo‘llash cheklovlari aniqlanadi, ulardan foydalanish istiqbollari baholanadi.

Kalit so‘zlar: elektromagnit to‘lqinlar, path loss, Wi-Fi 6, WiMAX 802.16, LTE-Advancyed, 5G NR, modulyasiya, to‘lqin tarqalishi, geografik muhit.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the propagation characteristics of electromagnetic waves in various geographical zones and the performance of high-speed wireless technologies operating on their basis (Wi-Fi, WiMAX, LTE, and 5G). The study examines physical phenomena such as wave scattering, absorption, multipath propagation, and shadowing, as well as comparatively analyzes the frequency bands, modulation schemes, and data

ISSN 3030-3907

transmission capabilities of each technology. In addition, wave propagation models in open areas (steppes), forested regions, and urban environments are compared. The performance of wireless technologies in each environment is evaluated based on modulation stability, signal-to-noise ratio (SNR), path loss models, and obstacle density. Today, wireless communication technologies have become key drivers of human–machine interfaces, IoT ecosystems, Industry 4.0, transport logistics, and intelligent urban infrastructure. Their development is based on efficient use of the frequency spectrum, adaptive modulation, massive MIMO, and beamforming technologies. Wireless networks eliminate the limitations of cable infrastructure by providing mobile, flexible, and high-speed connectivity. In particular, transmission technologies based on line-of-sight (LOS) and non-line-of-sight (NLOS) channels, formed according to geometric-optical wave propagation models, constitute the foundation of modern communication systems and enable data access and connectivity. The purpose of the study is to scientifically assess the application boundaries, transmission quality, and physical adaptability of wireless technologies under different geographical conditions. As a result, the optimal environment, performance indicators, and application limitations for each technology are identified, and their future prospects are evaluated.

Keywords: electromagnetic waves, path loss, Wi-Fi 6, WiMAX 802.16, LTE-Advanced, 5G NR, modulation, wave propagation, geographical environment.

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ характеристик распространения электромагнитных волн в различных географических зонах и эффективности высокоскоростных беспроводных технологий, функционирующих на их основе (Wi-Fi, WiMAX, LTE, 5G). В исследовании подробно рассматриваются физические явления, такие как рассеяние, поглощение волн, многолучевое распространение и затенение, а также проводится сравнительный анализ частотных диапазонов, методов модуляции и возможностей передачи данных каждой технологии. Кроме того, сопоставляются модели распространения волн в открытых пространствах (степи), лесных массивах и городской среде. Эффективность беспроводных технологий в каждой среде оценивается на основе устойчивости модуляции, отношения сигнал-шум (SNR), моделей потерь на трассе (path loss) и плотности препятствий. В настоящее время беспроводные коммуникационные технологии стали основными драйверами развития интерфейсов «человек–машина», экосистем IoT, концепции «Индустрия 4.0», транспортной логистики и интеллектуальной городской инфраструктуры. Их развитие основано на эффективном использовании частотного спектра, адаптивной модуляции, технологиях massive MIMO и beamforming. Беспроводные сети устраняют ограничения кабельной

ISSN 3030-3907

инфраструктуры, обеспечивая мобильное, гибкое и высокоскоростное подключение. Особое значение имеют технологии передачи данных по каналам прямой видимости (LOS) и непрямой видимости (NLOS), сформированные на основе геометрическо-оптических моделей распространения волн, которые составляют основу современных систем связи и обеспечивают доступ к информации. Целью исследования является научная оценка границ применения беспроводных технологий, качества передачи и физической адаптивности волн в различных географических условиях. В результате определяются оптимальные условия эксплуатации, показатели эффективности и ограничения применения каждой технологии, а также оцениваются перспективы их использования.

Ключевые слова: электромагнитные волны, path loss, Wi-Fi 6, WiMAX 802.16, LTE-Advanced, 5G NR, модуляция, распространение волн, географическая среда.

Kirish

SIMSIZ TARMOQ TEXNOLOGIYASI. Zamonaviy simsiz aloqa tizimlari — elektromagnit to‘lqinlarning fazoviy tarqalish qonunlariga asoslangan, yuqori tezkorlik, mobillik va moslashuvchanlikka ega murakkab axborot-infratuzilma ekotizimidir. Ushbu bo‘limda simsiz tarmoqlar arxitekturasi, signalning tarqalish fizikasi, radiokanalning bandligi, spektr samaradorligi va tarmoqning geografik muhitga moslashuvchanligi fundamental tahlil qilinadi.

Simsiz tarmoqlar kabel infratuzilmasining fizik cheklovlari mavjud bo‘lgan jarayonlarda — tog‘li hududlar, uzoq qishloq maskanlari, mobil obektlar, vaqtinchalik inshootlar va favqulodda aloqa talab qilinadigan holatlarda — eng maqbul yechim hisoblanadi. EM to‘lqinlar havo orqali tarqalgani uchun kabeldagi attenuation, diyelectric loss va dispersiya kabi ishonchsizliklar yuzaga kelmaydi. Yuqori tezlikdagi radio-kirish texnologiyalari (RAN – Radio Accyess Network) kapital xarajatlarni kamaytirish, infratuzilmani tez joylashtirish va ko‘p nuqtali (multi-point) ulanishni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. RAN arxitekturasi OFDM asosidagi modulyasiya, adaptiv kodlash, spektr re-farming va beamforming kabi zamonaviy yechimlar orqali aloqa sifatini sezilarli oshiradi. Simsiz tarmoqlarning “raqamli boshqaruv mexanizmi” — bu protokollardir. Protokol qurilmalarga qachon uzatish, qachon kutish, qaysi chastotadan foydalanish, qanday modulyasiya tanlash, kanalni qanday bo‘lish (multiplexing) va qanday himoya qilish (authentication, encryption) kerakligini belgilaydi. Shu bois protokollar tarmoqning barqarorligi, kechikish koyeffisiyenti, throughput va jitter kabi parametrlarni aniqlaydi.

PROTOKOLLAR

ISSN 3030-3907

Simsiz aloqa protokollari - qurilmalar o‘zaro muloqot qiladigan **raqamli til tizimi**dir. Har bir protokol o‘zining chastota diapazoni, modulyasiya usuli, xatoliklarni tuzatish darajasi (FEC), multiplekslash mexanizmi va xavfsizlik qatlamiga ega bo‘lgan **murakkab kommunikasion grammatika**ga ega. Protokollarni tasniflashda ulanish masofasi bilan birga **kanalning fizik xususiyatlari, energiya samaradorligi, trafik zichligi** va **sinxronizatsiya talablariga** asoslangan murakkab kategoriya tizimidan foydalaniladi. Shuning uchun WPAN → WLAN → WMAN → WWAN protokollari **masofa + quvvat iste’moli + spektr samaradorligi** bo‘yicha iyerarxik tuzilishga ega. **WPAN** — tanaga yaqin (body-area) va qisqa masofali qurilmalar uchun mo‘ljallangan past quvvatli protokol oilasidir. Bluyetooth Low Energy (BLE), ZigBeye, 6LowPAN kabi texnologiyalar **IoT ekotizimi,** aqlli soatlar, tibbiy sensorlar, uy avtomatizatsiyasi va energiya tejovchi mikrotarmoqlarni qo‘llab-quvvatlaydi. WPANning asosiy xususiyati **- minimal energiya sarfi va yuqori uzatish barqarorligi**. Simsiz shaxsiy tarmoqlarning diapazoni bir necha o‘n santimetrdan bir necha metrgacha. WPAN turli xil tarmoq texnologiyalari yordamida joylashtirilishi mumkin, masalan: Bluyetooth, ZigBeye, 6lowpan va boshqalar.

Simsiz LAN (Wireless personal area network- simsiz lokal tarmoq) – simsiz texnologiyalar asosida qurilgan likal tarmoq. Simsiz lokal tarmoqlar yuqori darajadagi dasturlar uzluksiz bajarish uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarni osongina ta’minlaydi. Shunday qilib, ushbu tarmoqlarning foydalanuvchilari elektron pochta xabarlariga yoki serverdan video oqimlariga katta hajmdagi qo‘shimchalarni olishlari mumkin. Ushbu texnologiyalarning diapazoni bir necha yuz metrga yetadi. Bularga quyidagi protokollar kiradi: UWB, ZigBeye, Wi-Fi. bunday texnologiyalar bir necha kilometrga yetadi. Ushbu protokolga misol WiMAX. WWAN (Wireless Wide Area Network -simsiz keng tarmoq) – simsiz kompyuter tarmoqlarining turli xil turlari, ularning asosiy xususiyati keng qamrov zonasidir. Masofa bir necha o‘nlab kilometrni tashkil qiladi. Bularga quyidagi protokollar kiradi: GSM, CDMAone, iDEN, PDC, GPRS va UMTS.

1. Wi – Fi

Wi-Fi - bu elektromagnit to‘lqinlarning 2.4 GHz va 5 GHz diapazonlarida tarqalishiga asoslangan, yuqori o‘tkazuvchanlikka ega **lokal simsiz kommunikatsiya texnologiyasi.** Wi-Fi 5 va Wi-Fi 6 standartlarida OFDMA, MU-MIMO, beamforming kabi ilg‘or texnologiyalar yordamida kanal bo‘shlig‘i bo‘linadi, bir nechta qurilma bir vaqtning o‘zida interferensiyasiz aloqa qiladi. Ushbu turdagi tarmoqlar transmitter va qabul qilgich o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa mavjud bo‘lganda radioliniyalarda nisbatan qisqa masofalarda (qoida tariqasida, metrlar) aloqani ta’minlaydi [1]. Wi-Fi texnologiyasi qurilmalarni lokal zona ichida **sub-millisekundli kechikish bilan** bog‘lab, yuqori tezlikdagi trafik

ISSN 3030-3907

(video oqim, IoT, AR/VR)ni uzatish imkonini beradi. Wi-Fi 6Ye texnologiyasi 6 GHz diapazonidan foydalanib, yanada keng kanal (1200 MHz gacha) va past shovqinli spektrni qo‘llaydi.

2. WIMAX

WiMAX texnologiyasi-yuqori sifatli xizmat ko‘rsatish bilan uzoq masofali simsiz aloqani ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan operator sinfidagi telekommunikatsiya texnologiyasi 802.16 standartiga asoslangan. [2] ushbu texnologiyaning asosiy afzalligi uning imkoniyatlarini tezda oshirish va aloqa hududini kengaytirish qobiliyatidir. WiMAX bazaviy stansiyalari **sektorlarga bo‘lingan antennalar, MIMO 2x2, beamforming, Adaptive Antenna System (AAS)** orqali qamrov radiusini dinamik kengaytirishi mumkin. Bundan tashqari, OFDMA asosidagi kanal bo‘linishi WiMAX’ni shahar, shahar atrofi (suburban) va dasht hududlarida yuqori barqarorlik bilan ishlashini ta’minlaydi.

3. LTE

LTE standarti mobil telefonlar va dan bilan ishlaydigan boshqa terminallar uchun simsiz yuqori tezlikda ma’lumotlarni uzatishni ta’minlaydi. U GSM/EDGE va UMTS/HSPA tarmoq texnologiyalariga asoslangan [3]. Tarmoqlarning diapazoni tayanch stansiya antennasining balandligiga bog‘liq. LTE qamrovi **propagatsiya modeli (Hata, COST-231, Okumura)**, carriyer chastotasi, bazaviy stansiya antennasi balandligi va quvvatiga bog‘liq. Past chastotalar (700–900 MHz) uzoq masofani qamrab oladi, yuqori chastotalar (1800–2600 MHz) esa yuqori o‘tkazuvchanlikni ta’minlaydi. LTE ekotizimi turli qurilmalar bilan mos: smartfonlar, IoT sensorlar, sanoat qurilmalari, avtomobil telematik tizimlari, routerlar va dronlar. LTE Cat-M1 va NB-IoT kabi past quvvatli keng hududli texnologiyalar esa IoT qurilmalarida energiya samaradorligini oshiradi. Qurilmalarda mavjud GSM va 3G qurilmalari bilan birgalikda ishlaydigan LTE moduli o‘rnatilgan bo‘lishi kerak. Agar aloqa uzilib qolsa, LTE de-Vayss ulanishni to‘xtatmasdan mavjud 3G yoki GSM tarmoqlariga kirishga o‘tadi. LTE tarmoqlari **seamless handover** orqali 3G/2G ga uzilishsiz o‘tishni ta’minlaydi. EPC (Evolved Packet Core) arxitekturasi foydalanuvchining IP-sessiyalarini uzmasdan, turli RAT’lar (Radio Accyess Technology) o‘rtasida uzviy muvofiqlik yaratadi.

4. 5G

Yangi avlod telekommunikatsiya standarti. Ushbu texnologiya 4G bilan taqqoslaganda yuqori o‘tkazuvchanlikni ta’minlaydi, bu keng tarmoqli mobil aloqaning ko‘proq mavjudligini ta’minlaydi. Chastota diapazoni ikkita chastota diapazoniga bo‘linadi: FR1 (600-6000 MGts) va FR2 (24-100 GHz). Tanlangan texnologiyalarning ba’zi xususiyatlarini ko‘rib chiqish mumkin, Wi-Fi so‘nggi avlodni (Wi – Fi 6)ni oling, biz WiMAX-ni tayanch stansiyalar va mobil telefonlar uchun ko‘rib chiqamiz.

ISSN 3030-3907

Jadval 1.

Ko‘rib chiqilayotgan texnologiyalarning asosiy xususiyatlari

Texnologiyalar	WiMAX (802.16d)	WiMAX (802.16ye)	Wi-fi 6	LTE	5G
Harakat radiusi	25-80 km	1-5 km	100 m gacha	5 km gacha, ba’zi hollarda 30 km gacha	30 km gacha
Chastota diapazoni	1,5 - 11 GHz	2,3 - 13,6 GHz	2,4 GHz 5 GHz	FDD uchun (Chastotalar kanallari oralig‘i): 800 MHz , 1800 MHz, 2600 MHz. TDD uchun (vaqt bo‘linish kanali) - 2600 MHz	3,4-3,8 GHz /24,65-29,5 GHz 80-200 MHz
Tarmoq kengligi	75 Mbit/s gacha	40 Mbit / s gacha	1,2 Gbit/s gacha	160,4 Mbit / s gacha	20 Gbit/s gacha
Kanal kengligi	3,5 MGz	1,75 MGz	260 MGz	1,4 MHz, 3 MHz, 5 MHz, 10 MHz, 15 MHz va 20 MHz.	800 MGz gacha
Modulyasiya	OFDM modulyasiyasi, 256 FFT nuqtasi, BPSK, QPSK, 16QAM, 64 QAM	1024-QAM	QPSK, QAM-16, QAM-64	CP-OFDM, p/2-BPSK, QPSK, 16QAM, 64QAM, 256QAM	Modulyasiya

ISSN 3030-3907

Kanallarni ajratish	FDMA, TDMA, CDMA 256 FFT OFDM, 2048 FFTOFDM texnologiyasi	MU-MIMO, OFDMA	OFDMA	Massive MIMO	Kanallarni ajratish


Ushbu texnologiyalarni dashtda, ulkan o‘rmonlarda va shahar rivojlanishi sharoitida qo‘llash maqsadga muvofiqligini ko‘rib chiqamiz. Dashtlar (ochiq er) dashtlarning o‘ziga xos xususiyati mos ravishda daraxtlarning yetishmasligi yoki juda oz sonidir WiMAX va Wi-Fi uchun signalning zaiflashishi bo‘sh joyning zaiflashishiga bog‘liq bo‘ladi va WiMAX yog‘ingarchilik paytida susayishi bilan ajralib turadi.

1-rasmda Wi-Fi bilan birgalikda WiMAX ma’lumotlar uzatish tuzilishi ko‘rsatilgan. Provayder va WiMAX tayanch stansiyasi o‘rtasida tolalar yotqizilgan. Baza stansiyalaridan biri 10-66 GHz chastota diapazonidan foydalangan holda ma’lumotlarni ko‘rish chizig‘ida uzatadi. WiMAX transmitteri va Wi-Fi router o‘rtasida ma’lumotlarni uzatish ko‘rish doirasidan tashqarida amalga oshiriladi, shuning uchun 1,5 – 11 GHz diapazondan foydalaniladi, bu WiMAX tayanch stansiyalariga ba’zi to‘siqlar orqali ma’lumotlarni uzatish imkonini beradi. Ushbu tezlikda IYeYeYe 802.11 g dan foydalanish tavsiya etiladi. Eng yangi standartlardan foydalanish iqtisodiy jihatdan foyda bo‘lmaydi, chunki ularning o‘tkazish qobiliyati yuqori, shunga mos ravishda narx ham yuqori. Wi-Fi texnologiyasi tezroq uzatish tezligiga ega, ammo tarqatish diapazoni juda kichik.

LTE-da ma’lumotlarni uzatish deyarli bir xil tarzda amalga oshiriladi, ammo LTE minoralaridan signal tarqalish radiusi juda kichik, shuning uchun minoralarni ko‘p o‘rnatish kerak. 5G standartining arxitek turi 4G standartiga o‘xshash bo‘ladi.

Xulosa qilishimiz mumkinki, dasht (ochiq er) uchun ma’lum bir standartni tanlash ma’lum aloqa minoralari qancha masofada joylashganligi va provayder qancha masofada bo‘lishiga bog‘liq bo‘ladi.

ISSN 3030-3907




1-rasm. Wi-Fi bilan birgalikda WiMAX ma’lumotlar uzatish tuzilishi

O‘RMONLI HUDUD

Ushbu sharoitlar uchun susayish ko‘proq bo‘ladi, chunki yerning relefi, shuningdek yog‘ingarchilik hisobga olinadi. 4G va 5G uyali minoralar, shuningdek WiMAX minoralarni yerga joylashtirish qiyin bo‘ladi, chunki ma’lum bir o‘rmon daraxt maydonini kesish kerak. Bundan tashqari, bunday sharoitda kabel va optikani yotqizish oson bo‘lmaydi, bu ham ko‘rib chiqilayotgan texnologiyalarning ishlashini qiyinlashtiradi. Xulosa qilishimiz mumkinki, o‘rmonli hudud uchun ko‘rib chiqilayotgan standartlar uchun ma’lumotlarni uzatishni amalga oshirish qiyin, ko‘p narsa o‘rmon maydoniga va uning provayderdan qanchalik uzoqligiga bog‘liq bo‘ladi.

SHAHAR RIVOJLANISHI

2-rasmda Wi-Fi texnologiyasidan foydalangan holda ma’lumotlarni uzatish tuzilishi ko‘rsatilgan.




2-rasm. Wi-Fi ma’lumotlarini uzatish tuzulishi

ISSN 3030-3907

Ushbu standart yordamida optik kabeldan foydalanganda ma’lumotlarni 1,2 Gbit/s tezlikda uzatish mumkin, bu shahar qurilishida odatiy holdir.

Agar biz ma’lumotlarni uzatish birinchi navbatda WiMAX minoralari yordamida amalga oshiriladigan holatni ko‘rib chiqsak, u holda ma’lumotlarni uzatishning maksimal tezligi 75 Mbit/s gacha bo‘ladi, optik kabel esa faqat tayanch stansiyaga yotqizilishi mumkin va shundan so‘ng uzatish simsiz amalga oshiriladi. Asosiysi shundaki, ushbu texnologiya ikkita IYeYeYe 802.16 d va IYeYeYe 802.16 e standartlariga ega. 1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ushbu standartlar turli xil diapazonlarda ishlaydi, ba’zilari stasionar mijozlar uchun, boshqalari mobil uchun mo‘ljallangan. WiMAX-ni Wi-Fi-dan alohida ishlatish hozircha amaliyotimizda qo‘lanilmagan, garchi kichik hajmdagi ma’lumotlarni talab qiladigan alohida vazifalar uchun bu texnologiya Wi-Fi-ga qaraganda pragmatik va samaraliroq bo‘ladi.



3-rasm. LTE standartining ma’lumotlar uzatish tuzilishi

Hozirgi vaqtda shahar qurilishida LTE standartidan foydalanish eng arzon va eng pragmatik hisoblanadi, ammo Wi-Fi-ga qaraganda juda katta tezlikka ega. Har qanday shahardagi operatorlarning uyali aloqa minoralari yetarli darajada mavjud, bu esa ushbu standartni Wi-Fi yoki WiMAX-ga qaraganda internetga kirish uchun qulayroq bo‘ladi. Agar Wi-Fi qurilmalarida 4G adapteri bo‘lsa, u holda LTE minoralari orqali ma’lumotlarni uzatish mumkin, shunda tezlik Wi-fi-ni WiMAX bilan birgalikda ishlatishdan yuqori bo‘ladi, ammo ko‘plab qurilmalar 2,4 GHz va 5 GHz diapazonlarda ishlaydi, bu LTE va Wi-Fi-ga bevosita ta’sir qiladi.

Hozirgi vaqtda 5G standartini ishlab chiqlgan, ammo barcha uyali qurilmalar ushbu texnologiyani qo‘llab-quvvatlamaydi va barcha shaharlarda 5G minoralari mavjud emas, albatta, ushbu standartning asosiy afzalligi ushbu xususiyat bo‘yicha Wi-Fi-ga erishgan yuqori o‘tkazuvchanlikdir.

XULOSA

Ushbu texnologiyalarni ko‘rib chiqib, LTE texnologiyasi hozirgi vaqtda ma’lumotlarni qayta ishlash xususiyatlari, mashhurligi, pragmatizmi, samaradorligi va tezligi jihatidan yetakchi bo‘lib kelmoqda va tez orada 5G, 6G

ISSN 3030-3907

standarti ushbu standartni qo‘llab-quvvatlaydigan qurilmalar joriy etilishi bilanoq avvalgisini chetlab o‘tadi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, har bir simsiz aloqa standarti ma’lum geografik muhit, chastota diapazoni va radiotarqalish xususiyatlariga mos ravishda ishlaydi. LTE hozirda keng qamrovli, barqaror va yuqori o‘tkazuvchanlikka ega universal texnologiya bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Немировский М.С., Шорин О.А., Бабин А.И., Сартаков А.Л. Беспроводные технологии от последней мили до последнего дюйма: Учебное пособие/ Под ред. Немировского М.С, Шорина О.А. – М.: Эко-Тредз, 2010. – 400 с.
2. Сетевые технологии высокоскоростной передачи данных. Учебное пособие для вузов / Под ред. профессора В.П. Шувалова. – М.: Горячая линия – Телеком, 2018. – 342 с.
3. Тихвинский В.О., Терентьев С.В., Юрчук А.Б. Сети мобильной связи LTE. Технологии и архитектура. – М.: Эко-Трендз, 2010.– 284.

ISSN 3030-3907

SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI: O'QITISH VA O'RGANISHNI TRANSFORMATSIYA QILISH

Abdulatif Meyliev Rakhmatillayevich
University of Information Technologies and Management ATMU Assistant,
E-mail: abdulatif1909@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-1308-2862

Annotatsiya. Sun'iy intellekt ta'lim tizimining rivojlanishida muhim omilga aylandi. U o'qitish jarayonini individuallashtirish, baholashni avtomatlashtirish va ma'muriy jarayonlarni yengillashtirish orqali ta'lim samaradorligini oshirmoqda. Maqolada sun'iy intellektning asosiy qo'llanish yo'nalishlari - adaptiv o'qitish tizimlari, intellektual o'qituvchilar hamda AI asosidagi baholash metodlari tahlil qilinadi. Shuningdek, AI texnologiyalarini ta'limga joriy etishda yuzaga keladigan axloqiy muammolar, ma'lumotlar xavfsizligi, algoritmik xatolar va inson–mashina hamkorligi kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Tadqiqotlar sun'iy intellekt ta'lim jarayonini takomillashtirib, talaba–o'qituvchi munosabatlarini kuchaytirishi va inklyuziv ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellect, ta'limda AI, individuallashtirilgan o'qitish, adaptiv o'qitish tizimlari, intellektual o'qituvchi tizimlari, avtomatlashtirilgan baholash, o'quv jarayonini tahrirlash, ma'lumotlar xavfsizligi, algoritmik xatoliklar, inson-AI hamkorligi, inklyuziv ta'lim, axloqiy AI, raqamli transformatsiya, ta'lim avtomatlashtirish.

Аннотация. Искусственный интеллект стал важным фактором развития современной системы образования. Он повышает эффективность обучения за счёт индивидуализации учебного процесса, автоматизации оценивания и упрощения административных процедур. В статье анализируются основные направления применения искусственного интеллекта в образовании, включая адаптивные системы обучения, интеллектуальные обучающие системы, а также методы оценивания, основанные на технологиях ИИ. Кроме того, рассматриваются ключевые проблемы, возникающие при внедрении ИИ в образовательную среду, такие как этические вопросы, обеспечение безопасности данных, алгоритмические ошибки и особенности взаимодействия человека и машины. Результаты исследований показывают, что искусственный интеллект способен существенно улучшить образовательный процесс, укрепить взаимодействие между студентом и преподавателем, а также расширить возможности инклюзивного образования.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, ИИ в образовании, персонализированное обучение, адаптивные системы обучения, интеллектуальные обучающие системы, автоматизированная оценка,

оптимизация учебного процесса, безопасность данных, алгоритмические ошибки, взаимодействие человека и ИИ, инклюзивное образование, этичный ИИ, цифровая трансформация, автоматизация образования.

Abstract. Artificial intelligence has become a significant factor in the development of modern education. It enhances educational effectiveness by personalizing instruction, automating assessment, and simplifying administrative processes. This article analyzes key applications of artificial intelligence in education, with particular focus on adaptive learning systems, intelligent tutoring technologies, and AI-based assessment methods. Furthermore, the study examines major challenges associated with the integration of AI into educational environments, including ethical concerns, data security risks, algorithmic errors, and the nature of human–machine collaboration. Research findings demonstrate that artificial intelligence can substantially improve learning processes, strengthen student–teacher interaction, and expand opportunities for inclusive education.

Keywords: Artificial intelligence, AI in education, personalized learning, adaptive learning systems, intelligent tutoring systems, automated assessment, learning process optimization, data security, algorithmic errors, human–AI collaboration, inclusive education, ethical AI, digital transformation, educational automation.

1.Kirish.

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirmoqda[1]. An’anaviy pedagogik yondashuvlar o‘rniga raqamli yechimlarga tayangan, ma’lumotlar asosida qaror qabul qiluvchi, Talabaning individual ehtiyojlarini inobatga oluvchi ta’lim muhiti shakllanmoqda[3]. Mashina o‘rganishi, tabiiy tilni qayta ishlash va aqlli avtomatlashtirish kabi SI mexanizmlarining qo‘llanilishi natijasida o‘quv jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan, moslashuvchan hamda yuqori samarali ko‘rinish kasb etmoqda[5]. SI ta’limni uch asosiy yo‘nalish bo‘yicha takomillashtirmoqda: birinchidan, o‘quv jarayonini sifatli amalga oshirish uchun innovatsion vositalar bilan ta’minlaydi[7]; ikkinchidan, ma’muriy jarayonlarni avtomatlashtiradi[8]; uchinchidan esa ma’lumotlar tahliliga asoslangan strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi[10].

Ta’lim kontekstida sun’iy intellekt deganda ma’lumotlar qatlamini chuqur tahlil qilish orqali mustaqil funksiyalarni bajaruvchi, o‘quv jarayonini boshqaruvchi va talabaga mos kontent yaratishni qo‘llab-quvvatlovchi aqlli tizimlar yig‘indisi tushuniladi[3]. Chatbotlar, intellektual o‘qituvchi dasturlar, moslashuvchan test tizimlari, ovozdan matnga va matndan ovozga o‘tkazish texnologiyalari, avtomatlashtirilgan baholash algoritmlari hamda o‘quv ma’lumotlarini to‘plash va tahlil qilishga imkon beruvchi analitik tizimlar SI ning amaliy ifodasidir[12]. Bu texnologiyalar o‘quv jarayonining samaradorligini

ISSN 3030-3907

oshirish bilan birga ta’limning inklyuzivligini kuchaytiradi, imkoniyati cheklangan yoki chekka hududlarda yashovchi talabalarga ham sifatli bilimga kirish imkonini beradi [15].

SI asosidagi tizimlar ta’lim muassasalarini modernizatsiya qilmoqda. Adaptiv o‘qitish algoritmlari talabaning bilim darajasi, o‘zlashtirish sur’ati va qiziqishidan kelib chiqib, o‘quv materialini avtomatik moslaydi[6]. O‘quv jarayonining raqamli tahlili esa o‘qituvchiga har bir talaba uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi[10]. Shuningdek, SI asosidagi tizimlar darhol qayta aloqa beradi, u orqali talaba xatolarini zudlik bilan tuzatishi mumkin[7]. Bu jarayon o‘qituvchining yukini yengillashtiradi, uning diqqatini metodik rivojlanish va ta’lim sifati ustida ishlashga yo‘naltiradi[9].

Biroq SI texnologiyalarining qo‘llanishi bilan bog‘liq tahdid va xavflar ham mavjud. Ma’lumotlar xavfsizligi, algoritmik nohaqlik, intellektual mulk huquqlarining buzilishi, texnologiyalarga haddan tashqari qaramlik hamda o‘qituvchi roliga nisbatan tahdidlar takomillashgan intellekt tizimlari uchun asosiy muammo hisoblanadi. Shu sababli, SI ni joriy etishda tamoyillar, me’yorlar va axloqiy cheklovlar ishlab chiqilishi zarur.

Ushbu sharh maqola zamonaviy ta’limda SI texnologiyalarining qo‘llanish yo‘nalishlarini, adaptiv o‘qitish imkoniyatlarini, AI asosidagi baholash tizimlarini, virtual ta’lim muhitlarining kelajakdagi rivojlanishini, bashoratli tahlil va ta’lim siyosatini modellash imkoniyatlarini o‘rganishni maqsad qiladi. Natijalar SI texnologiyalarining ta’lim sifatini oshirish, ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish va talaba–o‘qituvchi o‘zaro ta’sirini yangi bosqichga ko‘tarishda strategik ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

2.Metodologiya.

Tadqiqotning metodologik asoslari sun’iy intellektning ta’lim tizimiga qo‘llanish jarayonini tizimli o‘rganishga qaratilgan. Ushbu jarayon SI texnologiyalarining zamonaviy shakl va ko‘rinishlarini tahlil qilish, ularning ta’limiy samaradorlikka ko‘rsatadigan ta’sirini baholash hamda amaliy qo‘llanishini ilmiy asoslashni nazarda tutadi. Metodologiya, avvalo, mavjud ilmiy tajribalarni chuqur tahlil qilishga tayanadi. Buning uchun manba tanlash jarayoni kengaytirilgan seleksiya tamoyillariga asoslanadi: obro‘li ilmiy nashrlar, xalqaro bazalar va yirik tadqiqot institutlari hisobotlari tahlil qilindi. Manbalar sifatida IEEE Xplore, Springer, Elsevier, Google Scholar singari yirik elektron bazalar, shuningdek, ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar tayyorlagan hisobotlar, hukumat agentliklarining tahliliy ma’lumotlari hamda xalqaro konferensiya va seminar materiallari asos qilib olindi.

Mazkur manbalarning ko‘pchiligi sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim muassasalarida qanday ishlashini, qanday texnologiyalar qo‘llanilishini hamda

ISSN 3030-3907

ularning samaradorligini aniq misollar yordamida yoritgan. Ularning tahlili SI texnologiyalarini tanlash mezonlarini shakllantirish imkonini berdi. Tanlov mezonlari amaliylik, ta’sir kuchi va innovatsion qiymatga asoslandi—ya’ni, tadqiqotlarda tilga olingan texnologiya ta’lim jarayoniga bevosita ta’sir etishi, o‘quvchilar yutuqlarini oshirishni ko‘zlashi hamda ma’muriy jarayonlarni takomillashtirishi kerak. Shuningdek, axloqiy talablarga javob berishi, xususan, maxfiylik, algoritmik adolat, inklyuzivlik prinsiplari inobatga olindi.

Tadqiqot doirasida SI texnologiyalarining ta’limdagi asosiy yo‘nalishlari ham ko‘rib chiqildi: adaptiv o‘qitish tizimlari, intellektual baholash va tahlil vositalari, raqamli ta’lim boshqaruvini avtomatlashtirish tizimlari, nutq va matnni qayta ishlashga asoslangan inkluziv texnologiyalar hamda istiqboldagi texnologik o‘sish jarayonlari—virtual sinflar, bashoratli tahlil tizimlari, SI asosidagi ta’lim siyosatini modellashtirish mexanizmlari. Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha mavjud ilmiy ma’lumotlar va tajribalar sinchiklab o‘rganilib, SI ning ta’limga ta’sirini ko‘rsatadigan mexanizmlar aniqlanadi.

Metodologiyaning maqsadi—sun’iy intellekt ta’lim tizimida transformatsiya ko‘lami va oqibatlarini ilmiy asosda baholash, undan samarali foydalanish yo‘llarini aniqlash va mavjud xavflar hamda to‘siqlarni oldindan ko‘rishdir. Shu tariqa, tadqiqot amaliy jihatdan ham, nazariy jihatdan ham zarur falsafiy asosga suyangani bilan ajralib turadi.

3.Adabiyotlar sharhi.

Sun’iy intellektning (SI) ta’lim sohasidagi imkoniyatlari va chaqiriqlari bo‘yicha mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, AI texnologiyalari zamonaviy ta’lim tizimini sezilarli darajada transformatsiya qilmoqda. Tadqiqotchilar (Ayeni, 2024; Harry, 2023; Kabi, 2023) SI asosidagi vositalar o‘quv jarayonini individuallashtirish, o‘quvchining shaxsiy ehtiyojlari va o‘zlashtirish sur’atiga moslash vazifasini bajarishini ta’kidlaydi. Mashina o‘rganishi algoritmlari yordamida talaba xatti-harakati, bilimi va natijalari kuzatiladi, natijada, an’anaviy “hamma uchun bir xil” model o‘rniga, moslashuvchan ta’lim paradigmalar shakllanadi (Essa, 2023). Shaxsiylashtirilgan yo‘nalishlar o‘quvchini faollashtirib, o‘quv muvaffaqiyatini oshiradi (Abimbola, 2024). Intellektual o‘qituvchi tizimlari (ITS) esa murakkab misollarni real vaqt rejimida tahlil qiladi, darhol qayta aloqa beradi va yechimlarni tavsiya etadi (Beck, 1996; Pappas, 2016; Lin, 2023).

Adabiyotlar ko‘rsatadiki, SI nafaqat o‘qitish jarayonini, balki boshqaruv va baholash tizimlarini ham sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. SI asosidagi avtomatik baholash tizimlari (Chen, 2020; Onesi-Ozigagun, 2024; Owan, 2023) yozma va test topshiriqlarini avtomatlashtirib, o‘qituvchi vaqtini tejaydi va baholash aniqligini oshiradi. Shuningdek, o‘quvchilar o‘z bilimini haqiqiy vaqtda tekshirish imkoniga

ISSN 3030-3907

ega bo‘ladi, bu esa o‘quv jarayonini tezkor va samarali qiladi. Ta’lim tizimida ma’lumotlar ko‘paygani sayin, SI asosidagi bashoratli tahlil tizimlari (Munir, 2022; Ahmad, 2020; Zawacki-Richter, 2019) o‘quvchining kelajakdagi natijasini oldindan aniqlashga imkon beradi. Bunday tizimlar o‘z vaqtida aralashuv choralarini ko‘rish orqali tashlab ketish yoki muvaffaqiyatsizlik xavfini kamaytiradi.

Adabiyotlar SIning salbiy oqibatlari haqida ham ogohlantiradi. Algoritmik xatolar va tarafkashlik (bias) SI modellari jamiyatdagi tengsizliklarni takrorlashi mumkin (Farrelly, 2023; Kasneci, 2023; Williams, 2024). Ma’lumotlar maxfiyligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash hamda talaba ma’lumotlarining ruxsatsiz ishlatilishi xavfi mavjud (Huang, 2023; Ayeni, 2024). Bundan tashqari, SIga haddan ziyod tayanish natijasida talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi tirik muloqot kamayishi, mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va ijodiy fikrlash qobiliyatlari pasayishi mumkin (Williams, 2024; Darvishi, 2023).

SI texnologiyalarining ko‘plab yirik turlari – generativ modellardan tortib, til modellariga, chat-botlarga, arvaytal real vaqt tizimlariga qadar – ta’lim jarayonini kengaytirish salohiyatiga ega (Kasneci, 2023; Kadaruddin, 2023). Ayniqsa, generativ AI matnlar yaratishi va topshiriqlarni bajarishi ortidan akademik halollik inqirozi yuzaga kelishi mumkin (Farrelly, 2023; Cotton, 2023). Shu sababli aniq siyosiy va pedagogik me’yorlar ishlab chiqilishi, ish jarayoni shaffof va hisobdor bo‘lishi zarur (Williams, 2024).

SI tizimlarining hududiy tarqalishi, infrastrukturaviy resurslar yetishmovchiligi va raqamli tafovut (digital divide) tufayli ta'lim muassasalari o‘rtasida tengsizlik kuchayishi ehtimoli bor (Saputra, 2023; Bulathwela, 2024). O‘qituvchi kadrlarining etarli tayyorgarlikka ega bo‘lmasligi ham asosiy muammo sifatida qayd etilgan (Ghamrawi, 2023; Walter, 2024). Shu bilan birga, SI telekommunikatsiya infratuzilmasi rivojlangan sharoitda, ayniqsa virtual sinf, kengaytirilgan haqiqat (AR) va virtual haqiqat (VR) texnologiyalarining qo‘llanishi bilan ta’lim jarayonlari yanada ko‘lamdor aylanishi mumkin (Abimbola, 2024).

Kelajak trendlari SI asosidagi adaptiv ta’lim tizimlarining kengayishi, model sifatini oshirish, axloqiy me’yorlar ishlab chiqish, ma’lumotlar sifati va xavfsizligini oshirish bilan bog‘liq bo‘ladi (Paek, 2021; Ayeni, 2024). Ilmiy manbalar SI texnologiyasining uzoq muddatli ta’siri – ta’lim samaradorligi, talaba salomatligi va ijtimoiy tenglikka ta’sirini chuqur tadqiq etish zarurligini ta’kidlaydi (Kadaruddin, 2023; Farrelly, 2023).

Mazkur adabiyotlar sharhi shuni anglatadiki, SI texnologiyalari ta’limga keng imkoniyatlar ochsa ham, ularning salbiy oqibatlari va axloqiy muammolari ehtiyotkorlik bilan boshqarilishi shart. Optimal natija faqatgina ko‘p tomonlama

ISSN 3030-3907

hamkorlik – o‘qituvchi, talaba, tadqiqotchi, siyosat yurituvchi va texnologiya ishlab chiquvchilar o‘rtasidagi uzluksiz dialog orqali ta’minlanishi mumkin.

4.Natija.

Mazkur tadqiqot natijalari sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta’lim tizimiga joriy etilishi nafaqat texnologik yangilanish, balki pedagogik paradigmalarni tubdan qayta shakllantiruvchi strategik omil ekanini ko‘rsatdi. O‘rganilgan ilmiy manbalar, amaliy tajribalar va tahliliy ma’lumotlar asosida SI vositalarining ta’lim jarayoniga ta’siri ko‘p qirrali va tizimli fe’l-atvorga ega ekanligi aniqlandi.

Birinchidan, tadqiqot natijalari individuallashtirilgan o‘qitish samaradorligi sezilarli darajada oshishini tasdiqlaydi. Adaptiv o‘qitish tizimlari talabaning bilim darajasi, o‘zlashtirish tezligi, xatolar profili va qiziqish doirasini real vaqt rejimida tahlil qilish orqali o‘quv kontentini moslashtira olishi aniqlangan. Bu holat an’anaviy, standartlashtirilgan ta’lim modeliga nisbatan yuqori akademik natijalar, bilimni mustahkamlash va talabalarning ishtiyog‘i ortishiga olib keladi. Ayniqsa, bilim darajasi turlicha bo‘lgan guruhlarda SI asosidagi yondashuv differensial ta’limni amalda ta’minlay olishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, intellektual o‘qituvchi tizimlari (Intelligent Tutoring Systems) talabalarning mustaqil o‘rganish kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi aniqlangan. Ushbu tizimlar murakkab topshiriqlarni tahlil qilish, xatolar sababini aniqlash va individual tavsiyalar berish orqali o‘quvchini faollashtiradi. Natijalarga ko‘ra, SI asosidagi real vaqt qayta aloqasi (feedback) talabaning o‘z-o‘zini nazorat qilish va reflektiv fikrlash ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Bu esa o‘rganish jarayonining passiv iste’molchilikdan faol bilim yaratish bosqichiga o‘tishini ta’minlaydi.

Uchinchidan, AI asosidagi baholash va monitoring tizimlari ta’lim jarayonining shaffofligi va aniqligini oshirishi aniqlandi. Avtomatlashtirilgan baholash mexanizmlari subyektivlik omilini kamaytirib, katta hajmdagi yozma va test topshiriqlarini tezkor va izchil baholash imkonini beradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bunday tizimlar o‘qituvchining yukini sezilarli darajada kamaytirib, uning e’tiborini metodik takomillashtirish, ijodiy pedagogik faoliyat va individual maslahatlar berishga yo‘naltiradi. Shu bilan birga, baholash natijalari asosida o‘quvchilarning rivojlanish trayektoriyasini prognozlash imkoniyati kengayadi.

To‘rtinchidan, tadqiqot bashoratli tahlil (predictive analytics) texnologiyalarining ta’limdagi strategik ahamiyatini tasdiqladi. SI algoritmlari o‘quvchilarning davomati, faolligi va akademik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish orqali potensial muvaffaqiyatsizlik xavfini oldindan aniqlay oladi. Bu esa erta aralashuv mexanizmlarini ishlab chiqish, individual qo‘llab-quvvatlash strategiyalarini belgilash va tashlab ketish (dropout) holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

ISSN 3030-3907

Beshinchidan, natijalar SI texnologiyalarining inklyuziv ta’limni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini alohida ta’kidlaydi. Nutqni matnga aylantirish, matndan nutqqa o‘tkazish, avtomatik tarjima va moslashuvchan interfeyslar imkoniyati cheklangan talabalar uchun ta’limga teng kirish imkonini yaratadi. Shuningdek, masofaviy va chekka hududlarda joylashgan ta’lim muassasalari uchun SI asosidagi raqamli platformalar bilim sifatidagi hududiy tafovutni kamaytirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari muayyan xavf va cheklovlar mavjudligini ham ko‘rsatadi. Algoritmik tarafkashlik, ma’lumotlar xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi va akademik halollik bilan bog‘liq muammolar SI texnologiyalarini ehtiyotkorlik bilan joriy etishni talab etadi. Ayniqsa, generativ AI vositalarining noto‘g‘ri qo‘llanilishi mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi qayd etildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim sifatini oshirish, o‘qitish jarayonini moslashuvchan qilish va ta’lim boshqaruvini optimallashtirishda yuqori salohiyatga ega ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Biroq bu salohiyat faqatgina axloqiy me’yorlar, inson markazidagi yondashuv va ilmiy asoslangan siyosat bilan uyg‘un holda joriy etilgandagina barqaror va ijobiy natijalar berishi mumkin.

5.Ta’limga sun’iy intellektni integratsiya qilish bo‘yicha xulosa va tavsiyalar.

Sun’iy intellektni ta’lim tizimiga izchil va xavfsiz tatbiq etish uchun zarur bo‘lgan tavsiyalar majmuasi ishlab chiqilishi shart. Birinchi navbatda, SI texnologiyalari axloqiy tamoyillar asosida shakllanishi lozim: ma’lumotlar maxfiyligi, algoritmik tarafkashlikni kamaytirish va shaffoflikni ta’minlash zarur. Mavjud me’yoriy bazalar – xususan, GDPR va FERPA singari himoya mexanizmlariga rioya qilish, ta’lim muassasalarida ma’lumotlar himoyasini kuchaytirish zamon talabi hisoblanadi.

Ikkinchi yo‘nalish – AI savodxonligini oshirish. O‘qituvchilar SI vositalaridan ongli, mas’uliyatli va samarali foydalanishi uchun AI savodxonligini egallashi lozim. Bu borada pedagogik tamoyillar, axloqiy me’yorlar va AI vositalarini amaliy qo‘llash bo‘yicha kasbiy tayyorgarlik dasturlari ishlab chiqilishi zarur.

Uchinchi tavsiya – raqamli tafovutni qisqartirish. SI texnologiyalari barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyat yaratishi kerak, aks holda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar chuqurlashadi. Shuning uchun kam ta’minlangan hudud va guruhlar uchun AI vositalarini joriy etish bo‘yicha davlat va ta’lim siyosati kuchaytirilishi lozim.

To‘rtinchi yo‘nalish – uzluksiz tadqiqot va tahlil. SIning o‘quvchilarning o‘zlashtirishi, tanqidiy fikrlashi va shaxsiy rivojlanishiga uzoq muddatli ta’siri

ISSN 3030-3907

haligacha to‘liq o‘rganilmagan. Shu bois AI modellarini iteraktiv tarzda takomillashtirish, etalon me’yorlar ishlab chiqish va ilgari surilgan taxminlarni empirik asoslash zarur.

Beshinchi tavsiya – inson markazidagi yondashuvni saqlash. SI o‘qituvchi va talabaning o‘rnini bosmasligi, balki ularni qo‘llab-quvvatlashi, jarayonlarni yengillashtirishi va ta’limiy qadriyatlarni mustahkamlashi kerak. Hattoki rivojlangan avtomatlashtirish sharoitida ham insoniy omil – ijod, hamdardlik, pedagogik sezgi ustuvor bo‘lib qolishi lozim.

Shunday qilib, AI integratsiyasi jarayoni texnologik taraqqiyotni cheksiz qo‘llab-quvvatlash emas, balki uni axloqiy, inklyuziv va ta’limiy qadriyatlarga mos tarzda boshqarishdir. AI taraqqiyoti tezlashgani sayin, ta’lim tizimi ham o‘z paradigmasini moslashtirishi, inson salohiyatini saqlab qolgan holda texnologiyani xizmatkor sifatida boshqarishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abimbola A. (2024). AI-enabled learning systems and ethical concerns in education.
2. Ayeni T. (2024). AI adoption and policy alignment in education.
3. Harry S. (2023). Learning analytics for personalized learning.
4. Kabi R. (2023). Algorithmic fairness in adaptive tutoring.
5. Essa M. (2023). Adaptive systems for diverse learners.
6. Beck J. (1996). Cognitive tutoring systems and individualized feedback.
7. Pappas N. (2016). Intelligent tutoring and cognitive modeling.
8. Lin S. (2023). ITS model improvements in modern pedagogy.
9. Chen L. (2020). AI-based assessment automation tools.
10. Onesi-Ozigagun E. (2024). AI feedback automation and teacher workloads.
11. Owan V. (2023). Ethical implications in automated assessment.
12. Ahmad K. (2020). Predictive analytics for student retention.
13. Munir S. (2022). Bias in educational predictive models.
14. Zawacki-Richter O. (2019). AI risks and governance in education.
15. Williams R. (2024). Critical risks of AI dependence.
16. Kasneci E. (2023). Large language model risks & transparency.
17. Farrelly S. (2023). Discriminatory outcomes from AI bias.
18. Huang Y. (2023). Data protection in educational AI systems.
19. Cotton D. (2023). Academic integrity in generative AI contexts.
20. Raxmatillayevich, M. A. (2025). SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN FARMATSEVTIKA SANOATI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 3(31), 98-101.
21. Bekhzod, N. (2024). Comparing Random Forest and Support Vector Machines. *Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science*, *2*(3), 5-9.

ISSN 3030-3907

22. Shoniyozova, Y. Q., Turdiyeva, M. A., & Norboyev, B. U. (2020). NETWORK ATTACK PREVENTION SYSTEMS. *ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ПРИОРИТЕТЫ НАУЧНО*, 46.

ISSN 3030-3907

INGLIZ TILIDA METAFORA VA METONIMIYA ASOSIDA SHAKLLANGAN LEKSIK BIRLIKLAR.

Saidova Gulsevar Husan qizi
O‘zDJTU Ingliz tili 3-fakultet talabasi
Isamuxamedova Munisxon Najmitdinova
O‘zDJTU

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tili leksikologiyasida metafora va metonimiyaning o‘rni va shu kabi ma'no ko‘chish turlari asosida shakllangan so‘z birliklar o‘rganildi. Bundan tashqari, metafora va metonimiya tushunchasi tushuntirilib, misollar orqali yoritib berilgan. Metafora va metonimiyaning leksik boyishdagi roli hamda nutqdagi funksional ahamiyati ta'kidlab o‘tildi.

Kalit so‘zlar: metafora, metonimiya, ma'no ko‘chish, leksika, metaforik va metonimik ma'no.

Annotation. This article examines the role of metaphor and metonymy in English lexicology, as well as lexical units formed on the basis of various types of semantic transfer of meaning. In addition, the concepts of metaphor and metonymy are explained and illustrated through examples. The role of metaphor and metonymy in lexical enrichment and their functional significance in speech are also highlighted.

Keywords: metaphor, metonymy, semantic transfer, lexis, metaphorical and metonymic meaning.

1.2-расм. Ғовакли (а) ва аморф (б) кремний ўтказувчанлигининг температурага боғлиқлиги.

Натижалар. Наноматериалларнинг ўтказувчанлик хусусиятини тавсифлаш одатда таъсир назарияси ва эффектив муҳит назарияси доирасида амалга оширилади [7]. Ушбу ёндашув грануланинг классик ўлчовлари учун амал қилади. Металлардан фарқли равишда, яримўтказгичларнинг солиштирма электр ўтказувчанлиги (σ) ҳарорат ортиши билан ортади:

$$\sigma = \sigma_0 \exp\left[-E_A/(kT)\right] \qquad (1.1)$$

Бу ерда E_A – ўтказувчанлик энергияси; σ_0 – коеффициент.

(1.1) ифода яримўтказгичларда электронларнинг атомлар билан боғланиш энергияси E_A тартибида бўлишини англатади. Ҳарорат ортгани сари иссиқлик ҳаракати туфайли электрон боғлари узилади, натижада уларнинг баъзилари экспонента кўрсаткичига $[-E_A/(kT)]$ мутаносиб ҳолда эркин заряд ташувчиларга айланади [7].

ISSN 3030-3907

Бутун дунёда илм – фан ҳамда техника ривожида нанотехнологияларга, шу жумладан наноматериалларга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Қўплаб материаллар каби кремнийда ҳам ўлчами маълум наноўлчамларгача кичрайган сари хоссаларида кескин ўзгариш кузатилди. Масалан, нанокремнийни ультрабинафша нурини юта олиши ва шу билан бир вақтда кўринувчи қўёш нурига шаффоф бўла олиш қобилияти уни қўёш нурининг кенг спектрини электр энергияга айлантириш йўлида истиқболли материал қилиб кўрсатмоқда.

Яримўтказгичлар физикасидан маълумки, донадорликлараро чегара соҳалардаги киришма атомлар ва нуқсонлар заряд ташувчилар учун локаллашган тузоқларни ҳосил қилади. Бу тузоқлар донадорликлараро чегара соҳаларида тўсиқ эффектини ҳосил қилади. Локаллашган тузоқларда заряд ташувчилар ушланиши ва қайта озод бўлиши потенциал тўсиқ баландлиги (φ) нинг, бу эса, ўз навбатида, электрўтказувчанлик (σ)нинг ўзгаришига олиб келади. Электрўтказувчанлик (σ) учун Сетто моделига асосан, қуйидаги ифодани ёзиш мумкин [8]:

$$\sigma = \frac{q\langle a\rangle A^* T}{k} exp\left(-{}^{q\varphi}/_{kT}\right) \qquad (1.2)$$


бу ерда, q – электрон заряди, $\langle a\rangle$ - донадорлик ўлчами, A^* – Ричардсоннинг эффективлик доимийси, T – температура, k – Больцман доимийси, φ – донадорликлараро чегара соҳадаги потенциал тўсиқ баландлиги.

Потенциал тўсиқ баландлиги (φ) локаллашган тузоқларда ушланаётган зарядлар миқдори (Q_i) га боғлиқ бўлиб, бу боғлиқликни қуйидагича ифодалаш мумкин:

$$\varphi = \frac{Q_i^2}{\delta\varepsilon\varepsilon_o q N_G} \qquad (1.3)$$

ифодада ε - муҳитнинг нисбий диэлектрик сингдирувчанлиги, ε_o - вакуумнинг абсолют диэлектрик сингдирувчанлиги, N_G – электрик жиҳатдан фаол бўлган легирланган киришмалар концентрацияси [9].

ISSN 3030-3907



1.3-расм. SOS асосли 60 нм қалинликдаги ReSi1,75 эпитакциал плёнканинг Зеебек коэффициенти (а) ва қаршилиги (б). Ўлчовлар учта ҳарорат циклида амалга оширилган: Δ - 450 К гача, □ - 950 К гача, ∇ - 100 К гача.

Дунё энергиясининг тахминан 90 % ини қазиб олинадиган ёқилғини иссиқлик манбаи сифатида ишлатадиган иссиқлик двигателлари ишлаб чиқаради, натижада атроф – муҳитга 15 терават иссиқлик сарф бўлади. Термоэлектрик модуллар ушбу паст сифатли чиқинди иссиқликни бир қисмини электр энергияга айлантириши мумкин. Уларнинг самарадорлиги Зеебек коэффициенти, солиштирма электр қаршилиги, иссиқлик ўтказувчанлиги ва мутлоқ (абсолут) ҳароратнинг функцияси ҳисобланган материал компонентларининг термоэлектрик асиллиги (добротности) *ZT* қўрсаикичига боғлиқ. Сўнги ўн йилликда *ZT* нинг параметрлари ўзаро боғлиқ бўлганлиги туфайли унинг қийматини *ZT>1* дан ошириш қийин бўлди. Ҳозирги вақтда нанотузилмали материалларда *ZT>1* дан ошириш мумкин бўлсада, ишлатилган материалларни (*Bi, Te, Pb, Sb ва Ag)* тажриба - синовлардаги ўлчамларини ўлчашда кўп қийинчиликларга дуч келинмоқда [10]. Амалда қўлланилаётган кўпгина термоэлектрик материаллар учун ZT қиймати бирдан ошмасада, мавжуд ҳисоб китобларга қўра рутений (Ru_2Si_3) ва рений ($ReSi_{1,75}$) силикатлари учун ZT ни қийматини ушбу чегарадан ошириш мумкин [10] (1.3-расм). Буларни ҳисобга олган ҳолда наноўлчамли грануллганган яримўтказгичларнинг, хусусан кремнийнинг термоэлектрик хоссаларини ўрганиш долзарб хисобланади.

Хулоса. Грануллганган кремнийнинг термоэлектрик хусусиятларини эксперимантал – назарий ўрганиш бўйича ҳам кўплаб илмий тадқиқот ишлари олиб борилган бўлиб, асосан намуналарнинг қуйидаги термоэлектрик параметрлар чуқур тадқиқ қилинган: α_{eff} – коеффициент, яъни намунанинг термоэлектрик хусусиятини таснифловчи Зеебек коеффициент; σ_{eff} – электр ўтказувчанлик; χ_{eff} – иссиқлик ўтказувчанлик; материалнинг

ISSN 3030-3907

асиллиги Z_{eff} – бу кенг ҳарорат оралиғи ва гранула ўлчамига боғлиқ бўлган энг муҳим термоэлектрик характеристикани аниқлашга имкон берувчи катталик ҳисобланади. Ушбу катталикларнинг температурага боғлиқлигини ўрганиш борасида ҳам кўплаб тадқиқотлар амалга оширилган, хусусан [11] ишда темир ва рутенийли яримўтказгич силикатларининг термоэлектрик хусусиятларининг 4,2÷1070 *K* температура оралиғида ўзгариши ўрганилган бўлиб, яримўтказгичли силикатлардан термоэлектрик соҳада амалий фойдаланиш бўйича тавсиялар берилган. [11] ишда грануллланган кремнийнинг термоэлектрик хусусиятлари ўрганилган бўлиб, объект сифатида кремний микрокристалидан фойдаланилган бўлиб, унинг технологияси 10 – 100 мкм ўлчамли гранулалар олиш имконини беради. Кўп фазали гранулалардан иборат гетероген яримўтказгичли муҳитнинг моделлари яратилган бўлиб, гранулалар тўпламининг ўрта самарадорлик модели (ЎСМ) яратилган. Унга кўра ҳар бир гранулалар фазаси ўзига хос ўтказувчанлик, иссиқлик ўтказувчанлик, Зеебек коэффициенти ва термоэлектрик асиллиги билан ажралиб туради, шунингдек уларнинг гранулалар тўпламлари хусусиятларининг ассиметрия даражасига қараб қийматлари таҳлил қилинади. Одатда турли материаллар учун иссиқлик ўтказувчанлик коэффициенти тажриба – синов усулида аниқланиб, ҳозирда бир қатор усуллари мавжуд бўлиб, уларнинг аксарияти маълум бир моддадаги иссиқлик оқими ва ҳарорат градиентини ўлчашга асосланган.

Хулоса қилиб айтганда наноўлчамли грануллланган яримўтказгичларнинг электрофизик ва термоэлектрик хоссалари модданинг асосий физик кўрсаткичлари бўлиб, уларнинг зичлигига боғлиқдир [87; 97 б]. Умуман олганда, электр ўтказувчанлик ва иссиқлик ўтказувчанлик коэффициенти ҳароратга, босимга ва модданинг ҳолатига, ўлчамига боғлиқ катталиклар бўлиб, уларни тадқиқ қилиш янги турдаги термоэлектрик материаллар олиш ва ҳозирда мавжудларининг самарадорлигини оширишда асос бўлиб хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР

1. Пархоменко В.Д., Сорока П.И., Краснокутский Ю.И., Верещак В.Г. Плазмохимические методы получения порошкообразных веществ и их свойства. // Всесоюзный журнал химического общества им. Д.И.Менделеева. №(2), Т.36. 1991. - С. 166-170

2. Н.С.Аверкиев, Л.Ивченко, А.Тарасенко. Полупроводники. Большая российская энциклопедия. 2004. – С. 1782-1786.

3. А.В. Каримов, Д.М. Ёдгорова. Физические явления в арсенидгаллиевых структурах с микрослойным квазиизопериодическим переходом. Ташкент, “Фан” Академии наук Республики Узбекистан, 2005. - С. 252.

ISSN 3030-3907

4. Т.Ю. Белик. Особенности пористого кремния, полученного химическим травлением. IX Международная конференция и VIII Школа молодых ученых и специалистов по актуальным проблемам физики, материаловедения, технологии и диагностики кремния, наноразмерных структур и приборов на его основе «КРЕМНИЙ-2012» Санкт-Петербург, 2012. – С. 278.
5. W.D.A.M. de Boer, D. Timmerman, K. Dohnalova, I.N. Yassievich, H. Zhang, W.J. Buma, T. Gregorkiewicz. Red spectral shift and enhanced quantum efficiently in photon-free photoluminescence from silicon nanocrystals. Nature Nanotechnology, 2010. – P. 878-883.
6. Wang S.-H., Lee C.-W., Chiou A., Wei P.-K. Size-dependent endocytosis of gold nanoparticles studied by three-dimensional mapping of plasmonic scattering images. — J. Nanobiotechnology. Vol. 8, 2010. – P. 33-39
7. В.А. Гольдаде. Материалы электронной техники. М-во образования РБ, Гом. гос. ун-т им. Ф. Скорины. – Гомель: ГГУ им Ф. Скорины, 2014. – С. 152
8. S. Zaynabidinov, Z.M.Soxibova, M. Nosirov. A method for determining the thermal conductivity of granulated silicon in which alkali metal atoms are included. // The Way of Science International scientific journal, 2022. № 3 (97), (Global Impact Factor 0.543, Австралия). - P. 15-17
9. Allon I. Hochbaum, Renkun Chen, Raul Diaz Delgado, Wenjie Liang, Erik C. Garnett, Mark Najarian, Arun Majumdar, Peidong Yang. Enhanced thermoelectric performance of rough silicon nanowires. *Nature*. Vol. 451, 2008. – P.163–167.
10. А.В. Каримов, Д.М. Ёдгорова. Физические явления в арсенидгаллиевых структурах с микрослойным квазиизопериодическим переходом. Ташкент, “Фан” Академии наук Республики Узбекистан, 2005. - С. 252.
11. Л.И. Иваненко. Термоэлектрические свойства полупроводниковых силицидов. Доклады бгуир. №2, 2005. - С. 90-101.

ISSN 3030-3907

UO‘K 621.224.2:621.313.33:621.314.572

ASINXRON DVIGATEL ISH REJIMLARINI ROSTLASH ORQALI MARKAZDAN QOCHMA NASOSLARNING BEP DA ISHLASHINI TA’MINLASH

U.T.Berdiyev
Toshkent Davlat transport universiteti professori
N.A.Samatov
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti professori
X.A.Mamajonov
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti
E-mail: mamajonovholmirza93@gmail.com
https://orcid.org/0009-0006-2688-6462

Annotatsiya: Ushbu maqolada asinxron elektr dvigatel ish rejimlarini rostlash orqali markazdan qochma nasos agregatlarining optimal ishchi nuqtada (BEP — Best Efficiency Point) ishlashini ta’minlash masalasi tadqiq etilgan. Nasos agregatlarining amaliy ekspluatatsiyasi jarayonida ishchi nuqtaning BEP dan chetlanishi energiya samaradorligining pasayishiga, elektr energiyasi sarfining ortishiga hamda mexanik va gidravlik yo‘qotishlarning kuchayishiga olib kelishi ko‘rsatib berilgan. Tadqiqotda nasos va quvur tizimi xarakteristikalari, shuningdek, asinxron dvigatelning elektromexanik xususiyatlari yagona tizim sifatida tahlil qilingan. Asinxron dvigatel aylanish tezligini chastota o‘zgartirgich yordamida rostlash orqali nasos xarakteristikasini tizim qarshilik xarakteristikasiga moslashtirish va ishchi nuqtani BEP ga yaqinlashtirish imkoniyati asoslab berilgan. Olingan natijalar BEP rejimida ishlash nasos agregatlarining foydali ish koeffitsientini oshirishini, elektr energiyasi solishtirma sarfini kamaytirishini hamda ekspluatatsion barqarorlikni yaxshilashini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari suv ta’minoti va irrigatsiya tizimlarida energiya tejamkor nasos agregatlarini boshqarish tizimlarini ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Markazdan qochma nasos, optimal ishchi nuqta (BEP), asinxron elektr dvigatel, chastotali boshqaruv, energiya samaradorligi, nasos agregati, ishchi nuqta, elektr yuritma, gidravlik yo‘qotishlar, suv ta’minoti tizimlari.

Аннотация: В данной статье исследуется вопрос обеспечения работы центробежных насосных агрегатов в оптимальной рабочей точке (ОПТ — точка максимальной эффективности) путем регулирования режимов работы асинхронного электродвигателя. Показано, что в процессе практической эксплуатации насосных агрегатов отклонение рабочей точки от ППТ приводит к снижению энергоэффективности, увеличению энергопотребления и росту механических и гидравлических потерь. В исследовании анализируются характеристики насосно-трубопроводной

системы, а также электромеханические характеристики асинхронного двигателя как единой системы. Обоснована возможность регулирования частоты вращения асинхронного двигателя с помощью частотного преобразователя для адаптации характеристик насоса к характеристикам сопротивления системы и приближения рабочей точки к ППТ. Полученные результаты подтверждают, что работа в режиме ППТ повышает полезную эффективность насосных агрегатов, снижает удельное энергопотребление и улучшает эксплуатационную стабильность. Результаты исследования могут быть использованы при разработке энергоэффективных систем управления насосными агрегатами в системах водоснабжения и орошения.

Ключевые слова: центробежный насос, оптимальная рабочая точка (BEP), асинхронный электродвигатель, частотное регулирование, энергоэффективность, насосный агрегат, рабочая точка, электропривод, гидравлические потери, системы водоснабжения.

Abstract: This article studies the issue of ensuring the operation of centrifugal pump units at the optimal operating point (BEP — Best Efficiency Point) by adjusting the operating modes of an asynchronous electric motor. It is shown that in the process of practical operation of pump units, the deviation of the operating point from BEP leads to a decrease in energy efficiency, an increase in electricity consumption, and an increase in mechanical and hydraulic losses. The study analyzes the characteristics of the pump and pipeline system, as well as the electromechanical characteristics of the asynchronous motor as a single system. The possibility of adjusting the asynchronous motor rotation speed using a frequency converter to adapt the pump characteristic to the system resistance characteristic and bring the operating point closer to BEP is substantiated. The results obtained confirm that operation in the BEP mode increases the useful efficiency of pump units, reduces the specific electricity consumption, and improves operational stability. The results of the study can be used in the development of energy-efficient control systems for pump units in water supply and irrigation systems.

Keywords: Centrifugal pump, best operating point (BEP), asynchronous electric motor, frequency control, energy efficiency, pump unit, operating point, electric drive, hydraulic losses, water supply systems.

Kirish

Hozirgi kunda suv ta’minoti, irrigatsiya va sanoat texnologik jarayonlarida markazdan qochma nasos agregatlari eng keng tarqalgan gidravlik qurilmalardan biri hisoblanadi. Turli tadqiqotlarga ko‘ra, nasos tizimlari umumiy elektr energiyasi iste’molining 20–25 % gacha qismini tashkil etadi. Ushbu tizimlarda energiya

ISSN 3030-3907

samaradorligini oshirish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ekspluatatsion jihatdan ham dolzarb muammolardan biridir.

Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, markazdan qochma nasoslarning katta qismi uzoq vaqt davomida optimal ishchi nuqtadan (BEP — Best Efficiency Point) chetlangan rejimlarda ishlatiladi. Bunday holatlarda nasos foydali ish koeffitsienti pasayadi, gidravlik va mexanik yo‘qotishlar ortadi, shuningdek, asinxron elektr dvigatelning ortiqcha tok tortishi, qizishi va tez eskirishi kuzatiladi. Natijada elektr energiyasi sarfi oshib, agregatlarning xizmat muddati qisqaradi.

Markazdan qochma nasoslarning ishchi nuqtasi nasos xarakteristikasi va tizim qarshilik xarakteristikasining kesishish nuqtasi bilan aniqlanadi. Tizim parametrlarining (sarf, bosim, gidravlik qarshilik) doimiy o‘zgarib turishi nasosning BEP rejimida barqaror ishlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli nasos agregatlarida ishchi nuqtani real vaqt rejimida BEP ga yaqin holda ushlab turish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Mazkur muammoni hal etishda asinxron elektr yuritmaning ish rejimlarini rostlash muhim ahamiyat kasb etadi. Aylanish tezligini, elektromagnit momentni va dvigatel yuklanishini rostlash orqali nasosning gidravlik xarakteristikalarini moslashtirish va natijada ishchi nuqtani BEP ga yaqinlashtirish mumkin. Ayniqsa, chastota o‘zgartirgichlar yordamida boshqariladigan asinxron dvigatellar nasos agregatlarida energiya samaradorligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

So‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda asinxron yuritmani rostlash asosida nasoslarni optimal rejimda ishlatishga qaratilgan yondashuvlar taklif etilgan bo‘lsa-da, ko‘plab ishlarda BEP ni boshqaruv tizimi uchun asosiy maqsadli nuqta sifatida tanlash yetarli darajada chuqur o‘rganilmagan. Shuningdek, nasos–dvigatel tizimining elektromexanik va gidravlik jarayonlarini birgalikda hisobga olgan holda BEP rejimini ta’minlash masalasi ilmiy jihatdan to‘liq yechim topmagan.

Ushbu maqolaning maqsadi — asinxron dvigatel ish rejimlarini rostlash orqali markazdan qochma nasoslarning optimal ishchi nuqtada (BEP) ishlashini ta’minlash imkoniyatlarini tadqiq etish, energiya samaradorligini oshirish hamda ekspluatatsion ko‘rsatkichlarni yaxshilashdan iborat. Tadqiqotda nasos va asinxron elektr yuritmaning o‘zaro bog‘liq xarakteristikalari tahlil qilinadi hamda BEP rejimiga yo‘naltirilgan boshqaruv yondashuvining afzalliklari asoslab beriladi.

Adabiyotlar tahlili:Markazdan qochma nasos agregatlarining energiya samaradorligini oshirish masalasi uzoq yillardan buyon ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Dastlabki tadqiqotlarda nasoslarning ish rejimlari asosan mexanik rostlash usullari, jumladan drossellash va bypass sxemalari orqali boshqarilgan. Ushbu usullar texnik jihatdan sodda bo‘lsa-da, energiya sarfining sezilarli darajada ortishiga va nasosning optimal ishchi nuqtadan chetlanishiga olib kelishi ko‘plab mualliflar tomonidan qayd etilgan.

ISSN 3030-3907

Keyingi ilmiy ishlarda markazdan qochma nasoslarning **optimal ishchi nuqtasi (BEP)** tushunchasi keng joriy etildi. BEP da nasosning foydali ish koeffitsienti maksimal qiymatga erishishi, gidravlik yo‘qotishlar minimum bo‘lishi va mexanik barqarorlikning ta’minlanishi isbotlangan. Bir qator tadqiqotlarda nasosning BEP dan chetlanib ishlashi oqibatida tebranishlar, kavitatsiya hodisalari va agregat elementlarining tez eskirishi yuzaga kelishi ko‘rsatib berilgan.

So‘nggi o‘n yilliklarda ilmiy adabiyotlarda nasos agregatlarini **asinxron elektr yuritma va chastota o‘zgartirgichlar yordamida rostlash** masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tadqiqotchilar aylanish tezligini o‘zgartirish orqali nasos xarakteristikasini tizim qarshilik xarakteristikasiga moslashtirish mumkinligini va bu orqali energiya sarfini 20–40 % gacha kamaytirish mumkinligini aniqlashgan. Ayniqsa, Affinitet qonunlariga asoslangan tezlik rostlash usullari nasos tizimlarida keng qo‘llanila boshladi.

Biroq mavjud ishlarda asosan elektr energiyasini tejashga urg‘u berilib, **asinxron dvigatelning elektromexanik holati** va uning BEP bilan bog‘liqligi yetarlicha chuqur tahlil qilinmagan. Ko‘plab tadqiqotlarda dvigatel toki, sirpanishi va elektromagnit momentining o‘zgarishi nasosning ishchi nuqtasiga qanday ta’sir ko‘rsatishi ikkilamchi masala sifatida qaralgan. Natijada nasos–dvigatel tizimi yagona kompleks obyekt sifatida emas, balki alohida elementlar majmuasi sifatida o‘rganilgan.

Zamonaviy ilmiy ishlarning bir qismida nasos agregatlarida BEP ni saqlash uchun **adaptiv va intellektual boshqaruv algoritmlari** taklif etilgan. Fuzzy Logic, sun’iy neyron tarmoqlar va ANFIS asosidagi yondashuvlar nasos ish rejimlarini real vaqt rejimida optimallashtirish imkonini berishi ta’kidlanadi. Ushbu ishlarda asosan gidravlik parametrlar (sarf, bosim) asosida qaror qabul qilinadi, biroq asinxron dvigatelning ichki energetik ko‘rsatkichlari bilan bog‘liqlik yetarli darajada integratsiya qilinmagan.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, markazdan qochma nasoslarning BEP da ishlashini ta’minlash masalasi keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, **asinxron elektr yuritmaning ish rejimlarini bevosita rostlash orqali BEP ni saqlash** muammosi ilmiy jihatdan to‘liq yoritilmagan. Nasos va dvigatelning o‘zaro bog‘liq elektromexanik va gidravlik jarayonlarini kompleks holda hisobga olgan tadqiqotlar yetarli emas.

Mazkur holat ushbu maqolada asinxron dvigatel ish rejimlarini rostlash asosida markazdan qochma nasoslarning optimal ishchi nuqtada ishlashini ta’minlash masalasini chuqur ilmiy tahlil qilish va yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.


Tadqiqot metodologiyasi:

ISSN 3030-3907

Tadqiqot obyektlari va yondashuv: Tadqiqot obyekti sifatida **asinxron elektr dvigatel bilan harakatga keltiriladigan markazdan qochma nasos agregati** tanlandi. Tadqiqotning metodologik asosi nasosning gidravlik xarakteristikalari va asinxron dvigatelning elektromexanik xususiyatlarini yagona tizim sifatida qarashga asoslangan. Tadqiqotda asosiy e'tibor nasos ishchi nuqtasini **optimal ishchi nuqta (BEP)** ga yaqinlashtirish va ushbu rejimni asinxron dvigatel ish rejimlarini rostlash orqali barqaror saqlashga qaratildi.

Metodologiya **nazariy tahlil, matematik modellashtirish va hisoblash tajribalari**ni o'z ichiga oladi. Nasos va elektr yuritmaning o'zaro ta'siri tizimli yondashuv asosida o'rganildi.

Nasos va tizim xarakteristikalarini aniqlash: Markazdan qochma nasosning ish rejimi nasos xarakteristikasi $H_p(Q)$ va tizim qarshilik xarakteristikasi $H_s(Q)$ ning kesishish nuqtasi orqali aniqlanadi. Tadqiqotda nasos xarakteristikasi ishlab chiqaruvchi katalog ma'lumotlari va empirik bog'lanishlar asosida aniqlanib, tizim qarshiligi quvur uzunligi, diametri va mahalliy yo'qotishlar hisobga olingan holda ifodalandi.



1-Rasm: Nasos va tizim xarakteristikalarining kesishish grafigi.

Optimal ishchi nuqta BEP quyidagi shart asosida belgilandi:

$$\eta_p(Q) \to max$$

bu yerda η_p — nasosning foydali ish koeffitsienti, Q — sarf.

Asinxron dvigatel ish rejimlarini modellashtirish: Asinxron dvigatelning ish rejimi elektromagnit moment M, aylanish tezligi n va sirpanish s o'rtasidagi bog'lanish orqali tavsiflandi. Nasos yuklama momenti quyidagi ifoda bilan ifodalandi:

$$M_{yuk} = k \cdot n^2$$

bu yerda k — nasos konstruktiv koeffitsienti.

ISSN 3030-3907

Dvigatel tezligini rostlash chastota o‘zgartirgich orqali amalga oshirildi. Chastotani o‘zgartirish orqali dvigatelning aylanish tezligi va natijada nasos xarakteristikasi siljitildi. Shu orqali ishchi nuqtani BEP ga moslashtirish imkoniyati yaratildi.

BEP ga yo‘naltirilgan rostlash algoritmi: Tadqiqotda BEP **boshqaruv tizimi uchun maqsadli nuqta** sifatida qabul qilindi. Rostlash algoritmi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirildi:

- real vaqt rejimida sarf, quvvat va dvigatel toki aniqlanadi;
- nasosning joriy ishchi nuqtasi aniqlanadi;
- joriy nuqtaning BEP ga nisbatan og‘ishi baholanadi;
- asinxron dvigatel aylanish tezligi chastota orqali rostlanadi;
- ishchi nuqta BEP ga yaqinlashtiriladi va barqarorlashtiriladi.

Mazkur yondashuv nasos tizimidagi yuklama o‘zgarishlariga moslashuvchan bo‘lib, qisman yuklama sharoitida ham energiya samaradorligini saqlash imkonini beradi.

Baholash mezonlari: Tadqiqot natijalarini baholash quyidagi asosiy mezonlar orqali amalga oshirildi:

- nasos foydali ish koeffitsientining o‘zgarishi;
- elektr energiyasi solishtirma sarfi (kWh/m³);
- asinxron dvigatel toki va quvvatining kamayishi;
- BEP dan chetlanish darajasi;
- ekspluatatsion barqarorlik ko‘rsatkichlari.

Mazkur mezonlar asosida asinxron dvigatel ish rejimlarini rostlash orqali nasosning BEP da ishlashini ta’minlash samaradorligi baholandi.

Tahlil va natijalar:Tadqiqot jarayonida markazdan qochma nasos agregatining ishchi nuqtasi nasos xarakteristikasi va tizim qarshilik xarakteristikasining o‘zaro kesishishi asosida aniqlanib, ushbu nuqtaning optimal ishchi nuqta (BEP) ga nisbatan joylashuvi tahlil qilindi. Dastlabki holatda nasos agregati o‘zgarmas aylanish tezligida ishlatilganda ishchi nuqtaning BEP dan sezilarli darajada chetlangani kuzatildi. Bu holat nasos foydali ish koeffitsientining pasayishiga va elektr energiyasi sarfining ortishiga olib kelgan.

Asinxron dvigatel ish rejimlarini rostlash orqali aylanish tezligi o‘zgartirilganda nasos xarakteristikasining siljishi sodir bo‘ldi va natijada ishchi nuqta tizim xarakteristikasi bo‘ylab BEP ga yaqinlashdi. Tezlikni kamaytirish orqali nasos hosil qiladigan bosim va sarf optimal qiymatlarga moslashtirildi. Bu jarayon ayniqsa qisman yuklama sharoitlarida yaqqol namoyon bo‘ldi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ishchi nuqtaning BEP ga yaqinlashishi bilan nasosning foydali ish koeffitsienti oshdi va gidravlik yo‘qotishlar kamaydi. Shu bilan birga asinxron dvigatel toki pasayib, elektromagnit va issiqlik

ISSN 3030-3907

yo‘qotishlarining kamayishi qayd etildi. Natijada nasos agregatining umumiy energiya samaradorligi sezilarli darajada yaxshilandi.

Elektr energiyasining solishtirma sarfi (kWh/m³) tahlili shuni ko‘rsatdiki, BEP dan uzoq rejimlarda ishlash holatiga nisbatan, rostlangan ish rejimida energiya sarfi 20–30 % gacha kamaydi. Bu natija asinxron dvigatelning optimal yuklanish rejimida ishlashi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, dvigatel sirpanishining kamayishi va moment–tezlik moslashuvining yaxshilanishi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, BEP atrofida ishlash nasos agregatining mexanik barqarorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Tebranish darajasi va gidravlik zarbalar kamaydi, bu esa podshipniklar va muhrlarning xizmat muddatini uzaytirish imkonini beradi. Ushbu holat nasos agregatlarining ekspluatatsion ishonchliligini oshirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, asinxron dvigatel ish rejimlarini rostlash orqali nasosning ishchi nuqtasini BEP ga yo‘naltirish nafaqat energiya tejamkorligini oshiradi, balki nasos–dvigatel tizimining umumiy texnik holatini barqarorlashtiradi. Bu yondashuv suv ta’minoti va irrigatsiya tizimlarida keng qo‘llash uchun ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan yechim hisoblanadi.

Xulosa

Ushbu tadqiqotda asinxron elektr dvigatel ish rejimlarini rostlash orqali markazdan qochma nasos agregatlarining optimal ishchi nuqtada (BEP) ishlashini ta’minlash imkoniyatlari tahlil qilindi. O‘tkazilgan nazariy va hisoblash tahlillari shuni ko‘rsatdiki, nasos agregatlarining amaliy ekspluatatsiyasi jarayonida ishchi nuqta ko‘pincha BEP dan chetlangan holatda bo‘lib, bu holat energiya samaradorligining pasayishiga va ekspluatatsion yo‘qotishlarning ortishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalari asinxron dvigatel aylanish tezligini rostlash orqali nasos xarakteristikasini tizim qarshilik xarakteristikasiga moslashtirish va natijada ishchi nuqtani BEP ga yaqinlashtirish mumkinligini tasdiqladi. Ishchi nuqtaning BEP atrofida barqaror saqlanishi nasosning foydali ish koeffitsientini oshirishi, elektr energiyasi solishtirma sarfini kamaytirishi hamda dvigatelning elektromexanik yuklanishini optimallashtirishi aniqlandi.

Shuningdek, BEP rejimida ishlash nasos agregatlarida gidravlik yo‘qotishlarning kamayishiga, tebranish va shovqin darajasining pasayishiga olib kelishi aniqlanib, bu holat agregatlarning xizmat muddatini uzaytirish imkonini beradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, asinxron elektr yuritmani BEP ga yo‘naltirilgan holda rostlash nasos tizimlarining umumiy texnik va energetik samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Takliflar

ISSN 3030-3907

Olingan ilmiy natijalar asosida quyidagi amaliy va ilmiy takliflar ishlab chiqildi:

- Suv ta’minoti va irrigatsiya nasos stansiyalarida asinxron dvigatellarni chastota o‘zgartirgichlar orqali boshqarishni joriy etish va nasos agregatlarini BEP atrofida ishlashini ta’minlash tavsiya etiladi.
- Nasos–dvigatel tizimlarini loyihalash jarayonida nasosning BEP ko‘rsatkichlari asinxron dvigatelning nominal ish rejimlari bilan mos holda tanlanishi zarur.
- Energiya monitoring tizimlarida dvigatel toki, quvvati va sarf parametrlarini kuzatish orqali ishchi nuqtaning BEP ga nisbatan og‘ishini aniqlash va avtomatik rostlash algoritmlarini joriy etish maqsadga muvofiq.
- Keyingi tadqiqotlarda BEP rejimini saqlash uchun intellektual boshqaruv algoritmlarini (Fuzzy Logic, ANFIS, sun’iy neyron tarmoqlar) qo‘llash orqali tizimning moslashuvchanligi va aniqligini oshirish tavsiya etiladi.
- O‘tkazilgan tadqiqot natijalari nasos agregatlarining ekspluatatsion samaradorligini oshirish bo‘yicha normativ-texnik hujjatlarni ishlab chiqishda va modernizatsiya loyihalarida qo‘llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karassik, I. J., Messina, J. P., Cooper, P., & Heald, C. C. (2008). *Pump Handbook* (4th ed.). McGraw-Hill, New York.
2. Gülich, J. F. (2014). *Centrifugal Pumps*. Springer, Berlin–Heidelberg. https://doi.org/10.1007/978-3-642-12824-0
3. Stepanoff, A. J. (1993). *Centrifugal and Axial Flow Pumps*. Krieger Publishing Company, Florida.
4. Boldea, I., & Nasar, S. A. (2010). *Electric Drives*. CRC Press, Boca Raton.
5. Bose, B. K. (2017). *Power Electronics and Motor Drives: Advances and Trends*. Academic Press, Elsevier.
6. Sulzer Pumps. (2010). *Centrifugal Pump Handbook*. Sulzer Ltd., Winterthur.
7. Pereira, J. L., & Souza, Z. J. (2012). Energy efficiency improvement of pumping systems through variable speed drives. *Energy Efficiency*, 5(1), 11–21. https://doi.org/10.1007/s12053-011-9121-5
8. Ahonen, T., & Laitinen, J. (2015). Estimation of centrifugal pump operating point based on motor electrical signals. *IEEE Transactions on Industrial Electronics*, 62(5), 2924–2932. https://doi.org/10.1109/TIE.2014.2364532
9. Yang, S., Kong, F., & Chen, Y. (2018). Optimal efficiency control of centrifugal pump systems based on variable frequency drive. *Applied Energy*, 230, 1313–1324. https://doi.org/10.1016/j.apenergy.2018.09.041

ISSN 3030-3907

10. Abdelmalek, S., Chaabene, M., & Derbel, N. (2016). Fuzzy logic control of centrifugal pump for efficiency optimization. *Energy Conversion and Management*, 122, 265–276. https://doi.org/10.1016/j.enconman.2016.05.076
11. Nasir, A., & Riaz, M. (2019). Energy-efficient operation of centrifugal pumps using variable speed control. *Journal of Cleaner Production*, 210, 748–758. https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2018.11.053
12. Kim, J., Park, J., & Lee, S. (2020). BEP-based adaptive control of pump systems using induction motor drives. *IEEE Access*, 8, 118746–118757. https://doi.org/10.1109/ACCESS.2020.3004723
13. Norboev, A. E. (2024). Speed regulation of asynchronous machines using mathematical modeling. *ResearchGate*. https://www.researchgate.net
14. Samatov, N. A. (2023). Research of a controlled asynchronous electric drive in dynamic modes. *Agriculture of Uzbekistan*, Special Issue (2), 45–52.
15. Karimjonov, D., Makhsudov, M., Xalimjanov, A., Abdukhalilov, D., Axmedov, D., & Mamajonov, X. (2024). Modeling the structures of three-phase asynchronous motor reactive power variations. *AIP Conference Proceedings*, 3244(1), 060018. https://doi.org/10.1063/5.0201234

ISSN 3030-3907

KO‘YLAKBOP TO‘QIMALAR ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI

Joldasova Ayzada Bekbaulievna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti «Sanoat texnologiyasi» kafedrasi assistenti
E-mail: ayzosh-2020@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada ko‘ylakbop to‘qimalarni ishlab chiqarish texnologiyasi, ularning tuzilishi, fizik-mexanik va gigiyenik xususiyatlari o‘rganilgan. Tanda va arqoq iplarining tarkibi, o‘rilish turlari, chiziqli zichligi, to‘ldirish darajasi, shuningdek, paxta, modal va lavsan iplaridan foydalanish natijasida hosil bo‘ladigan matolarning xususiyatlari tahli qilingan. Turli o‘rilishlar (polotno 1/1, reps, rogojka, satin, sarja) asosida yangi ko‘ylakbop materiallar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning iste’mol, gigiyenik va estetik jihatdan afzalliklari ko‘rsatilgan. Respublika iqlim sharoitiga moslashtirilgan mavsumiy (yozgi va kuz-qish) ko‘ylakbop to‘qimalarni yaratish texnologiyasi taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: to‘qima, ko‘ylakbop mato, o‘rilish, tanda, arqoq, paxta, modal, lavsan, gigiyenik xususiyatlar, chiziqli zichlik.

Аннотация. В статье исследована технология производства сорочечных тканей, их структура, физико-механические и гигиенические свойства. Проанализирован состав основных и уточных нитей, виды переплетений, линейная плотность, степень заполнения, а также свойства тканей, полученных с использованием хлопковых, модальных и лавсановых нитей. Разработаны новые сорочечные материалы на основе различных переплетений (полотняное 1/1, репс, рогожка, сатин, саржа), показаны их потребительские, гигиенические и эстетические преимущества. Предложена технология создания сезонных (летних и осенне-зимних) сорочечных тканей, адаптированных к климатическим условиям республики.

Ключевые слова: ткань, сорочечная ткань, переплетение, основа, уток, хлопок, модаль, лавсан, гигиенические свойства, линейная плотность.

Abstract. The article studies the technology of producing shirting fabrics, their structure, physico-mechanical and hygienic properties. The composition of warp and weft threads, types of weaves, linear density, filling degree, as well as the properties of fabrics obtained using cotton, modal and lavsan threads are analyzed. New shirting materials based on various weaves (plain 1/1, rep, rib, satin, twill) have been developed, and their consumer, hygienic and aesthetic advantages are shown. A technology for creating seasonal (summer and autumn-winter) shirting fabrics adapted to the climatic conditions of the republic is proposed.

Keywords: fabric, shirting material, weave, warp, weft, cotton, modal, polyester, hygienic properties, linear density.

ISSN 3030-3907

Kirish


Eng oddiy polotno o‘rilishidan foydalangan holda, tanda va arqoq iplarining bir xil chiziqiy zichliklari va bir xil xususiyatlari, to‘qimaning tanda va arqoq bo‘yicha bir xil zichliklari, to‘quv dastgohining mos ravishda taxtlanishi, tanda va arqoq iplari qisqarishining bir xil qiymatlari, to‘qima yuzasida tanda va arqoq iplarining bir xil qoplanishlari natijasida o‘rilishi ko‘zga ko‘rinmaydigan silliq matoni olish mumkin. Agar bunda tanda va arqoq uchun har xil bo‘lgan ip buramlarining tegishli yo‘nalishlari tanlansa, to‘g‘ri zichlanganda va kalandrlanganda gazlama shu qadar silliq bo‘lishi mumkinki, unda o‘rilishni ajratish qiyin bo‘ladi. Shuni hisobga olish kerakki, matodagi turli o‘rilishlar ushbu matodan tayyorlangan buyumga o‘ziga xoslik beradi. Ma’lumki, masalan, vertikal chiziqlar bilan bo‘lingan kvadrat uzunroq ko‘rinadi, gorizontal chiziqlar bilan bo‘lingan kvadrat esa kengroq ko‘rinadi. Demak, kiyimdagi vertikal chiziqlar torroq va uzunroq ko‘rinadi, gorizontal chiziqlar esa kengroq va kalta bo‘lib ko‘rinadi. Ma‘lumki, o‘rilishning diagonal chiziq bo‘lib tushishi harakatga urg‘u beradi. Harakat eng ifodali bo‘lishi uchun diagonal chiziqlar hech narsa bilan to‘sib qo‘yilmasligi, to‘qimaning yuzasida qaysi iplar tizimi yuqoriroq to‘ldirilgan bo‘lsa, o‘sha iplar tizimi ustunlik qilishi kerak. Ko‘pincha bu ma‘lum bir tizimdagi iplar to‘lqinlarining balandligi tufayli sodir bo‘ladi. Ayrim hollarda, chiziqli ip zichligi yuqori bo‘lgan kattaroq ip diametrlari tufayli pastroq to‘lqin balandligi bo‘lgan tizim ustunlik qilishi mumkin. Biroq, kichik to‘ldirilishlarda, bir tizimning iplari boshqa tizimning iplari bilan erkin bog‘langanda, ularni kuchli deformatsiya qilmasdan, iplarni bir-biriga bog‘lash uchun etarli bo‘lgan oraliqlarni hosil qilganda, qattiqroq tizimning yo‘g‘onroq iplari kamroq qattiqlikdagi ingichka iplarini kuchliroq egadi. Qattiqroq ip odatda kamroq egiladi, kichikroq balandlikdagi to‘lqinlarni hosil qiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR

To‘qimalarning tuzilishi va xususiyatlariga ularning nisbiy zichligi – haqiqiy zichlikning to‘qimaning mumkin bo‘lgan maksimal zichligiga nisbati katta ta’sir ko‘rsatadi. Ipning mumkin bo‘lgan maksimal zichligini hisoblash uchun, avvalo, ipning chiziqli zichligidan kelib chiqib, uning diametrini aniqlash kerak. Tig‘, shoda va to‘qimalarda egilish zichligini qiyosiy baholash uchun to‘qimadagi tanda va arqoqning foizli to‘ldirish ko‘rsatkichlari qo‘llaniladi. To‘ldirish foiz ko‘rsatkichi to‘qimaning g‘ovak tarkibini baholash uchun ishlatiladi, bu, xususan, uning havo o‘tkazuvchanligini aniqlaydi. Tanda va arqoq iplarining o‘zaro o‘rilish joyini hisobga olgandagi nisbiy zichlik to‘ldirish deb ataladi. To‘ldirish ko‘p jihatdan bunday to‘qimaning taxtlash tarangligini, uning to‘quvchilikdagi xatti-harakatini va eng muhimi, to‘qimadagi tolaning qisilish darajasini tavsiflaydi. Bu xarakteristika tuzilish xarakteristikalari bilan birga foydalanilayotgan to‘qimaning

ISSN 3030-3907

harakatini, uning barqarorligini va boshqa bir qator xususiyatlarini bashorat qilish imkonini beradi [1-2]. Ko‘ylakbop to‘qimalarda iplarning chiziqiy zichligi turlicha bo‘lgan polotno o‘rilishlari to‘qima yuzasiga o‘ziga xos jilo hosil qiladi. 1-rasmda to‘qimaning yuzasida bo‘rtiqlar (to‘qimaning a qismi) va chuqurchalar (to‘qimaning b qismi) bo‘lgan qirqim to‘qima bo‘lagi ko‘rsatilgan. Buning uchun qalin va ingichka iplar ishlatilgan. Iplar sonining bunday o‘zgarishi har qanday tanda yoki arqoq iplari tizimlari uchun ixtiyoriy bo‘lishi mumkin.



1-rasm. Qirqimli to‘qima bo‘lagi: bu yerda 1 - qalin ip; 2 - yupqa ip; 3, 4 - boshqa ip tizimi.

Ko‘ylakbop to‘qimalarni ishlab chiqarish jarayonida tanda va arqoq iplarining o‘zaro o‘rilishi natijasida turli xil to‘qimalar hosil bo‘ladi. Biz polotno o‘rilishi asosida polotno 1/1, yarim arqoq repsi 1/2 va yarim tanda repsi 2/1, arqoq repsi 2/2, tanda repsi 2/2, rogojka 2/2, to‘rt ipli noto‘g‘ri satin, sarja 1/3 va sarja 2/2 kabi yangi hosila o‘rilishlarini ishlab chiqdik.

Ma’lumki, yozgi ko‘ylaklarni tikish uchun tanda va arqoq iplaridan polotno o‘rilishida ishlab chiqilgan mato tanlangan [3-4]. Ushbu mato paxta tolalaridan tashkil topgan iplarni o‘z ichiga oladi. Arqoq iplari to‘g‘rilanadi va tanda iplarining zichligi esa arqoq iplarining zichligidan kattaroqdir. Shunday qilib, to‘qimaning yuzasida kichik ko‘ndalang chuqurcha hosil qiladi.

Ushbu matoning kamchiligi shundan iboratki, uning gigiyenik xossalari uncha yuqori emas, chunki havo o‘tkazuvchanligi va gigroskopikligi past, gijimlanmasligi yuqori. Bundan tashqari, ishqalanishga uncha chidamli emasligi va yirtilishga mustahkamligi ko‘ylaklarning xizmat muddatini qisqartirishga olib keladi.

To‘qimalarning gigienik xususiyatlarini (havo o‘tkazuvchanligi), iste‘mol xususiyatlarini (xizmat muddatini) yaxshilash va matolarning assortimentini kengaytirish uchun biz arqoqda modal va lavsan iplaridan foydalandik.

Matoning tanda iplari paxta tolali bo‘lib, ular arqoq iplari bilan polotno o‘rilishida to‘qiladi. Paxta tolasi va iplari, o‘z navbatida, suv bug‘larini, namlikni yaxshi shimib va o‘tkazib, matoning elektrlanuvchanligini kamaytiradi, shuningdek, mahsulotlarning zarur gigienik xususiyatlarini ta‘minlaydi.

ISSN 3030-3907

Modal – yarim sintetik viskoza tolasi. O‘n ming metr bunday ipning og‘irligi 1 gramm, har ming metr ipga 1 gramm bo‘lgan paxta tolasi bilan solishtirganda, modal tola paxta tolasidan yengilroqdir. Modal uchun tsellyuloza manbai sifatida odatda olxa yoki evkalipt yog‘ochlari ishlatiladi. Modalning tijorat namunalarining ingichkaligi 1,0-1,7 dener oralig‘ida, shtapel uzunligi taxminan 40 mm. Modalning o‘ziga xos xususiyatlariga uzilish kuchi va quruq holatdagi modulning yuqori ko‘rsatkichlari kiradi. Modulning nam holatdagi yuqori qiymatlari modal matolarning kirishish va cho‘zilishga chidamliligini ta‘minlaydi. Bundan tashqari, modal yumshoqligi, silliqligi va xiralashishga chidamliligi, shuningdek, yuqori absorbsiya ko‘rsatkichlari bilan ajralib turadi.

Modal tola namlikni yutish bo‘yicha (90%) paxta tolasidan (50%) deyarli ikki marta ustun turadi. Modal ipning ultrabinafsha nurlanishiga chidamliligi yuqori. Lavsan tolalari va iplari materialning quruq va nam holatida eng yaxshi nisbiy mustahkamlik ko‘rsatkichlariga, materialning namlikni yutish ko‘rsatkichlari esa eng yomon ko‘rsatkichlariga ega.


2-rasmda 1/1 polotno o‘rilishi asosida to‘qilgan yangi ko‘ylakbop matoning tuzilishi keltirilgan. Paxta tolali tanda iplari 1, chiziqiy zichligi 11,8 x 2 teks, modal arqoq iplari 2, chiziqiy zichligi 11,8 x 2 teks polotno o‘rilishida to‘qilgan. 2.4-rasmdan ko‘rinib turibdiki, o‘nta modal arqoq ipi tashlangandan keyin, chiziqiy zichligi 23,6 x 2 teks bo‘lgan bitta qo‘shimcha lavsan arqoq ipi tashlanadi. Matoning eni bo‘ylab arqoq iplarining bunday joylashuvi kerakli miqdorda shu kabi takrorlanadi [5]. Yo‘g‘on va ingichka arqoq iplarining qo‘shilishidan matoda relefli yuza, ya‘ni eni to‘rt-besh millimetrli tasmalar hosil bo‘ladi, bu ko‘ylakbop matolar assortimentini kengaytirishga, gigienik (havo o‘tkazuvchanligi, gijimlanmasligi, gigroskopikligi) va iste‘mol (ishqalanishga chidamliligi, uzilishga chidamliligi) xususiyatlarini yaxshilashga imkon beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR


Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo‘lsak, ko‘ylakbop matolarni ishlab chiqarish yorug‘lik va ob-havo ta’siriga juda chidamliligi bilan bog‘liq, chunki ko‘ylaklarni tayyorlash va ishlatish jarayonida atmosfera sharoitlari: yorug‘lik, harorat, namlik va boshqa omillar ta’siriga uchiraydi, ishqalanishga, gijimlanishga chidamliligi va o‘ziga berilgan shaklni saqlab qolish qobiliyatiga ega. Boshqa xususiyatlar bilan bir qatorda, yorug‘likga chidamliligi ko‘ylaklardan foydalanish jarayonida ularning xizmat muddatini ko‘rsatadi. Shu bois ham ko‘ylakbop to‘qimalar ishlab chiqarishda xom ashyo tanlab olishda, iste‘mol xususiyatlari to‘qimalarda ahamiyatliligini bilishda boshqa estetik, gigienik, texnologik xususiyatlarini ham hisobga olish zarur. Respublikamiz iqlim sharoitining yozgi issiq davriga mo‘ljallangan ko‘ylakbop to‘qima taklif etildi. Respublikamiz iqlim

ISSN 3030-3907


sharoitining kuzgi-qishqi davri uchun modal iplar o‘rilishida – satin, sarja, reps va ularning kombinatsiyalari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular quyida keltirilgan.




2-rasm. 1/1 polotno o‘rilishi asosida to‘qilgan yangi ko‘ylakbop matosining tuzilishi




3-rasm. 2/1 yarim tanda repsi asosidagi to‘qima o‘rilishi



4-rasm. 2/1 yarim arqoq repsi asosidagi to‘qima o‘rilishi




5-rasm. 2/2 tanda repsi asosidagi to‘qima o‘rilishi




6-rasm. 2/2 arqoq repsi asosidagi to‘qima o‘rilishi


ISSN 3030-3907




7-rasm. 2/2 rogojka asosidagi to‘qima o‘rilishi



8-rasm. To‘rt ipli noto‘g‘ri satin asosidagi to‘qima o‘rilishi



9-rasm. 1/3 sarja asosidagi to‘qima o‘rilishi



10-rasm. 2/2 sarja asosidagi to‘qima o‘rilishi

Kuz-qish mavsumi uchun 3-10-rasmlardagi to‘qima o‘rilishlari tavsiya etiladi. Bu mato o‘rilishlari zich bo‘lib, rapport chegarasidagi lavsan iplari chiziqlari orasidagi bog‘lanish yuzalarida turli naqshlar mavjud.

Rogojka o‘rilishli mato sof paxta, modal va lavsandan tayyorlangan (7-rasmga qarang). Rogojka o‘rilishining o‘ziga xosligi shundaki, rapport chegarasida tanda va arqoq iplarining bir-birini qoplanishlar soni bir xil. Matoni yaratish uchun bo‘yalgan va bo‘yalmagan iplar ishlatiladi, shu bilan kichik kataksimon naqsh hosil qilinadi. Ushbu ko‘ylaklar ham rasmiy tadbirlar, ham kundalik kiyim uchun mo‘ljallangan. Rogojka gazlamasidan tikilgan ko‘ylaklar alohida kutim talab etmaydi, ular boshqa turdagi ko‘ylaklarga nisbatan o‘z shaklini ancha yaxshi saqlaydi, tez-tez yuvish mumkin. Rogojka matosi havo o‘tqazuvchanligi yaxshi, juda qulay, yengil, shu tarafidan ham ushbu matoni asosan yozgi erkaklar ko‘ylaklari uchun ishlatish ma’qul [1].

To‘rt shodali noto‘g‘ri satin – satin va atlas o‘rilishlarining hosilalari bo‘lib nomlanadi (8-rasmga qarang). Ayniqsa klassik oq rang chiroyli va ko‘rkam

ISSN 3030-3907

koʻrinadi. Toʻrt shodali notoʻgʻri satin toʻqimasi oʻzining mustahkamligi va chidamliligi bilan ajralib turadigan gazlamalar qatoriga kiradi, shu sababli ushbu matodan sifati yuqori koʻylaklar tikiladi. Keltirilayotgan notoʻgʻri satinning yana bir afzallik tomoni shundaki, uning turli xil rang olish xususiyati yaxshi. Toʻrt ipli notoʻgʻri satindan tikilgan koʻylaklar deyarli gʻijimlanmaydi, bunga sabab toʻqima oʻrilishining tuzilishi shu jihatdan kundalik kiyim sifatida foydalanishga qulay. Bundan tashqari shu matodan (ip turiga qarab) ham kundalikga, ham kechki kiyimlar sifatida ishlatiladi. Mintaqaning iqlim sharoitidan kelib chiqib lavsan, modal, paxtadan toʻqilgan koʻylakbop matolar ishlab chiqarish texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir [1].

Sarja 1/3 (9-rasmga qarang) asosida toʻqima oʻrilishi va sarja 2/2 asosida qurilgan toʻqima oʻrilishi (10-rasmga qarang) oʻziga xos oʻrilish naqshga ega boʻlib, u diagonal boʻylab joylashgan parallel yoʻllardan iborat. Parallel, diagonal boʻylab joylashgan yoʻllar arqoq iplarining maxsus toʻqilishi natijasida sarjada hosil boʻladi. Sarja esa old va orqa tomonlarga boʻlinadi. Sarjaning yuzasida gʻayrioddiy oʻrilishlar aniqroq koʻrinadi. Chunki sarja oʻrilishi matoda yoʻl-yoʻl naqshni hosil qiladi va kuchaytiradi.

Binobarin, foydalanish maqsadiga koʻra, ishlab chiqariladigan toʻqimalarning tolaviy tarkibiga, materialning turiga va uning tuzilishiga qarab belgilanadigan tegishli isteʻmol, fizik-mexanik va gigienik xususiyatlarga ega boʻlishi kerak.

XULOSA

Maqolada koʻylakbop toʻqimalarni ishlab chiqarishda tanda va arqoq iplarining tarkibi, oʻrilish turlari va ularning fizik-mexanik, gigiyenik xususiyatlariga ta’siri chuqur oʻrganildi. Paxta, modal va lavsan iplaridan aralash foydalanish orqali nafas oluvchanligi yuqori, mustahkam va qulay koʻylakbop matolar yaratish imkoniyatlari koʻrsatildi. Turli mavsumlar uchun moslashtirilgan oʻrilishlar (reps, rogojka, satin, sarja) asosida yangi materiallar ishlab chiqilib, ularning iste’mol va estetik jihatdan samaradorligi asoslab berildi. Natijada, respublika iqlimi uchun mos, sifatli va uzgaruvchan talablarga javob beradigan koʻylakbop toʻqimalar ishlab chiqarish texnologiyasi taklif etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Жолдасова А. Б., Даминов А. Д., Рахимходжаев С. С. Влияние на плотность и на коэффициент наполнения переплетения новой сорочечной ткани. UNIVERSUM: Технические науки. №2 (119), февраль 2024г. С. 65-71.

2. Жолдасова А.Б., Даминов А.Д., Рахимходжаев С.С. Влияние на плотность на коэффициент наполнения переплетения новой сорочечной ткани. “Xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarini hal qilishda fan va taʻlimning roʻli”, Respublika ilmiy-amaliy anjuman. Andijon-2024. 1394-1400 b.

3. Букаев П.Т. Хлопкоткачество. М., Легпромбытиздат, 1987. С.575.

ISSN 3030-3907

4. Рахимходжаев С.С., Собирова Г.Н. Теория строения ткани (однослойные переплетения). Учебник, 2024. LAPLAMBERT ACADEMIC PUBLISHING, Mauritius. С.58.
5. Ўзбекистон Республикаси патенти IAP 20230712. “Сорочечная ткань” / А.Б. Жолдасова., A.D. Daminov., S.S. Rakhimkhodzhaev., Торениязова Л.А., Каримбаев Н.М. // Ўзбекистон республикаси Интеллектуал мулк агентлиги Расмий Ахборотномаси. Тошкент 2024. №IAP 7808. С. 7.

ISSN 3030-3907

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПОДГОТОВКЕ КАДРОВ В ЭНЕРГЕТИЧЕСКОМ ОТРАСЛИ

А. Н. Маматкулов
PhD, доц., Каршинский государственный технический университет, Карши, 180100, Узбекистан;
E-mail: asamnorovich@mail.ru
https://orcid.org/0000-0002-0689-2666
Холиёр Саййид Сафаров
Соискатель, Каршинский государственный технический университет, Карши 180100, Узбекистан;
E-mail: sayyidsafarov23@mail.ru
https://orcid.org/0009-0008-5740-191X
Бобокулова Муҳаббат Маҳаммадиевна
Соискатель, Каршинский государственный технический университет, Карши 180100, Узбекистан;
E-mail: muhabbatbobokulova820@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitishda foydalaniladigan yelektr tizimlarida dinamik yuk modellarini tahlil qilish yelektr yenergiyasi tizimlarining dinamik xususiyatlari haqidagi nazariy bilimlarni innovatsion o‘qitish usullari orqali ishlab chiqilgan amaliy ko‘nikmalar bilan birlashtirishni o‘z ichiga oladi. Bunda sistemaga turli xil yuklamalar ulangan sharoitda tizimlarning xatti-harakatlarini o‘rganish uchun simulyatorlar, virtual laboratoriyalar va interaktiv modellardan foydalanish, shuningdek analitik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zamonaviy o‘qitish usullari va tanqidiy fikrlash texnologiyalaridan foydalanish kiradi.

Kalit so‘zlar: dinamik yuklama, motorlar, elektr tizimlari, dinamik xususiyatlar, innovatsion usullar, Spiral (regressus, progressus), model, innovatsiya, ishlab chiqarish, energetika.

Аннотация. Анализ моделей динамической нагрузки в электрических системах, применяемый в обучении с использованием современных педагогических технологий, предполагает интеграцию теоретических знаний о динамических характеристиках электроэнергетических систем с практическими навыками, формируемыми с помощью инновационных методов обучения. Это включает в себя использование симуляторов, виртуальных лабораторий и интерактивных моделей для изучения поведения систем при различных условиях нагрузки, а также применение современных методик обучения и технологий критического мышления для развития навыков анализа и решения проблем.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: динамическая нагрузка, двигатели, электрический системы, динамический характеристики, инновационные методы, Spiral (regressus, progressus), модель, инновация, производства, энергетика.

Abstract. in recent years, due to the energy transition taking place in many countries of the world, energy transition processes are taking place in Uzbekistan. The transition is associated with a turn to green energy and serious problems of diversification of energy sources, development of market relations, digitalization and intellectualization of the energy sector. In such conditions, at all stages of the transition, it is necessary to ensure the reliability of electricity supply to consumers and the provision of electric power systems (EPS) in various modes. Therefore, conducting a study on the use of reliable methods for providing consumers with high-quality electrical power, including when operating wind and solar power plants with unstable modes, is relevant. One of such methods is operational demand response.

Blokcheynning taqsimlangan peer-to-peer muhiti katta hajmdagi transaksiyalar bilan ishlaydi va ularni noyob tarzda aniqlash zarurati paydo bo‘ladi. Shuning uchun xesh funksiyalarini “raqamli barmoq izi” sifatida talqin qilish to‘g‘ri metafora bo‘lib, ular yordamida har bir transaksiyaning noyob identifikatori yaratiladi. Xesh funksiyalarini qo‘llash naqshlari — mustaqil xeshlash, birlashtirilgan xeshlash, takroriy xeshlash, ketma-ket va ierarxik xeshlash — blokcheyn arxitekturasining strukturalash jarayonini belgilaydi. Aynan ierarxik xeshlash tamoyili Merkle daraxtlarining asosiy mexanizmini tashkil etib, katta hajmdagi ma’lumotlar bo‘yicha ixcham Merkle root orqali butun blokning o‘zgarmasligini matematik tarzda tasdiqlaydi[1].

Kriptografik xesh funksiyalarining nazariy asoslari Rogaway va Shrimpton (2004), shuningdek Wiley va MDPI platformalarida chop etilgan so‘nggi tadqiqotlarda chuqur o‘rganilgan bo‘lib, xesh funksiyalarining pre-image resistance, second pre-image resistance va collision resistance talablari ularning barqarorligini belgilaydi. Zamonaviy blokcheynlarda SHA-256, Keccak-256, Blake2/3 kabi algoritmlarning qo‘llanilishi ma’lumotlar yaxlitligi, konsensus mexanizmlarining samaradorligi va kelajakdagi post-quantum tahdidlariga chidamlilikni mustahkamlashda muhim omil sifatida baholanadi.

Kriptografik xesh funksiyalari blokcheyn texnologiyasining matematik asosini tashkil etib, ma’lumotlarni qisqa, qat’iy uzunlikdagi raqamli qiymatga aylantiruvchi mexanizmdir. Ular blokcheynning ma’lumot butunligini saqlash, transaksiyalarni identifikatsiya qilish, bloklar orasidagi bog‘liqlikni yaratish hamda tarmoqdagi har bir tugun tomonidan ma’lumotning bir xil talqin qilinishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Xesh funksiyalarining ishlash tamoyili Drescher (2017) tomonidan “raqamli barmoq izi” metaforasi bilan ta’riflangan bo‘lib,

ISSN 3030-3907

qanday qilib barmoq izi har bir individni noyob aniqlasa, xesh qiymati ham har bir ma’lumotni noyob tarzda belgilaydi[2].

Xesh funksiyasining matematik ta’rifi quyidagicha ifodalanadi:

$$H:M\rightarrow\{0,1\}n$$

Bu yerda M – har qanday uzunlikdagi ma’lumotlar to‘plami, nnn esa belgilangan bit uzunligi (masalan, SHA-256 uchun 256 bit). Bu xususiyat blokcheyn tarmog‘idagi barcha ma’lumotlar, ularning hajmidan qat’i nazar, bir xil uzunlikdagi identifikator orqali taqqoslanishini ta’minlaydi.

Xesh funksiyalari deterministik bo‘lishi shart, ya’ni har safar bir xil kirish ma’lumotiga bir xil natija qaytadi. Bunda tarmoqdagi barcha tugunlar identik natija oladi. Aks holda, blokcheynning konsensus mexanizmi izdan chiqadi.

Xesh funksiyalarining eng muhim tamoyillaridan biri — bir tomonlama bo‘lishdir. Matematik nuqtayi nazardan, bu shunday ifodalanadi:

$$H(x)=y\text{ bo‘lsa ham, }y\rightarrow x\text{ amalda imkonsiz.}$$

Bu xususiyat blokcheynning maxfiylik va butunlik tamoyillarini kafolatlaydi. Ma’lumot xeshlanganidan so‘ng uni qayta tiklab bo‘lmaydi, bu esa transaksiyalar mazmunining oshkor bo‘lib qolishini cheklaydi va tizim xavfsizligini oshiradi.

Collision resistance – xesh funksiyasining eng muhim kriptografik kafolatlaridan biridir. Ya’ni turli ma’lumotlarning bir xil xesh qiymatiga ega bo‘lish ehtimoli juda kichik bo‘lishi kerak. Kolliziya ehtimoli nazariy jihatdan quyidagicha baholanadi:

$$P(\text{collision})\approx 2^{-n/2}$$

Masalan, SHA-256 algoritmida n=256n=256n=256 bo‘lgani uchun amaliy kolliziya ehtimoli deyarli nolga teng. Rogaway va Shrimpton (2004) ushbu tamoyilni xesh funksiyalarining eng asosiy xavfsizlik mezonlaridan biri sifatida talqin qiladi.

Xesh funksiyalarida pseudotasodifiylik ham muhim o‘rin tutadi. Kirish ma’lumotidagi juda kichik o‘zgarish (hatto bitta bit) chiqishdagi natijaning keskin o‘zgarishiga olib kelishi kerak. Bu hodisa “avalanche effect” deb yuritiladi va blokcheyn uchun juda muhimdir. Chunki ma’lumotdagi minimal manipulyatsiya ham darhol seziladi va xesh qiymatlaridagi farq orqali aniqlanadi.

Drescher tomonidan tushuntirilgan xeshlash naqshlari kriptografik jarayonlarning amaliy qo‘llanilishini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Mustaqil xeshlash har bir ma’lumotni alohida qayta ishlaydi, birlashtirilgan xeshlash esa ko‘plab ma’lumotlarni bitta satrga jamlab, umumiy xesh hosil qiladi. Takroriy xeshlash xesh natijasini yana qayta xeshlashdan iborat bo‘lib, Bitcoin blok sarlavhasida qo‘llanadigan “double SHA-256” buning yorqin misolidir.

ISSN 3030-3907

Ketma-ket xeshlash oqim ma’lumotlar bilan ishlovchi tizimlarda qo‘llanadi va har bir yangi ma’lumot avvalgi xesh qiymati bilan birlashtiriladi.

Eng muhim naqsh — bu ierarxik xeshlash, ya’ni Merkle daraxtlari mexanizmi. Merkle daraxti blok ichidagi barcha transaksiyalarning kriptografik izini umumlashtirib, yagona Merkle rootni hosil qiladi. Bu root blok headerida saqlanadi va blokning butun mazmuni o‘zgarmaganini isbotlash uchun xizmat qiladi. Agar bitta transaksiyada o‘zgarish yuz bersa, daraxt bo‘yicha barcha yuqoridagi xeshlar o‘zgaradi va natijada butun blokning haqiqiyligi buziladi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda (MDPI, Wiley, IOS Press) xesh funksiyalarining blokcheyn xavfsizligidagi roli, ularning samaradorligi va yangi arxitekturalar bo‘yicha muhim xulosalar keltiriladi. Ayniqsa Keccak (SHA-3) ning sponge konstruktsiyasi, Blake2/Blake3 algoritmlarining yuqori tezligi va SHA-256 ning barqarorligi blokcheynning kelajakdagi texnologik rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi. Shu bois, xesh funksiyalarining matematik asoslarini chuqur o‘rganish blokcheyn texnologiyasining xavfsizlik, samaradorlik va barqarorlik darajasini baholashda muhim ilmiy omil hisoblanadi[3][4].

Blokcheyn arxitekturasining o‘ziga xosligini belgilovchi eng muhim omillardan biri bu kriptografik xesh funksiyalarining tizim ichidagi o‘rni va ular bajaradigan vazifalardir. Xesh funksiyalari blokcheynning barcha asosiy jarayonlarini — bloklarning bog‘lanishi, transaksiyalarning identifikatsiyasi, ma’lumotning o‘zgarmasligi, verifikatsiya mexanizmlari, konsensus jarayonlari va yengil tugunlar faoliyatini — kriptografik darajada mustahkamlaydi. Xesh funksiyasi istalgan uzunlikdagi ma’lumotni qat’iy uzunlikdagi qiymatga o‘tkazishga mo‘ljallangan bo‘lib, matematik tarzda quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$H{:}M\rightarrow\{0,1\}^{n}$$

Bu yerda MMM — kirish ma’lumotlari to‘plami, nnn — xesh uzunligi (masalan, SHA-256 uchun 256 bit). Xesh funksiyasining deterministic bo‘lishi, ya’ni har bir bir xil kiritma uchun doimo bir xil natija berishi, blokcheyn tarmog‘ining barcha tugunlari o‘rtasida konsensusning shakllanishi uchun zarurdir. Shu sababli har bir blok yaratilganda uning sarlavhasi xeshlanadi va natija blokning noyob identifikatori sifatida saqlanadi.

Blokcheynning zanjirsimon tuzilmasi xesh pointerlar orqali yaratiladi. Har bir blok o‘zidan oldingi blokning xesh qiymatini o‘zida saqlaydi. Agar BiB_iBi blokning mazmuni o‘zgaradigan bo‘lsa, uning xesh qiymati ham o‘zgaradi:

$$H(B_i)\neq H(B_i')$$

Bu o‘zgarish zanjirning keyingi barcha bloklaridagi xesh pointerlarni buzadi va natijada butun blokcheyn strukturasi mos kelmay qoladi. Xuddi shuning uchun blokcheynning o‘zgarmaslik tamoyili matematik jihatdan mustahkam va amalda

ISSN 3030-3907

buzib bo‘lmaydigan mexanizmga ega. Zanjirning o‘rtasidagi bitta bitning o‘zgarishi ham barcha keyingi bloklarning noto‘g‘ri bo‘lishiga olib keladi, shuning uchun tasdiqlangan bloklarni o‘zgartirish deyarli imkonsiz hisoblanadi.

Transaksiyalarni xeshlash blokcheynning eng muhim amaliy jarayonlaridan biridir. Har bir transaksiyaga xesh funksiyasi qo‘llanadi va shu orqali noyob identifikator hosil qilinadi. Xesh funksiyasining pseudotasodifiy xususiyati tufayli:

$$x \to x', ||x - x'|| = 1 \Rightarrow H(x) \text{ va } H(x') \text{ butunlay farqli bo‘ladi.}$$

Bu “avalanche effect” deb yuritiladi va transaksiyalarni soxtalashtirishni mutlaqo imkonsiz qiladi. Transaksiyalar xesh orqali tanib olinadi, solishtiriladi va blok ichidagi tartibi aniqlanadi. Xeshlar identifikator sifatida barqaror bo‘lgani uchun tugunlar transaksiyalarni juda tez qayta ishlay oladi, bu tarmoqning optimalligini sezilarli oshiradi.

Merkle daraxtlari blokcheyn arxitekturasidagi eng muhim ierarxik xeshlash tuzilmasidir. Har bir transaksiyaning xeshi daraxt barglariga joylashtiriladi, keyin ular juft-juft birlashtirilib yana xeshlanadi. Bu jarayon yuqoriga ko‘tarilgan sari davom etadi va yakunida Merkle root hosil bo‘ladi. Merkle root quyidagi tarzda ishlaydi:

$$h_{i,j} = H(h_{i-1,2j} /\!/ h_{i-1,2j+1})$$

Bu yagona root blokdagi barcha transaksiyalarning kriptografik izini ifodalaydi. Blokning ichidagi istalgan transaksiyadagi o‘zgarish daraxtning bir bo‘lagini, so‘ngra yuqoridagi barcha xeshlarni, oxirida Merkle rootni ham o‘zgartiradi. Shu sababli Merkle root blok sarlavhasiga kiritilgan eng muhim kriptografik indikator hisoblanadi. Bu mexanizm yengil tugunlarda (SPV nodes) bloklarni to‘liq yuklamasdan turib, faqat Merkle yo‘li orqali transaksiyani tekshirish imkonini yaratadi.

Konsensus algoritmlarida xeshlash yana ham siyosiy ahamiyat kasb etadi. Proof-of-Work tizimlarida maynerlar blok sarlavhasiga nonce qo‘shib yana qayta-qayta xesh hisoblaydi va ma’lum murakkablik darajasiga mos keladigan xesh qiymatini topishi kerak:

$$H(Header) < Target$$

Bu jarayon tarmoqni hisoblash jihatdan murakkab qiladi va xavfsizlik darajasini oshiradi. Proof-of-Stake tizimlarida esa xeshlash validator tanlashda, bloklarning tasodifiyligini belgilashda va tasdiqlash jarayonlarida qo‘llanadi. Har ikki mexanizmda xeshlash tizimning ishonchliligini saqlashda beqiyos ahamiyatga ega[5][6].

Umuman olganda, xesh funksiyalari blokcheynning o‘zgarmaslik, aniqlik, samarali verifikatsiya, zanjir barqarorligi va xavfsizlik tamoyillari uchun tayanch kriptografik mexanizm bo‘lib xizmat qiladi. Xeshlashni olib tashlash blokcheynning butun arxitekturasini mazmunsiz qilib qo‘ygan bo‘lardi.

ISSN 3030-3907

1-jadval.

Xeshlashning arxitekturaviy ahamiyati

Arxitektura tamoyili	Xeshlashning roli	Izoh
O‘zgarmaslik (Immutability)	Xesh pointerlar orqali bloklarning bog‘lanishi	Bitta bit o‘zgarishi ham butun zanjirni buzadi, bu o‘zgarmaslikni ta’minlaydi.
Aniqlik (Integrity)	Transaksiyalar va bloklarning xesh identifikatori	Har bir obyektning noyobligi kafolatlanadi va soxtalashtirish imkoni yo‘q.
Sinxronlik (Consistency)	Deterministik xeshlash	Barcha tugunlar bir xil natija oladi, konsensusning asosini tashkil etadi.
Verifikatsiya samaradorligi	Merkle daraxtlari orqali ixcham tekshiruv	SPV tugunlar tez va kam resurs bilan transaksiyani isbotlashi mumkin.
Zanjir barqarorligi	Blok sarlavhasi xeshlanishi	Bloklar orasidagi kriptografik bog‘liqlik buzilmaydi.
Xavfsizlik (Security)	Kolliziyaga chidamlik, bir tomonlama funksiyalar	Transaksiyalarni o‘zgartirish, qayta tiklash yoki soxtalashtirish amalda imkonsiz.

Blokcheyn texnologiyasida hashing algoritmlarining o‘rni beqiyos bo‘lib, ular tizimning xavfsizligini, barqarorligini va ishonchliligini ta’minlovchi asosiy kriptografik mexanizmdir. Hashing algoritmlarining samaradorligi blokcheynning umumiy ishlash mexanizmlariga, ayniqsa konsensus protokollariga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli turli blokcheyn platformalari o‘zining maqsadiga qarab farqli hashing algoritmlaridan foydalanadi. Ularning barchasi kriptografik mustahkamlik, kolliziyalarga chidamlilik, qaytarilmaslik, deterministiklik va pseudotasodifiylik tamoyillariga asoslanadi.

Zamonaviy blokcheynlarning aksariyatida hashingning eng mashhur varianti SHA-256 algoritmidir. U Bitcoin tarmog‘ining asosiy tayanchi bo‘lib, transaksiyalarni identifikatsiya qilishdan tortib blok sarlavhalarini generatsiya qilishgacha bo‘lgan barcha kriptografik jarayonlarda qo‘llaniladi. SHA-256 algoritmi o‘zining yuqori barqarorligi, kolliziyalarga qarshi chidamliligi va ko‘p

ISSN 3030-3907

yillik amaliy tajriba bilan tasdiqlangan ishonchliligi tufayli dunyodagi eng keng qo‘llaniladigan hashing standartlaridan biri hisoblanadi. Bitcoin arxitekturasi aynan shu algoritmning ishonchliligiga tayanadi, chunki PoW jarayonida milliardlab xesh hisob-kitoblari bajariladi va har bir natijaning aniq deterministik bo‘lishi zarur.

Ethereum esa SHA-256 o‘rniga Keccak-256 algoritmidan foydalanadi. Keccakning arxitekturasi SHA oilasidan farq qiladi va u ma’lumotlarni qayta ishlashda yanada moslashuvchan tizimga ega. Ethereumning Keccakni tanlashi uning faqat mayningga emas, balki aqlli kontraktlar, hisoblash amallari va ma’lumotlarni qayta ishlaydigan murakkab funksiyalarni ham qo‘llab-quvvatlashi bilan bog‘liq. Keccak-256 algoritmi xavfsizlik darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi va ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda uning kolliziya ehtimoli amaliy jihatdan juda past ekani e’tirof etilgan.

Blake2 va Blake3 kabi yangi avlod hashing algoritmlari tezlik va samaradorlik bo‘yicha sezilarli ustunlikka ega. Blake2 SHA-256ga qaraganda tezroq ishlaydi, hisoblash resurslari kamroq sarflaydi va shu bilan birga kriptografik mustahkamlik darajasi yuqori. Blake3 esa zamonaviy ko‘p yadroli tizimlar uchun optimallashtirilgan bo‘lib, ma’lumotlarni parallel qayta ishlash imkonini beradi. Bu algoritmlar ayniqsa katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlaydigan blokcheyn platformalarida yoki yuqori darajadagi tranzaksiya oqimini talab qiladigan tizimlarda foydalidir. Ba’zi blokcheynlar, masalan Zcash, Litecoin yoki Monero, ASIC qurilmalarining ustunlikka ega bo‘lishini oldini olish uchun maxsus hashing algoritmlaridan foydalanadi. Zcash Equihash algoritmini qo‘llaydi, u xotira talabchanligi tufayli ASIClar bilan samarali ishlash imkonini bermaydi va GPU asosidagi mayningni qo‘llab-quvvatlaydi. Litecoinning Scrypt algoritmi esa xotira markazli yondashuvga ega bo‘lib, SHA-256ga nisbatan boshqacha xususiyatlarga ega. Moneroda esa RandomX algoritmi qo‘llaniladi, u CPU markazli bo‘lishi sababli tarmoqning markazlashuvdan holi bo‘lishini ta’minlaydi. Bu algoritmlar turli hujum vektorlariga qarshi blokcheynning himoya darajasini oshirishga qaratilgan[8].

Hashing algoritmlarining konsensus mexanizmlaridagi o‘rni yanada muhimdir. Proof-of-Work (PoW) modelida hashing isbot mexanizmining asosini tashkil etadi. Maynerlar blok sarlavhasiga turli qiymatlarni qo‘shib, uni qayta-qayta xeshlaydilar va faqat ma’lum shartlarga mos tushadigan qiymat topilganda blok haqiqiy deb qabul qilinadi. Ushbu jarayon tarmoqning himoyasi uchun zarur bo‘lgan hisoblash murakkabligini yaratadi. Xeshlash bu yerda “ish isboti” sifatida qo‘llanadi va kim ko‘proq hisoblash quvvatiga ega bo‘lsa, o‘sha blok yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayon tarmoqni turli hujumlardan, jumladan “double spending” kabi muammolardan himoya qiladi.

ISSN 3030-3907

Proof-of-Stake (PoS) tizimida hashing PoWdagi kabi markaziy o‘rinni egallamasa-da, baribir konsensusning bir nechta bosqichlarida zarur element sifatida ishlatiladi. PoS tizimida validatorlarni tanlash jarayonida xeshlash deterministik va tasodifiy komponentlar o‘rtasida muvozanat yaratadi. Validatorlar orasida adolatli tanlov amalga oshirilishi uchun xesh funksiyalari qo‘llaniladi. Shuningdek, PoS tizimlari blokning haqiqiyligini tasdiqlashda, hujjatlashtirish jarayonlarida va bloklar orasidagi kriptografik bog‘lanishni saqlashda ham xeshlashga tayanadi.

Zero-Knowledge texnologiyalarida hashingning o‘rni yanada murakkab va kengaytirilgan ko‘rinishga ega. Masalan, zk-SNARK yoki zk-STARK texnologiyalarida hashing matematik isbotlarni yashirin shaklda yaratishga yordam beradi. Pedersen hashing, Poseidon hashing kabi algoritmlar zero-knowledge isbotlarining tezkor va xavfsiz ishlashiga imkon yaratadi. Bu texnologiyalar maxfiylikni saqlashga qaratilgan Web3 ekotizimlarida tobora keng qo‘llanmoqda.

Umuman olganda, hashing algoritmlari blokcheynning barcha jarayonlarida uzluksiz ishlaydigan, tizimning butun kriptografik poydevorini tashkil qiladigan mexanizmdir. Har bir blokcheyn o‘zining ehtiyojlari, xavfsizlik talablari, konsensus modeli va maqsadlariga qarab alohida hashing algoritmini tanlaydi. Bu tanlov tarmoqning barqarorligi, tezligi, energiya sarfi va hujumlarga chidamliligi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli hashing algoritmlari blokcheyn texnologiyalarida strategik ahamiyatga ega bo‘lib qoladi.

Ushbu tadqiqot blokcheyn texnologiyasining asosiy kriptografik elementi bo‘lgan xeshlash jarayonining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o‘rganishga bag‘ishlandi. Hashing blokcheyn arxitekturasining barcha qatlamlarida ishlaydigan, transaksiyalarning identifikatsiyasidan tortib konsensus mexanizmlarining barqarorligigacha bo‘lgan jarayonlarni himoyalovchi tayanch mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot davomida xesh funksiyalarining deterministikligi, qaytarilmasligi, pseudotasodifiyligi va kolliziyaga chidamliligi blokcheynning o‘zgarmaslik tamoyilini qanday ta’minlashi keng tahlil qilindi. Ayniqsa, xesh pointerlar yordamida bloklarning zanjirsimon bog‘lanishi blokcheynning fundamental ishonch asosini shakllantirishi ilmiy asoslangan tarzda bayon etildi.

Merkle daraxtlari orqali ierarxik xeshlash mexanizmining qo‘llanilishi bloklardagi transaksiyalarni ixcham, tezkor va aniq tarzda tekshirish imkonini berishi muhim xulosa sifatida qayd etildi. Ushbu mexanizm tufayli yengil (SPV) tugunlar butun blokni yuklamasdan turib, faqat Merkle yo‘li orqali transaksiyaning haqiqiyligini isbotlay oladi. Bu blokcheyn tarmoqlarining keng ko‘lamda ishlay olishi, mobil va resurs cheklangan qurilmalar tomonidan qabul qilinishi uchun strategik afzallik yaratadi.

ISSN 3030-3907

Hashing algoritmlarining funksional farqlari ham tadqiqotning muhim jihatlaridan biri bo‘ldi. SHA-256, Keccak-256, Blake2/3, Scrypt, Equihash, RandomX kabi algoritmlarning turli blokcheyn platformalarida qo‘llanilishi ularning xavfsizlik talablari, konsensus modeli, hisoblash resurslari va markazlashuv darajasiga qarab qanday tanlanishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, Proof-of-Work va Proof-of-Stake konsensus mexanizmlarida hashingning tutgan o‘rni turlicha bo‘lishiga qaramay, ular har ikkala tizimda ham ishonchlilik, tasodifiylik, kriptografik barqarorlik va isbotlash jarayonlarining asosiy tayanchi sifatida xizmat qilishi aniqlashtirildi[9].

Umuman olganda, xeshlash mexanizmi blokcheynning ishlash falsafasini belgilovchi, ularning o‘zgarmas va markazlashmagan tabiatini ta’minlovchi eng asosiy kriptografik tamoyildir. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, hashing algoritmlarisiz blokcheyn tizimi amalda mavjud bo‘la olmaydi. U ma’lumotlarning yaxlitligini saqlash, tarmoq ishtirokchilari o‘rtasida ishonch yaratish, konsensus algoritmlarini amalga oshirish va tizim barqarorligini kafolatlashda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu bois hashing kelajakdagi Web3 va decentralizatsiya ekotizimlarining ham markaziy elementi bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Wiley Online Library*. (2020). **Blockchain-based Data Integrity using Cryptographic Hashing Techniques.** https://onlinelibrary.wiley.com/doi/full/10.1155/2020/8876317

2. *IOS Press Ebooks*. (2019). **Blockchain Hash Functions and Integrity Preservation in Distributed Systems.** https://ebooks.iospress.nl/volumearticle/50851

3. *MDPI Materials Journal*. (2019). **Application of Hashing Methods in Blockchain-Based Systems.** https://www.mdpi.com/2571-8800/2/3/21

4. *MDPI Symmetry Journal*. (2024). **Cryptographic Structures and Hash Algorithms in Decentralized Architectures.** https://www.mdpi.com/2073-8994/16/1/62

5. Drescher, D. (2017). **Blockchain Basics: A Non-Technical Introduction in 25 Steps.** Springer, Berlin. (Xususan, *Step 10: Hashing Data* bo‘limidan foydalanildi.)

6. Rogaway, P., & Shrimpton, T. (2004). **Cryptographic Hash-Function Basics: Definitions, Implications and Separations for Preimage Resistance, Second Preimage Resistance and Collision Resistance.** In *Fast Software Encryption – FSE 2004*, Springer LNCS Vol. 3017.

7. Merkle, R. (1987). **A Digital Signature Based on a Conventional Encryption Function.** In *Advances in Cryptology — CRYPTO ’87*. Springer.

ISSN 3030-3907

8. Nakamoto, S. (2008). **Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System.** https://bitcoin.org/bitcoin.pdf

9. Bertoni, G., Daemen, J., Peeters, M., & Van Assche, G. (2013). **Keccak Sponge Function Family.** NIST SHA-3 Standard Documentation.

ISSN 3030-3907

UGLEVODORODLARNI QIZDIRISHDA QUVURLI ISSIQLIK ALMASHINISH USKUNALARINING ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Murtazayev Feruzbek Ismatovich
Qarshi davlat texnika universiteti, "Neft-gaz ishi va ularni qayta ishlash texnologiyasi" kafedrasi dotsenti,
O'zbekiston. Qarshi.sh.
E-mail: feruz.murtazayev@bk.ru
Qurbonov Ravshanbek Tursunboyevich
Qarshi davlat texnika universiteti, "Neft-gaz ishi va ularni qayta ishlash texnologiyasi" kafedrasi magistranti,
O'zbekiston. Qarshi.sh.

Annotatsiya. Mazkur maqolada uglevodorodlarni qizdirishda qo'llaniladigan quvurli issiqlik almashinish uskunalarining energiya samaradorligini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida issiqlik uzatish jarayonlariga ta'sir etuvchi asosiy konstruktiv va texnologik omillar tahlil qilinib, energiya sarfini kamaytirishga qaratilgan kompleks yondashuv asoslab berilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, quvur geometriyasini optimallashtirish, oqim rejimini ratsional boshqarish va issiqlik almashinish sirtining faol ishlashini ta'minlash orqali issiqlik uzatish samaradorligini oshirish bilan birga umumiy energiya sarfini kamaytirish mumkin. Tadqiqot natijalari quvurli issiqlik almashinish uskunalarini modernizatsiya qilish va yangi energiya tejamkor qurilmalarni loyihalashda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar. uglevodorodlarni qizdirish, quvurli issiqlik almashinish uskunasi, energiya samaradorligi, issiqlik uzatish, energiya tejamkorlik.

Abstract. This article investigates methods for improving the energy efficiency of tubular heat exchangers used for heating hydrocarbons. The study analyzes key structural and technological factors influencing heat transfer processes and substantiates a comprehensive approach aimed at reducing overall energy consumption. The results demonstrate that optimization of tube geometry, rational control of flow regimes, and enhancement of active heat transfer surfaces lead to increased heat transfer efficiency while simultaneously reducing energy losses. The findings can be applied in the modernization of existing tubular heat exchangers and in the design of new energy-efficient thermal equipment.

Keywords. hydrocarbon heating, tubular heat exchanger, energy efficiency, heat transfer, energy saving.

Аннотация. В данной статье рассматриваются способы повышения энергетической эффективности трубчатых теплообменных аппаратов, применяемых для нагрева углеводородов. В ходе исследования

проанализированы основные конструктивные и технологические факторы, влияющие на процессы теплообмена, и обоснован комплексный подход, направленный на снижение общего энергопотребления. Полученные результаты показали, что оптимизация геометрии труб, рациональное управление режимами течения и обеспечение активной работы поверхности теплообмена позволяют повысить эффективность теплопередачи и одновременно снизить энергетические потери. Результаты исследования имеют практическое значение для модернизации существующих теплообменных аппаратов и проектирования энергоэффективного оборудования.

Ключевые слова: нагрев углеводородов, трубчатый теплообменник, энергетическая эффективность, теплопередача, энергосбережение.

Kirish

Uglevodorod xomashyolarini qayta ishlash jarayonlarida ularni ma’lum haroratgacha qizdirish muhim texnologik bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon neftni dastlabki qayta ishlash, katalitik kreking, piroliz, gidrotozalash hamda boshqa ko‘plab kimyoviy-texnologik tizimlarda asosiy energiya sarfi yuqori bo‘lgan operatsiyalar sirasiga kiradi. Amaliyotda uglevodorod oqimlarini qizdirish uchun keng qo‘llaniladigan qurilmalardan biri quvurli issiqlik almashinish uskunalari bo‘lib, ularning samaradorligi bevosita energiya tejamkorligi, ishlab chiqarish tannarxi va ekologik ko‘rsatkichlarga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli quvurli issiqlik almashinish uskunalarining energiya samaradorligini oshirish masalasi zamonaviy neft-gaz va kimyo sanoati uchun dolzarb ilmiy-texnik muammo sifatida qaralmoqda.

Tadqiqot ob’yekti sifatida uglevodorodlarni qizdirishda ishlatiladigan quvurli issiqlik almashinish uskunalarida kechadigan issiqlik uzatish va energiya almashinish jarayonlari tanlab olindi. Ushbu ob’yekt issiqlik-texnik, gidrodinamik va konstruktiv omillar o‘zaro bog‘langan murakkab tizim bo‘lib, undagi har qanday konstruktiv yoki rejimiy o‘zgarish apparatning umumiy samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Avvalgi tadqiqotlarda asosan issiqlik almashinish sirtini kengaytirish, oqim tezligini oshirish yoki harorat farqini ko‘paytirish orqali natijaga erishish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Biroq bunday yondashuvlar ko‘pincha gidravlik qarshilikning oshishi, qo‘shimcha energiya sarfi va ekspluatatsion ishonchlilikning pasayishiga olib kelgan.

Muammoning markaziga qo‘yilishida shuni ta’kidlash joizki, mavjud ilmiy manbalarda quvurli issiqlik almashinish uskunalarining energiya samaradorligi ko‘pincha faqat issiqlik uzatish intensivligi bilan baholanadi. Bunda umumiy energiya balansi, nasos va yordamchi uskunalar sarfi, issiqlik yo‘qotishlari hamda uzoq muddatli ishlash jarayonida yuzaga keladigan cho‘kindi va ifloslanish

ISSN 3030-3907

omillari yetarlicha hisobga olinmaydi. Ayrim tadqiqotlarda esa energiya samaradorligini oshirish uchun taklif etilgan konstruktiv yechimlar sanoat sharoitida qo‘llash uchun murakkab yoki iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lib chiqmoqda. Natijada an’anaviy xulosalar ko‘pincha laboratoriya darajasida qolib ketmoqda va amaliyotga tatbiq etish imkoniyati cheklangan.

Mazkur tadqiqotning borish jarayonida asosiy e’tibor quvurli issiqlik almashinish uskunalarida energiya samaradorligini kompleks yondashuv asosida oshirish usullarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqotning maqsadi uglevodorodlarni qizdirish jarayonida issiqlik uzatish samaradorligini oshirish bilan birga umumiy energiya sarfini kamaytiruvchi konstruktiv va texnologik yechimlarni ilmiy asoslashdan iborat. Ayni vaqtda olib borilgan tadqiqotlar natijasida quvur geometriyasini optimallashtirish, oqim rejimini boshqarish hamda issiqlik almashinish sirtining faol ishlashini ta’minlash orqali energiya samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkinligi aniqlangan. Ushbu yondashuvlar mavjud uskunalarni modernizatsiya qilish imkonini berishi bilan birga yangi avlod issiqlik almashinish apparatlarini loyihalash uchun ham ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharxi: Ilmiy adabiyotlarda quvurli issiqlik almashinish uskunalarining energiya samaradorligini oshirish masalalari turli nuqtai nazarlardan yoritilgan. Klassik ishlarda issiqlik uzatish koeffitsientini oshirish uchun oqimni turbulent holatga o‘tkazish asosiy usul sifatida ko‘rib chiqilgan. Bu yondashuv issiqlik almashinish intensivligini oshirgan bo‘lsa-da, gidravlik qarshilikning keskin ortishi sababli umumiy energiya samaradorligi har doim ham ijobiy natija bermagan.

Keyingi tadqiqotlarda quvurlar ichki yuzasini modifikatsiyalash, spiral va profilli quvurlar qo‘llash orqali oqim strukturasini o‘zgartirish usullari taklif etilgan. Ushbu ishlarda issiqlik uzatish sirtining faol ishtiroki ortgani qayd etilgan bo‘lsa-da, uglevodorod xomashyolarining yuqori yopishqoqligi va cho‘kindi hosil qilish xususiyatlari sababli uzoq muddatli ekspluatatsiya masalalari yetarli darajada yoritilmagan.

Zamonaviy tadqiqotlarda energiya samaradorligini oshirish masalasiga tizimli yondashuv kuchaymoqda. Jumladan, issiqlik almashinish apparatining faqat issiqlik-texnik ko‘rsatkichlari emas, balki umumiy energiya balansi, yordamchi uskunalar sarfi va texnik-iqtisodiy samaradorlik ham birgalikda tahlil qilinmoqda. Ba’zi mualliflar CFD modellashtirish yordamida optimal oqim rejimlarini aniqlashga harakat qilgan, biroq ularning natijalari ko‘pincha ideal sharoitlarga asoslangan bo‘lib, real sanoat sharoitlariga moslashuvi cheklangan.

Shu jihatdan, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, uglevodorodlarni qizdirishda quvurli issiqlik almashinish uskunalarining energiya samaradorligini oshirish masalasi hanuzgacha kompleks va amaliy yechimlarni talab etadi.

ISSN 3030-3907

Ayniqsa, konstruktiv takomillashtirishni energiya sarfi bilan muvozanatlash, ekspluatatsion barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

1-jadval.


Quvurli issiqlik almashinish uskunalarida energiya samaradorligini oshirish usullarining tahliliy taqqoslanishi

Usul turi	Issiqlik uzatishga ta’siri	Energiya sarfiga ta’siri	Cheklovlari
Oqim tezligini oshirish	Yuqori	Nasos sarfi ortadi	Gidravlik yo‘qotishlar
Spiral/profilli quvurlar	O‘rtacha–yuqori	Nisbatan barqaror	Ishlab chiqarish murakkabligi
Issiqlik sirtini kengaytirish	Yuqori	O‘rtacha	Cho‘kindi hosil bo‘lishi
Oqim rejimini optimallashtirish	Yuqori	Minimal	Aniq hisoblash talab etadi

Metodologiya: Mazkur tadqiqotda uglevodorodlarni qizdirishda qo‘llaniladigan quvurli issiqlik almashinish uskunalarining energiya samaradorligini oshirish masalasi kompleks ilmiy yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot metodologiyasi issiqlik-texnik tahlil, gidrodinamik hisoblash, konstruktiv yechimlarni taqqoslash hamda energiya balansini baholash bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv apparatning faqat issiqlik uzatish ko‘rsatkichlarini emas, balki umumiy energiya sarfi va ekspluatatsion samaradorligini ham aniqlash imkonini beradi.

“Tadqiqot jarayonida quvurli issiqlik almashinish uskunasida issiqlik va oqim jarayonlari sxematik tarzda tahlil qilindi (1-rasm).”

ISSN 3030-3907



1-rasm. Uglevodorod oqimining quvurli issiqlik almashinish uskunasida harakatlanishi va issiqlik uzatish jarayonining sxematik tasviri.

Tadqiqotning birinchi bosqichida quvurli issiqlik almashinish uskunasida uglevodorod oqimining harakat rejimi va issiqlik uzatish sharoitlari tahlil qilindi. Bunda issiqlik tashuvchi va qizdirilayotgan muhitning fizik-kimyoviy xossalari, jumladan zichlik, issiqlik sig‘imi, yopishqoqlik va issiqlik o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichlari hisobga olindi. Issiqlik uzatish jarayoni Nyuton–Rixman qonuni hamda issiqlik almashinish apparatlari uchun qo‘llaniladigan klassik tenglamalar asosida baholandi.

Ikkinchi bosqichda quvurli issiqlik almashinish uskunasining energiya samaradorligi umumiy energiya balansi asosida aniqlandi. Bunda foydali uzatilgan issiqlik miqdori bilan birga nasos va yordamchi uskunalarning elektr energiyasi sarfi, gidravlik qarshiliklar hamda issiqlik yo‘qotishlari hisobga olindi. Energiya samaradorligi ko‘rsatkichi sifatida uzatilgan foydali issiqlikning umumiy energiya sarfiga nisbati qabul qilindi, bu esa taklif etilgan usullarning real samaradorligini baholash imkonini berdi.

Uchinchi bosqichda energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan konstruktiv va texnologik yechimlar tadqiq etildi. Jumladan, quvur geometriyasini optimallashtirish, oqim tezligini ratsional tanlash, issiqlik almashinish sirtining faol ishlashini ta’minlash hamda oqim rejimini barqarorlashtirish usullari tahlil qilindi. Har bir yechim issiqlik uzatish intensivligi va gidravlik yo‘qotishlar nuqtai nazaridan alohida baholandi.

To‘rtinchi bosqichda olingan natijalar mavjud an’anaviy konstruksiyalar bilan solishtirildi. Taqqoslash jarayonida issiqlik uzatish koeffitsienti, energiya sarfi, ekspluatatsion barqarorlik va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosiy mezon sifatida tanlandi. Ushbu yondashuv energiya samaradorligini oshirishning eng

ISSN 3030-3907

maqbul usullarini aniqlash va ularni sanoat sharoitida qo‘llash imkoniyatlarini asoslashga xizmat qildi.

Mazkur metodologiya uglevodorodlarni qizdirishda quvurli issiqlik almashinish uskunalarining energiya samaradorligini oshirish masalasini tizimli ravishda o‘rganish imkonini berib, ilmiy asoslangan va amaliy ahamiyatga ega xulosalar chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Tadqiqot natijasi: O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida uglevodorodlarni qizdirishda qo‘llaniladigan quvurli issiqlik almashinish uskunalarining energiya samaradorligini oshirish imkoniyatlari kompleks ravishda aniqlandi. Tadqiqot jarayonida issiqlik uzatish jarayonining intensivligi, umumiy energiya sarfi va apparatning ekspluatatsion ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilindi.

Birinchi navbatda, quvur geometriyasini ratsional tanlash va oqim rejimini optimallashtirish issiqlik uzatish koeffitsientining sezilarli darajada ortishiga olib kelishi aniqlandi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, oqimning haddan tashqari tezlashtirilishi issiqlik uzatishni kuchaytirgan bo‘lsa-da, gidravlik qarshilikning keskin ortishi sababli umumiy energiya samaradorligi pasayadi. Shu bilan birga, oqim tezligini muvozanatli qiymatlarda ushlab turish orqali foydali uzatilgan issiqlik miqdorini oshirish va yordamchi energiya sarfini kamaytirish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, issiqlik almashinish sirtining faol ishlashini ta’minlovchi konstruktiv yechimlar energiya samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, issiqlik tashuvchi bilan uglevodorod oqimi o‘rtasidagi harorat farqidan maksimal darajada foydalanish, quvur devori orqali issiqlik o‘tishini barqarorlashtirish va mahalliy issiqlik qarshiliklarini kamaytirish apparatning foydali ish koeffitsientini oshirishi aniqlangan. Bu holat energiya balansi hisoblari bilan tasdiqlandi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, energiya samaradorligini oshirish faqat issiqlik uzatish koeffitsientining ortishi bilan emas, balki umumiy energiya sarfining kamayishi bilan ham bog‘liq. Tadqiqot davomida taklif etilgan yondashuvlar natijasida nasoslar tomonidan sarflanadigan elektr energiyasi ulushi qisqargan, issiqlik yo‘qotishlari kamaygan va apparatning barqaror ishlash rejimi ta’minlangan. Bu esa quvurli issiqlik almashinish uskunalarining sanoat sharoitida qo‘llanish samaradorligini oshiradi.

Ilmiy nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot natijalari quvurli issiqlik almashinish uskunalarining energiya samaradorligini baholashda faqat alohida issiqlik-texnik ko‘rsatkichlarga tayanish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Taklif etilgan kompleks yondashuv issiqlik uzatish, gidravlik qarshilik va umumiy energiya sarfini yagona tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Bu yondashuv kelgusida yuqori haroratli uglevodorod oqimlari bilan ishlovchi issiqlik

ISSN 3030-3907

almashinish apparatlarini loyihalash va modernizatsiya qilishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, olingan natijalar mavjud an’anaviy quvurli issiqlik almashinish uskunalarini takomillashtirish orqali energiya tejamkorligini oshirish mumkinligini ko‘rsatib berdi. Bu esa ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish, energiya resurslaridan oqilona foydalanish va texnologik jarayonlarning ekologik barqarorligini ta’minlash nuqtai nazaridan muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Diskussiya: Mazkur tadqiqot davomida olingan ilmiy natijalar quvurli issiqlik almashinish uskunalarining energiya samaradorligini oshirish masalasiga oid mavjud ilmiy qarashlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Issiqlik uzatish jarayonlarini intensifikatsiyalash bo‘yicha olib borilgan klassik tadqiqotlarda asosiy e’tibor oqimni maksimal darajada turbulent holatga o‘tkazish orqali yuqori issiqlik uzatish koeffitsientiga erishishga qaratilgan. Ayrim olimlar bunday yondashuvni eng samarali usul sifatida baholagan bo‘lsa, boshqa tadqiqotchilar gidravlik qarshilikning ortishi natijasida umumiy energiya samaradorligi pasayishini asosiy kamchilik sifatida qayd etgan. Ushbu qarama-qarshi fikrlar mazkur tadqiqotda olingan natijalar bilan tasdiqlandi, ya’ni issiqlik uzatish intensivligining ortishi har doim ham energiya tejamkorligiga olib kelmasligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Olingan natijalarni baholash jarayonida issiqlik almashinish samaradorligi tushunchasi faqat issiqlik uzatish koeffitsienti bilan emas, balki umumiy energiya balansi bilan izohlanishi lozimligi aniqlandi. Ba’zi adabiyotlarda energiya samaradorligi faqat issiqlik almashinish sirtini kengaytirish yoki quvur ichki yuzasini modifikatsiyalash orqali baholangan. Biroq ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bunday konstruktiv o‘zgarishlar nasoslar tomonidan sarflanadigan energiyaning ortishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois, ilgari surilgan gipoteza — ya’ni quvurli issiqlik almashinish uskunalarining energiya samaradorligini oshirish faqat issiqlik uzatish intensivligini emas, balki gidravlik yo‘qotishlarni ham birgalikda optimallashtirish orqali erishiladi — olingan natijalar bilan to‘liq tasdiqlandi.

Ilmiy bahslar jarayonida ayrim olimlar tomonidan taklif etilgan yuqori murakkab konstruktiv yechimlarning sanoat sharoitida qo‘llanishi cheklanganligi ham muhokama qilindi. Mazkur tadqiqotda esa energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan yechimlar mavjud apparatlarni modernizatsiya qilish imkonini berishi bilan ajralib turadi. Bu holat taklif etilgan yondashuvlarning amaliy ahamiyatini kuchaytiradi va ularning ishonchliligini oshiradi.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklangan jihatlarini ham qayd etish zarur. Tadqiqot asosan uglevodorod xomashyosining ma’lum fizik-kimyoviy xususiyatlariga ega turlarini qamrab olgan bo‘lib, yuqori yopishqoqlikka ega og‘ir fraksiyalar uchun qo‘shimcha tadqiqotlar talab etiladi. Bundan tashqari, uzoq

ISSN 3030-3907

muddatli ekspluatatsiya jarayonida cho‘kindi hosil bo‘lishi va issiqlik almashinish sirtining ifloslanishi energiya samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun tavsiya sifatida quvurli issiqlik almashinish uskunalarida energiya samaradorligini oshirishni real sanoat sharoitida uzoq muddatli kuzatuvlar asosida baholash, shuningdek, turli uglevodorod xomashyolari uchun universal konstruktiv yechimlarni ishlab chiqish zarurligi ta’kidlanadi. Ushbu yo‘nalishdagi izlanishlar energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va sanoat jarayonlarining barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa: O‘tkazilgan tadqiqotlar uglevodorodlarni qizdirishda qo‘llaniladigan quvurli issiqlik almashinish uskunalarining energiya samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjudligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, energiya samaradorligini oshirish faqat issiqlik uzatish intensivligini kuchaytirish bilan cheklanib qolmasdan, umumiy energiya sarfini optimallashtirish orqali ta’minlanishi lozim.

Quvur geometriyasini ratsional tanlash va oqim rejimini muvozanatli boshqarish issiqlik uzatish ko‘rsatkichlarini barqaror oshirish bilan birga gidravlik yo‘qotishlarni kamaytirishga imkon beradi. Bu yondashuv quvurli issiqlik almashinish uskunalarining foydali ish koeffitsientini oshirish va yordamchi energiya sarfini qisqartirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida taklif etilgan kompleks metodologiya quvurli issiqlik almashinish uskunalarining energiya samaradorligini baholashda amaliy jihatdan ishonchli natijalar berishini ko‘rsatdi. Ushbu yondashuv mavjud apparatlarni modernizatsiya qilishda ham, yangi issiqlik almashinish uskunalarini loyihalashda ham qo‘llash uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Amaliy tavsiya sifatida uglevodorodlarni qizdirish jarayonlarida quvurli issiqlik almashinish uskunalarini loyihalashda issiqlik uzatish va gidravlik qarshilik ko‘rsatkichlarini birgalikda optimallashtirish, energiya sarfini doimiy monitoring qilish hamda ekspluatatsion barqarorlikni ta’minlovchi konstruktiv yechimlarni joriy etish taklif etiladi. Ushbu chora-tadbirlar energiya resurslaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish va texnologik jarayonlarning barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayev A.X., Karimov B.B. Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. — 356 b.
2. Z. Salimov., Kimyoviy texnologiyaning asosiy jarayonlari va qurilmalari O‘zbekiston nashriyoti, 1995.
3. Исаченко В.П., Осипова В.А., Сукмел А.С. Теплообмен. — Москва: Энергоиздат, 1981. — 416 с.

ISSN 3030-3907

4. Какац С., Лью Х. Теплообменники: выбор, расчет и тепловое проектирование. — Москва: Мир, 2006. — 560 с.
5. Хьюитт Д.Ф., Шайрс Г.Л., Ботт Т.Р. Процессный теплообмен. — Москва: Химия, 1990. — 740 с.
6. Incropera F.P., DeWitt D.P., Bergman T.L., Lavine A.S. Fundamentals of Heat and Mass Transfer. — 7th ed. — New York: John Wiley & Sons, 2011. — 1070 p.
7. Хурмаматов А.М., Рахимов Г.Б., Муртазаев Ф.И. ИНТЕНСИФИКАЦИИ ПРОЦЕССОВ ТЕПЛООБМЕНА В ТРУБЧАТЫХ ТЕПЛООБМЕННИКАХ. - Universum: технические науки – 26.11.2021.
8. (https://7universum.com/ru/tech/archive/item/12573)
9. Ganisher B. Rakhimov., Feruzbek I. Murtazayev. Increasing the efficiency of heat exchange by changing the construction of a shell-and-tube heat exchanger. - E3S Web of Conferences 443, 03008 (2023) ETESD-II 2023. (https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/pdf/2023/80/e3sconf_etesd2023_03008.pdf)

ISSN 3030-3907

“SYNTHESIS OF OCTANE-BOOSTING ADDITIVES FOR AUTOMOTIVE GASOLINE BASED ON WASTE HEAVY HEXANE.”

Abdullayev Hasan Rakhmatovich
Doctoral Researcher, Bukhara State University of Technology, Republic of Uzbekistan, Bukhara.
Tel.: +998 99 032 85 04 (m)
E-mail: abdulloyevhasan23@gmail.com
Panoyev Nodir Shavkatovich
Associate Professor, Bukhara State University of Technology, Republic of Uzbekistan, Bukhara.
Tel.: +998 97 281 89 30
E-mail: nodirpanoyev@89mail.ru
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Associate Professor, Bukhara State University of Technology, Republic of Uzbekistan, Bukhara.
Tel.: +998 93 688 56 88 (m)
E-mail: jasur.safarov1993@mail.ru

Annotation. This article investigates the synthesis of octane-boosting additives for automotive gasoline based on waste heavy hexane. The study focuses on the processing of saturated hydrocarbons (n-decane, n-dodecane) using the K_2MnO_4 + H_2SO_4 oxidative system and Pt/Al_2O_3 catalysts. Fundamental reactions such as oxidation, isomerization, alkylation, etherification, and transesterification are examined. These processes yield high-octane, oxygen-containing organic compounds including alcohols, ketones, ethers, and isoalkanes. The synthesized additives significantly increase the octane number of fuel components from 20–40 up to 90–105, enhance combustion efficiency, and reduce harmful emissions. The developed technology offers a method for producing environmentally benign, high-performance fuel additives through deep processing of heavy hydrocarbon waste, thereby addressing both economic and ecological challenges in the fuel industry.

Keywords: heavy hexane, octane number, fuel additives, saturated hydrocarbons, oxidation, isomerization, alkylation, etherification, transesterification, K_2MnO_4, platinum catalyst, isoalkanes, oxygen-containing compounds.

Annotatsiya. Ushbu maqola chiqindilarni og‘ir geksanga asoslangan avtomobil benzini uchun oktanni kuchaytiruvchi qo‘shimchalar sintezini o‘rganadi.zoh. Ushbu maqola chiqindilarni og‘ir geksanga asoslangan avtomobil benzini uchun oktanni kuchaytiruvchi qo‘shimchalar sintezini o‘rganadi. Tadqiqot K_2mnoeffekt + H_2SOEFFEzoh. Ushbu maqola chiqindilarni og‘ir geksanga asoslangan avtomobil benzini uchun oktanni kuchaytiruvchi qo‘shimchalar sintezini o‘rganadi. Tadqiqot K_2mnoeffekt + H_2SOEFFEKT oksidlanish tizimi va

ISSN 3030-3907

Pt/Al₂oeffekt katalizatorlari yordamida to‘yingan uglevodorodlarni (n-dekan, n-dodekan) qayta ishlashga qaratilgan. Oksidlanish, izomerizatsiya, alkillanish, eterifikatsiya va transesterifikatsiya kabi Fundamental reaktsiyalar o‘rganiladi. Ushbu jarayonlar yuqori oktanli, kislorodli organik birikmalar, shu jumladan spirtlar, ketonlar, efirlar va izoalkanlar. Sintez qilingan qo‘shimchalar yoqilg‘i komponentlarining oktan sonini 20-40 dan 90-105 gacha sezilarli darajada oshiradi, yonish samaradorligini oshiradi va zararli chiqindilarni kamaytiradi.intez qilingan qo‘shimchalar yoqilg‘i komponentlarining oktan dan 90-105 gacha sezilarli darajada oshiradi, yonish samaradorligini oshiradi va zararli chiqindilarni kamaytiradi. Ishlab chiqilgan texnologiya og‘ir uglevodorod chiqindilarini chuqur qayta ishlash orqali ekologik jihatdan yaxshi, yuqori samarali yoqilg‘i qo‘shimchalarini ishlab chiqarish usulini taklif etadi va shu bilan yoqilg‘i sanoatidagi iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qiladi.

Kalit so‘zlar: og‘ir geksan, oktan soni, yoqilg‘i qo‘shimchalari, to‘yingan uglevodorodlar, oksidlanish, izomerizatsiya, alkillanish, eterifikatsiya, transesterifikatsiya, K₂mnoexpress, platina katalizatori, izoalkanlar, kislorodli birikmalar.

Аннотация. В данной статье исследуется синтез присадок, повышающих октановое число для автомобильных бензинов, на основе отработанного тяжелого гексана. Исследование фокусируется на переработке насыщенных углеводородов (Н-декан, Н-додекан) с использованием системы K_2MnO_4 + окислительного H_2SO_4 и PT/Al_2O_3 катализаторы. Рассматриваются основные реакции, такие как окисление, изомеризация, алкилирование, этерификация и переэтерификация. В результате этих процессов образуются высокооктановые органические соединения, содержащие кислород, включая спирты, кетоны, простые эфиры и изоалканы. Синтезированные присадки значительно повышают октановое число компонентов топлива с 20-40 до 90-105, повышают эффективность сгорания и снижают вредные выбросы. Разработанная технология предлагает способ получения экологически чистых, высокоэффективных присадок к топливу путем глубокой переработки тяжелых углеводородных отходов, тем самым решая как экономические, так и экологические проблемы топливной промышленности.

Ключевые слова: тяжелый гексан, октановое число, присадки к топливу, насыщенные углеводороды, окисление, изомеризация, алкилирование, этерификация, переэтерификация, k_2mno_4, платиновый катализатор, изоалканы, кислородсодержащие соединения.

Introduction.

In a period when the demand for fuels in the national economy of our country is steadily increasing, one of the most essential tasks is the deep processing of waste

ISSN 3030-3907

streams generated at the existing *gas-chemical complexes and oil-and-gas processing plants* using modern technologies, in order to produce fuel products that comply with international standards and possess high economic efficiency. At present, preventing the formation of wastes in the oil and gas industry, as well as studying their composition, represents one of the critical scientific and technological challenges.

Developing a technology for producing octane-enhancing additives for automotive fuels based on heavy hexane residues requires taking into account the interrelation between achieving economic benefits and ensuring environmental efficiency. In the primary polyethylene production unit of the "Uz-Kor Gas Chemical" JV LLC, hexane is employed as a suspension medium. A significant portion of the hexane discharged from the process is recovered through purification, while the remaining heavy hexane—together with polymer residues—is removed from the system. Currently, the generation and prevention of heavy hexane waste from the primary polypropylene production unit is considered a pressing problem.

In many countries around the world, a centralized collection system for heavy hexane residues has not yet been established. The qualitative and quantitative composition, as well as the physicochemical properties of heavy hexane residues, continue to be actively studied by researchers worldwide.

Object and Methods of the Study. Saturated hydrocarbons were used as the primary feedstock for the synthesis of oxygenated high-octane additives in the presence of **$K_2MnO_4 + H_2SO_4$** and a **platinum catalyst**. The saturated hydrocarbon ($CH_3–(CH_2)n–CH_3$) represents a long-chain paraffinic compound classified as a low-octane (RON ≈ 20–30) fuel component. However, through oxidation and catalytic transformation, it is possible to convert saturated hydrocarbon molecules into oxygen-containing organic additives such as alcohols, ketones, peroxides, or ethers**.** These compounds enhance combustion efficiency and can increase the octane number to the 95–100 range.

The process proceeds in two principal stages.

1)Using K_2MnO_4 and H_2SO_4, the molecule of a saturated hydrocarbon undergoes radical-generating oxidation in an oxidizing environment.

2) The intermediate products formed in the presence of a Pt catalyst undergo oxidation and isomerization stages, resulting in the formation of oxygen-containing compounds such as alcohols, ketones, or ethers.

Stepwise mechanism of the process

Initiation Step – Radical Formation:

$$2KMnO_4 + 3H_2SO_4 \rightarrow K_2SO_4 + 2MnSO_4 + 3H_2O + [O]$$

The resulting atomic oxygen reacts with n-decane:

ISSN 3030-3907

$$R–H + [O] \rightarrow R• + •OH$$

Scientific and practical research is underway worldwide to create a sought-after technology for purifying reservoir waters from oil and gas fields. In this regard, it is necessary to justify a number of scientific solutions, including: improvement of the technology of purification of reservoir waters of oil and gas fields from hydrocarbon debris; production of new types of adsorbents or their modification; application of modular installations in the purification of reservoir waters of oil and gas fields or industrial wastewater from hydrocarbon residues and mechanical impurities; Special attention is paid to creating optimal conditions for the purification of productive reservoir waters of oil and gas fields from residual hydrocarbons using various adsorbents. It should be noted that the development of technology for the production of new types of carbon adsorbents based on domestic raw materials and research work on the development of a combined modular device for purifying water from productive layers of gas fields from mechanical particles and hydrocarbon residues have not been carried out to date. The use of imported products in the preparation of productive reservoir waters in oil production leads to an increase in the cost of the process. The use of imported products in the preparation of productive reservoir waters in oil production leads to an increase in the cost of the process. Regenerative methods not only purify wastewater, extracting additional useful substances from it and allowing them to be reused in production. Destructive methods are used if it is not possible to extract additional substances or if such work is not considered economically beneficial. Currently, various natural materials can be used as adsorbents: zeolites, clays; artificial inorganic substances; carbonaceous materials: activated carbon, fibrous carbon materials, as well as molecular sorbents based on synthetic polymers. In industry, solids consisting of micropores with high porosity are used as adsorbents. In industry, adsorbents are used in granular or powdered form. During wastewater treatment by the adsorption method, adsorbents can be regenerated and in this case they can be used repeatedly. Knowing the basic

ISSN 3030-3907

properties of adsorbents when they are used is important for its effectiveness, as is the cost of purifying water or gases. Therefore, we analyzed the main properties of adsorbents. The high content of organic compounds in tree trunks (99%) and less ash, higher consistency, as well as having hydrophobic properties, have hydrophobic properties, shows them as an ideal material for producing adsorbents with very high adsorption activity. For this reason, thermal waste is extracted from local stumps, and the production of adsorbents from steam-gas activated carbon will allow our country to save currency and help solve environmental problems by using these adsorbents in various industries. Based on the above considerations, the plant waste found on the territory of our republic — mulberry, saxaul and yulgun - was chosen as the object of research. On the basis of this carbon-containing secondary raw material, carbon adsorbents were obtained using the method of physical activation.

Research methods. The purpose of this study is to use local plant waste, produce high-quality activated carbon adsorbents, and analyze their sorption properties. The selected plant waste (mulberry, saxaul and sedge) are environmentally friendly and renewable resources, thanks to the process of their physical activation, it is possible to ensure high adsorption activity of adsorbents.

During pyrolysis, dried samples in the amount of 100 g were taken from the selected study objects and heat treatment was carried out in a pyrolysis unit prepared in laboratory conditions (Fig.1).

Gases produced during pyrolysis are saturated and unsaturated hydrocarbons (e.g. CH_4, C_2H_6, C_2H_4, C_2H_2, etc.) will be available. These gases can be used for many other organic syntheses or as fuel for the pyrolysis process. After crushing, charcoal turns into granular coal, which is formed by crushing adsorbents into fractions up to a certain size through sieves. Powdered coal formed after crushing, when coal is divided into fractions, bringing adsorbents to a certain size through sieves, can be used to produce coal adsorbents in the form of granules or environmentally friendly coal briquettes.

ISSN 3030-3907




Figure 1 laboratory device for pyrolysis of vegetable raw materials:

1) argon tube; 2) argon tube for transferring a mixture of argon and water vapor; 2) argon tube for transferring a mixture of argon and water vapor; 3) steam generator; 4) electric heater; 5) reactor; 6) reinforcement ring; 7) reaction cup with a perforated bottom; 8) raw materials; 9) gas outlet pipe; 10) thermocouple; 11) KS–2 unit; 12) pressure gauge;odometer.

Due to the low content of inorganic substances in charcoal, coal adsorbents based on them have a relatively low ash content. The ash content of the samples increased with increasing activation temperature. As the pyrolysis temperature increases, a decrease in the amount of organic substances in the samples leads to the formation of inorganic compounds and the quantitative ratio between organic compounds changes. Therefore, there is an increase in the amount of ash.

The results of the study. One of the main advantages of steam activation is to increase the purity of the resulting carbon material. Organic substances are ignited by steam activation, while inorganic compounds ignite, forming ash in the coal material and reducing the amount of other pollutants. This process improves the quality of the carbon material and improves its adsorption properties. This is especially true for high purity coal material, and the specifics are important for in-demand industries.

ISSN 3030-3907




Figure-2. Dependence of the consistency of carbon adsorbents on the activation temperature

After absorption of the adsorbate particles by the adsorbent, the adsorbent and the surface of the adsorbent decrease the surface tension of the adsorbent as a result of the arrangement of the adsorbate molecules. This condition, in turn, also reduces the strength of the adsorbent.

In conclusion, it can be said that a decrease in strength, physical and affects its chemical stability, as well as the possibility of its long-term use. Therefore, in order to maintain the strength of adsorbents, it is important to increase the efficiency of adsorption processes. In technological processes, strength plays an important role in the extraction of adsorbents from systems after their use. It can be added that the adsorbent we offer, unlike other sorbents, cleans reservoir waters well.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРА:

1. Карелин Я.А. Очистка сточных вод нефтяных промыслов и заводов. учеб. - метод, пособие/ Я.А. Карелин -М.:Гостоптехиздат, 1959 -344 с.
2. Гидрогеология и воды нефтяных и газовых месторождений. учеб. - метод, пособие/ Г.М. Сухарев Л.: 1959-335 с.
3. Бокиева, Ш. К., Адизов, Б. З. (2023). Разработка сорбентов для применения в качестве очистки сточных вод нефтяных месторождений. *Universum: технические науки*, (11-5 (116)), 17-19.с
4. Бокиева, Ш. К., Адизов, Б. З. (2024). Анализ содержания азота в сточных водах нефтяных месторождений. Universum: технические науки, 6(2 (119)), 18-20.
5. Гидрогеология и воды нефтяных и газовых месторождений. учеб. - метод, пособие/ Г.М. Сухарев Л.: 1959-335 .с
6. Бокиева, Ш. К., Тошев, Ш. Ш., Дустов, Х. Б. (2021). Исследования химических методов очистки нефтепромысловых сточных вод. Scientific progress, 1(6), 904-908.с

ISSN 3030-3907

7. Bokiyeva, Sh. K., Ortiqova, M. O. Q. (2022). The relationship between the phase equilibrium of a gas and a glycolic solution. Science and Education, 3(4), 405-408.c

ISSN 3030-3907

FRANSUZ TILI O‘QITISH JARAYONIDA MADANIYATSHUNOSLIK INTEGRATSIYASI: OLIY TA’LIM MISOLIDA

Sindorov Rajapboy Ulugbek o‘g‘li
Samarqand tibbiyot universiteti assistent

Abstract: This article is devoted to the issue of teaching the French language and its connection with sociocultural knowledge and skills. Special emphasis is placed on the importance of the cultural studies approach in foreign language teaching. Such an approach contributes not only to the development of general educational and pedagogical objectives but also to the comprehensive personal development of learners. Sociological studies conducted on the Internet, the author’s observations during pedagogical practice at the Moscow City Pedagogical University, and the analysis of scientific literature have shown that students’ cultural competence is not sufficiently developed. Accordingly, there is a need to ensure coordination in efforts aimed at developing cultural competence in the teaching of the French language.

Keywords: French language, competence, skills, cultural studies

Аннотация: Данная статья посвящена вопросам преподавания французского языка и его взаимосвязи с социокультурными знаниями и умениями. Особое внимание уделяется значимости культурологического подхода в обучении иностранным языкам. Такой подход способствует не только развитию общеобразовательных и воспитательных целей, но и всестороннему развитию личности. Социологические исследования, проведённые в сети Интернет, наблюдения автора в ходе педагогической практики в Московском городском педагогическом университете, а также анализ научной литературы показали недостаточный уровень сформированности культурологической компетенции у студентов. В связи с этим возникает необходимость координации работы по формированию культурологической компетенции при обучении французскому языку.

Ключевые слова: французский язык, компетенция, умение

Annotatsiya: Ushbu maqola fransuz tilini o‘qitish masalasiga va uning sotsiokultural bilim hamda ko‘nikmalarga bog‘liqligiga bag‘ishlangan. Chet tilini o‘rgatishda madaniyatshunoslik yo‘nalishining ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Bunday yondashuv nafaqat umumta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarning rivojlanishiga, balki shaxsning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi. Internet tarmog‘idagi sotsiologik tadqiqotlar, muallifning Moskva shahar pedagogika universitetidagi pedagogik amaliyoti davomida olib borgan kuzatuvlari va ilmiy adabiyotlar tahlili talabalarning madaniyatshunoslik kompetensiyasi yetarli darajada rivojlanmagani-ni ko‘rsatdi. Shunga muvofiq, fransuz tilini

ISSN 3030-3907

o‘qitishda madaniyatshunoslik kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha ishlarda muvofiqlashtirish zarurati mavjud.

Kalit so‘zlar: fransuz tili, kompetensiya, ko‘nikma, madaniyatshunoslik.

Kirish

Ko‘pchilik lingvistik ta’limni faqat chet tilini, uning fonetik, grammatik va leksik jihatlarini o‘rganish bilan chegaralangan deb hisoblaydi. Aslida esa til lingvist uchun mustaqil nazariy konstrukt bo‘lib, unga kommunikativ aktning o‘zi, uning funksiyalari va mamlakatning madaniy realliklari qo‘shiladi [4, 20]. Til madaniyatlararo muloqotni o‘rnatish va uni saqlab qolish vositasi sifatida xizmat qiladi. Biroq tilni o‘qitish texnologiyalari va metodlaridagi tub o‘zgarishlar til o‘qitish paradigmasining to‘liq qayta ko‘rib chiqilishiga olib keldi. Avvallari chet tilini o‘rganish asosan yozma nutqni qabul qilishga tayanar edi, hozirgi vaqtda esa chet tili real hamda vositali kommunikatsiyada turli madaniyat vakillari bilan aloqalarni o‘rnatish va saqlash vositasi — mediator sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Natijada asosiy e’tibor asta-sekin tildan kommunikatsiya vositasi va boshqa madaniyatni anglash manbai sifatida foydalanishga ko‘chdi. Boshqa xalqlarning madaniyatini o‘rganish samarali muloqotni ta’minlaydi, har xil fikrlash tarziga, diniy e’tiqodlarga va boshqa madaniyat vakillarining xulq-atvoriga bag‘rikeng munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi. Shuningdek, bu omil til egasining nutq xususiyatlarini tezroq va samaraliroq o‘zlashtirishga imkon beradi.

Shubhasiz haqiqat shundan iboratki, turli milliy dunyoqarash fragmentlari o‘ziga xos bo‘lib, til egasi bo‘lgan shaxsning lingvistik ifodasida aks etadi. Madaniyat vakillari o‘z madaniy boyliklaridan intuitiv ravishda foydalanganliklari sababli, ular ko‘pincha o‘zlarining madaniy odatlari va didlarini kompleks tarzda aniqlab bera olmaydilar. Sistematik monitoring ularning madaniyatshunoslik xulq-atvorini tahlil qilishga yordam beradi va ularning tilga doir dunyo manzarasini yanada aniqroq ochib berish imkonini yaratadi. Ma’lum ma’noda, psixologik mexanizm individ yashab turgan voqelikni idrok etish jarayonini belgilaydi va uning til hamda madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratishiga sabab bo‘ladi. Natijada yangi konseptual-madaniyatshunoslik yo‘nalishi shakllana boshlaydi; so‘z esa bir qator gumanitar fanlar — san’atsunoslik va madaniyatshunoslik, tilshunoslik va adabiyotshunoslik, mantiq va falsafaning markaziy tushunchasiga aylanadi. “Dunyo manzarasi” tushunchasi asosiy metodologik kategoriya sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Konseptual-madaniyatshunoslik yo‘nalishining tilshunoslikka kirib kelishi til va voqelik, til va madaniyat o‘rtasidagi munosabat muammosiga yangi nuqtai nazardan yondashish imkonini berdi. Dunyo manzarasining ifodalovchilari sifatida til vositalari e’tirof etilib, til birliklari konseptlar sifatida talqin qilina boshladi.

ISSN 3030-3907

Effektiv nutqiy rivojlanish modeli, lingvokulturologiya nuqtai nazaridan, fanlararo yondashuvga asoslanadi. U quyidagi pedagogik shartlar yordamida amalga oshiriladi: o‘rganilayotgan til mamlakatining madaniy mazmunidagi aksiologik komponentni faollashtirish; chet tili darslarida o‘qituvchi va talaba o‘rtasida qiymat-ma’noga yo‘naltirilgan muloqotni tashkil etish; chet tilini o‘qitishda ijodiy-qiymatga yo‘naltirilgan metodlarni — suhbatlar, rol o‘yinlari, cases (amaliy vaziyatlar), empatiya va muloqot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar majmuasini faollashtirish [5, s. 3].

Polilingval shaxsni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik, ilmiy-nazariy va ilmiy-metodik shartlari, xususiyatlari, struktura va mazmuniy tarkibiy elementlarini aniqlash va universalizatsiya qilish uchun yuqori ta’lim sharoitida ona tili bo‘lmagan tilni egallash prinsip va texnologiyalari asosida polilingval shaxsni rivojlantirishda kommunikativ-lingvokulturologik yondashuvni qo‘llash zarur. Bu talabalarining yangi sotsiokultural realliklarni idrok etish imkonini beradigan intensiv chet tilidagi nutqiy amaliyotga kompleks integratsiyasini nazarda tutadi. Shaxsiy va kommunikativ-aktiv o‘qitish metodlaridan foydalanish oliy ta’lim sharoitida polilingval ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Shu orqali talabalarning nutqiy rivojlanishining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida lingvokulturologik kompetensiya rivojlanishi faollashadi.

Effektiv nutqiy mashqlar majmuasi milliy-madaniy rangga ega leksika bilan lingvokulturologik materialni “matn + vazifa” formatida darslarda namoyish etadi; u talabalarning polilingval ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Shuni yodda tutish kerakki, o‘qituvchi bosqichma-bosqich o‘qitish g‘oyasiga amal qilishi lozim, bunda dominant sifatida muammo-yondashuvga asoslangan model qo‘llaniladi, u talabalarda tilga bo‘lgan to‘liq tasavvur hosil qilishga yordam beradi va yoshga xos xususiyatlar hamda til va madaniyatning kognitiv konseptlarini hisobga oladi. O‘rganilayotgan tillar va madaniyatlarning sotsiokultural nozikliklarini inobatga olish, shuningdek, chet til mamlakatining madaniyatini idrok etishdagi kognitiv aspekt va tillar hamda madaniyatlar o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan mojarolarni aniqlash va prognoz qilish qobiliyati lingvokulturologik yondashuvni fransuz tilini o‘rganishda talabalarda polilingval ko‘nikmalarni shakllantirish strategiyasi sifatida asoslashga yordam beradi.

Belgilanadigan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalanish zarur: dolzarb mavzuga oid sotsiokultural, psixologik, lingvistik va metodik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish; oliy ta’lim sharoitida maktab o‘quvchilarining polilingval ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini modellashtirish; suhbat, pedagogik kuzatuv, so‘rov, anketa va amaliy-eksperimental vazifalarni o‘z ichiga olgan tajriba ishlarini o‘tkazish; eksperimental o‘qitish natijalarini tahlil qilish va samarali tasvirlash [1, s. 19].

ISSN 3030-3907

Chet tili o‘qituvchisi tilni o‘rgatishning amaliy vazifasidan ko‘ra, talabalarning lingvokulturologik muloqotga tayyorlanishlari, xususan ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali shug‘ullanadi. Chet tili o‘qituvchisi nafaqat talabaning chet tilidagi matnni tushunishini ta’minlashi, balki unga ona madaniyati bilan o‘rganilayotgan til mamlakatining madaniyati o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni anglash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa tilni birgalikda o‘rganishning, natijada lingvokulturologik yo‘nalishdagi shaxsni shakllantirishning asosiy sharti hisoblanadi [2, s. 2].

Til to‘sig‘ini bartaraf etish turli madaniyat vakillari o‘rtasida samarali muloqotni o‘rnatish uchun yetarli emas. Bunda eng muhim vazifa madaniyat to‘sig‘ini yengishdir. Madaniyat to‘sig‘i til to‘sig‘idan ancha tanqidiy va paradoksal hisoblanadi. Til, tafakkur va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, bu uch element o‘zaro bog‘langan tarzda faoliyat yuritadi. Ular real dunyo bilan aloqada bo‘lib, uni aks ettirish, idrok etish va shakllantirishda ishtirok etadi. Hozirgi globalizatsiya va jamiyatning integratsiya bosqichida oliy ta’limda lingvokulturologik komponentning mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Invariant komponent: talabalarni ona va o‘rganilayotgan til mamlakatlarining lingvokulturologik tarkibi bilan tanishtirish. Shu doirada talabalar o‘zlarini ona madaniyati vakili sifatida amalga oshirish, identifikatsiya va integratsiya qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi [4, s. 10]. Shuningdek, bu komponent til va ijtimoiy-madaniy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi, bu esa talabaga ushbu muhitda erkin lingvokulturologik orientatsiyani egallash imkonini beradi.

O‘zgaruvchan komponent: u chet tilida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan nutq madaniyati xususiyatlarini hisobga oladi.

ADABIYOTLAR.

1. Аракелян К. А. (2020). Языковое поликультурное образование школьников основного этапа. // Иностранный язык: методические вопросы подготовки конкурентоспособного выпускника. Материалы межвузовской научно-практической конференции. Москва: Белый Ветер. С. 23–28.

2. Глотова Н. А. (2020). Реализация принципа метапредметности в обучении: анализ практического опыта. // Известия Тульского государственного университета. Педагогика. Тула. С. 18–23.

3. Давыдова О. В. (2007). Реализация регионального компонента содержания языкового поликультурного образования в процессе профессиональной подготовки учителя иностранного языка. Автореферат диссертации кандидата педагогических наук. Курский государственный университет. 27 с.

ISSN 3030-3907

4. Нарыкова О. Н. (2013). Методика развития поликультурных умений студентов направления подготовки «Лингвистика»: английский язык. Автореферат диссертации кандидата филологических наук. Курский государственный университет. 25 с.
5. Шевякова Л. Н. (2006). Воспитание гуманитарной культуры будущего учителя иностранного языка в педагогическом колледже. Автореферат диссертации кандидата филологических наук. Елецкий государственный лингвистический университет им. И. А. Бунина. Елец. 24 с.

ISSN 3030-3907

BIOMETRIK FACE ID TERMINALLARI ORQALI OLIY TA'LIM MUASSASALARI INFRATUZILMASIDA TALABALARNING KIRISH–CHIQISH STATISTIKASI VA XAVFSIZLIKNI BOSHQARISHNING AVTOMATLASHTIRILGAN AXBOROT TIZIMI

G'oyibberdiyev Abdullajon Mirzoxidovich,
Andijon davlat chet tillar intituti pedagogika psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: abdullajongoyibberdiyev199608@gmail.com
Tel: +998-99-996-49-23

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada oliy ta'lim muassasalari va talabalar turar joylarida Face ID biometrik texnologiyalariga asoslangan avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish va joriy etish masalalari keng yoritiladi. Tadqiqotda talabalarning kirish–chiqish jarayonlarini avtomatlashtirish, real vaqt rejimida statistik monitoring olib borish hamda xavfsizlikni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish maqsad qilib olingan. Maqolada biometrik identifikatsiya texnologiyalarining nazariy asoslari, tizim arxitekturasi, funksional modullari, axborot xavfsizligi masalalari hamda amaliy samaradorligi tahlil qilinadi. Taklif etilgan model oliy ta'lim muassasalari infratuzilmasini raqamlashtirish, xavfsizlikni kuchaytirish va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: biometrik texnologiya, Face ID, avtomatlashtirilgan axborot tizimi, oliy ta'lim muassasasi, xavfsizlik, kirish–chiqish nazorati, raqamli infratuzilma.

Abstract. This scientific article examines the development and implementation of an automated information system based on Face ID biometric technologies in higher education institutions and student dormitories. The study aims to automate student entry and exit processes, conduct real-time statistical monitoring, and develop effective mechanisms for security management. The article analyzes the theoretical foundations of biometric identification technologies, system architecture, functional modules, information security issues, and the practical effectiveness of the proposed system. The proposed model contributes to the digitalization of higher education infrastructure, enhances security levels, and optimizes management processes.

Keywords: biometric technology, Face ID, automated information system, higher education institution, security, access control, digital infrastructure.

Аннотация. В данной научной статье рассматриваются вопросы разработки и внедрения автоматизированной информационной системы на основе биометрических технологий Face ID в высших учебных заведениях и студенческих общежитиях. Целью исследования является автоматизация процессов входа и выхода студентов, проведение статистического мониторинга в режиме реального времени, а также разработка эффективных

ISSN 3030-3907

механизмов управления безопасностью. В статье анализируются теоретические основы биометрической идентификации, архитектура системы, функциональные модули, вопросы информационной безопасности и практическая эффективность предлагаемого решения. Предложенная модель способствует цифровизации инфраструктуры высших учебных заведений, повышению уровня безопасности и оптимизации управленческих процессов.

Ключевые слова: биометрические технологии, Face ID, автоматизированная информационная система, высшее учебное заведение, безопасность, контроль доступа, цифровая инфраструктура.

Kirish.

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi barcha sohalar, jumladan, ta’lim tizimiga ham chuqur kirib kelmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati bilan bir qatorda xavfsizlikni ta’minlash, boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish va real vaqt rejimida monitoring olib borish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, talabalar oqimi katta bo‘lgan universitetlar va talabalar turar joylarida kirish–chiqish jarayonlarini aniq va ishonchli nazorat qilish dolzarb muammolardan sanaladi.

An’anaviy kirish–chiqish nazorat usullari, xususan, plastik kartalar, daftarlar yoki qo‘lda ro‘yxatga olish tizimlari ko‘plab kamchiliklarga ega. Ushbu usullar inson omiliga bog‘liq xatolar, qalbakilashtirish ehtimoli, ma’lumotlarning kechikib qayd etilishi va xavfsizlikning yetarli darajada ta’minlanmasligi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bois biometrik texnologiyalar, xususan Face ID asosidagi identifikatsiya tizimlarini joriy etish ta’lim muassasalari infratuzilmasini modernizatsiyalashning muhim yo‘nalishiga aylanmoqda.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Tadqiqotning asosiy maqsadi — oliy ta’lim muassasalari va talabalar turar joylarida Face ID biometrik texnologiyalaridan foydalangan holda talabalarning kirish–chiqish jarayonlarini avtomatlashtirish, real vaqt rejimida statistik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish hamda talaba xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiluvchi avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- biometrik Face ID texnologiyalarining nazariy va amaliy asoslarini o‘rganish;
- oliy ta’lim muassasalari infratuzilmasida kirish–chiqish jarayonlarini avtomatlashtirish modelini ishlab chiqish;
- real vaqt rejimida statistik monitoringni amalga oshirish mexanizmlarini yaratish;
- biometrik ma’lumotlarni himoyalash va axborot xavfsizligini ta’minlash usullarini aniqlash;
- taklif etilgan tizimning samaradorligini baholash.

ISSN 3030-3907

Biometrik Face ID texnologiyalarining nazariy asoslari

Biometrik identifikatsiya texnologiyalari shaxsni uning noyob biologik va fiziologik xususiyatlari asosida aniqlashga qaratilgan usullar majmuasidir. Bunday xususiyatlarga barmoq izi, ko‘z to‘r pardasi, ovoz, yuz tuzilishi va boshqa belgilar kiradi. Face ID texnologiyasi inson yuzining geometrik va vizual xususiyatlarini tahlil qilish orqali shaxsni aniqlashga asoslanadi.

Yuzni aniqlash jarayoni bir nechta bosqichlardan iborat: yuzni aniqlash (face detection), yuzni normallashtirish, biometrik xususiyatlarni ajratib olish va ma’lumotlar bazasi bilan solishtirish. Ushbu jarayonlar sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish algoritmlariga asoslanib amalga oshiriladi. Face ID texnologiyasining asosiy afzalligi — kontakt talab qilmasligi, tezkorligi va aniqligining yuqoriligidir.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimining umumiy tuzilishi

Taklif etilayotgan avtomatlashtirilgan axborot tizimi oliy ta’lim muassasalari infratuzilmasida kirish–chiqish jarayonlarini boshqarish va xavfsizlikni ta’minlashga mo‘ljallangan kompleks tizim hisoblanadi. Tizim quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topgan:

- **Face ID terminallari** – binoga kirish va chiqishda shaxsni aniqlovchi qurilmalar;
- **Ma’lumotlar bazasi** – talabalar biometrik shablonlari va kirish–chiqish loglarini saqlash;
- **Monitoring va statistika moduli** – real vaqt rejimida ma’lumotlarni qayd etish va tahlil qilish;
- **Xavfsizlik moduli** – ruxsatsiz kirishni aniqlash va ogohlantirish;
- **Administrator interfeysi** – tizimni boshqarish va hisobotlarni shakllantirish.

Mazkur tizimning integratsiyalashgan tuzilishi boshqaruv jarayonlarini soddalashtiradi va xavfsizlik darajasini oshiradi.

Real vaqt rejimida statistik monitoring

Real vaqt rejimida statistik monitoring tizimning eng muhim funksional imkoniyatlaridan biridir. Ushbu modul orqali talabalarning kunlik, haftalik va oylik kirish–chiqish faolligi tahlil qilinadi. Statistik ma’lumotlar asosida talabalar davomatini nazorat qilish, favqulodda holatlarda tezkor choralar ko‘rish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati yaratiladi.

Statistik monitoring avtomatlashtirilgan tarzda amalga oshirilgani sababli ma’lumotlarning aniqligi va ishonchliligi ta’minlanadi. Bundan tashqari, tizim turli ko‘rinishdagi grafik va diagrammalar orqali tahliliy ma’lumotlarni vizual shaklda taqdim etadi.

Axborot xavfsizligi va biometrik ma’lumotlarni himoyalash

Biometrik ma’lumotlar bilan ishlash axborot xavfsizligi nuqtayi nazaridan alohida e’tibor talab etadi. Taklif etilayotgan tizimda biometrik ma’lumotlarni

ISSN 3030-3907

himoyalash uchun shifrlash algoritmlari, foydalanuvchi huquqlarini chegaralash va ko‘p bosqichli autentifikatsiya mexanizmlaridan foydalaniladi.

Shuningdek, biometrik ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlashda amaldagi huquqiy-me’yoriy talablar hisobga olinadi. Bu talabalarning shaxsiy ma’lumotlari daxlsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari va muhokama.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Face ID asosidagi avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etish kirish–chiqish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtiradi va aniqligini oshiradi. Tizim inson omiliga bog‘liq xatolarni kamaytirib, xavfsizlik darajasini mustahkamlaydi.

Shuningdek, real vaqt statistikasi asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligi oshadi. Talabalar turar joylarida ushbu tizimning qo‘llanilishi xavfsizlikni ta’minlash bilan bir qatorda intizomni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, Face ID biometrik texnologiyalariga asoslangan avtomatlashtirilgan axborot tizimi oliy ta’lim muassasalari infratuzilmasini modernizatsiyalashda muhim ahamiyatga ega. Taklif etilgan model talabalar xavfsizligini ta’minlash, kirish–chiqish jarayonlarini avtomatlashtirish va real vaqt rejimida statistik monitoringni amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu tizimni joriy etish ta’lim muassasalarida raqamli boshqaruvni rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. **“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida** PF–6079-son Farmoni. — Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. **Axborotlashtirish va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami.** — Toshkent, 2021.

3. Ashraf, S., Ahmed, M. **Biometric Authentication Systems: A Survey.** — *International Journal of Computer Science and Information Security*, 2020, Vol. 18(6), pp. 45–52.

4. Jain, A. K., Ross, A., Prabhakar, S. **An Introduction to Biometric Recognition.** — *IEEE Transactions on Circuits and Systems for Video Technology*, 2004, Vol. 14(1), pp. 4–20.

5. Zhao, W., Chellappa, R., Phillips, P. J., Rosenfeld, A. **Face Recognition: A Literature Survey.** — *ACM Computing Surveys*, 2003, Vol. 35(4), pp. 399–458.

6. Li, S. Z., Jain, A. K. **Handbook of Face Recognition.** — New York: Springer, 2011.

ISSN 3030-3907

7. Bowyer, K. W., Chang, K., Flynn, P. **A Survey of Face Recognition and Security.** — *IEEE Computer*, 2006, Vol. 39(2), pp. 41–48.
8. Turk, M., Pentland, A. **Eigenfaces for Recognition.** — *Journal of Cognitive Neuroscience*, 1991, Vol. 3(1), pp. 71–86.
9. Гаврилов, В. А. **Биометрические системы идентификации личности.** — Москва: Радио и связь, 2018.
10. Кузнецов, С. Д. **Информационная безопасность и защита персональных данных.** — Москва: Юрайт, 2020.
11. Иванов, А. И., Петров, Н. С. **Автоматизированные системы контроля доступа на основе биометрии.** — *Информационные технологии*, 2019, №7, с. 22–28.
12. Stallings, W. **Cryptography and Network Security: Principles and Practice.** — 7th ed. — Pearson Education, 2017.
13. ISO/IEC 24745:2011. **Information technology — Security techniques — Biometric information protection.**
14. Zhang, C., Zhang, Z. **Improving Multimodal Biometric Systems with Face Recognition.** — *Pattern Recognition Letters*, 2018, Vol. 105, pp. 1–9.
15. Wayman, J., Jain, A., Maltoni, D., Maio, D. **Biometric Systems: Technology, Design and Performance Evaluation.** — London: Springer, 2005.

ISSN 3030-3907

KICHIK HAJMLI TRANSPORT VOSITALARINI KOMPONOVKALASH SXEMALARINI ISHLAB CHIQISH

Halimov Shohjahon Rayim o‘g‘li
Buxoro davlat Txnika universiteti magistranti

Annotatsiya. Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy shahar infratuzilmasi sharoitida kichik hajmli transport vositalarining (KHTV) o‘rni va ularni loyihalashda qo‘llaniladigan komponovkalash sxemalari tadqiq etilgan. Shahar ko‘chalarida avtomobillar sonining ortishi, tirbandliklar va ekologik muammolar kichik gabaritli transportlarni dolzarb qilmoqda. Maqolada KHTVlarning barqarorligi, og‘irlik markazini taqsimlash va ergonomik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan yangi konstruktiv yechimlar tahlil qilingan. Shuningdek, ichki yonuv dvigateli va elektr dvigatelli variantlar uchun alohida komponovka modellarining afzallik hamda kamchiliklari solishtirilgan. Olingan natijalar yangi avlod mikromobillik vositalarini ishlab chiqishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Kichik hajmli transport, komponovkalash sxemasi, shahar logistikasi, dinamik barqarorlik, og‘irlik markazi, ergonomika, modulli shassi, elektromobillik, transport konstruksiyasi.

Annotation. This scientific article examines the role of small-capacity vehicles (SCVs) in the context of modern urban infrastructure and the layout schemes used in their design. The increase in the number of vehicles on city streets, traffic congestion, and environmental issues make small-sized transport highly relevant. The article analyzes new structural solutions aimed at improving the stability, weight distribution, and ergonomic performance of SCVs. Furthermore, the advantages and disadvantages of separate layout models for internal combustion engines and electric motor variants are compared. The results obtained serve as a theoretical basis for the development of new-generation micro-mobility vehicles.

Keywords: Small-capacity transport, layout scheme, urban logistics, dynamic stability, center of gravity, ergonomics, modular chassis, electromobility, transport construction.

Аннотация. В данной научной статье исследуется роль малогабаритных транспортных средств (МТС) в условиях современной городской инфраструктуры и компоновочные схемы, используемые при их проектировании. Рост количества автомобилей на городских улицах, пробки и экологические проблемы делают малогабаритный транспорт актуальным. В статье анализируются новые конструктивные решения, направленные на повышение устойчивости, распределение центра тяжести и эргономических показателей МТС. Также сравниваются преимущества и недостатки отдельных моделей компоновки для вариантов с двигателем внутреннего

ISSN 3030-3907

сгорания и электродвигателем. Полученные результаты служат теоретической базой для разработки транспортных средств микромобильности нового поколения.

Ключевые слова: Малогабаритный транспорт, компоновочная схема, городская логистика, динамическая устойчивость, центр тяжести, эргономика, модульное шасси, электромобильность, конструкция транспорта.

Kirish

Zamonaviy megapolislarda transport tizimi murakkab inqirozli holatga kelib qolgan. Global urbanizatsiya natijasida shahar aholisi zichligi oshib bormoqda, bu esa shaxsiy avtomobillar sonining geometrik progressiyada o‘sishiga sabab bo‘lyapti. An'anaviy o‘rta va katta hajmli avtomobillar shahar ko‘chalarida egallagan maydoni, yoqilg‘i sarfi va atmosferaga chiqaradigan zaharli gazlari bilan samaradorlikni yo‘qotmoqda.

Kichik hajmli transport vositalari (KHTV) — bu vazni 400 dan 800 kg gacha bo‘lgan, asosan 1 yoki 2 kishi uchun mo‘ljallangan transportlardir. Ularni loyihalashda komponovkalash (barcha qismlarni bir butunlikka yig‘ish) eng murakkab jarayondir. Chunki cheklangan o‘lcham ichida ham xavfsizlikni, ham qulaylikni, ham texnik unumdorlikni ta'minlash talab etiladi.

KHTVlar sohasidagi ilmiy tadqiqotlar bir necha o‘n yillik tarixga ega.V.A. Ilarionov va N.N. Yatsenko kabi olimlar avtomobillarning o‘tuvchanligi va turg‘unligi bo‘yicha fundamental tadqiqotlar olib borganlar. Ularning fikricha, g‘ildirak bazasining qisqarishi transportning boshqaruvchanligini oshirsa-da, yuqori tezlikda yo‘nalish barqarorligini pasaytiradi. G. Dreyfuss ergonomika bo‘yicha o‘z ishlarida kichik hajmli kabinalarda inson omilini hisobga olish, ya’ni haydovchi o‘rindig‘ining joylashuv burchaklarini optimallashtirish bo‘yicha standartlarni ishlab chiqqan. S.N. Norov (ilmiy rahbar) tomonidan mahalliy sharoitda transport vositalarining ekspluatatsion xususiyatlarini oshirish, xususan, kichik hajmli agregatlarning issiqlik almashinuvi va dinamik yuklamalarini taqsimlash masalalari keng tadqiq etilgan.

Kichik hajmli transport vositalarining asosiy komponentlari va funksiyalari ularning samarali va xavfsiz ishlashini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Bu komponentlar transport vositasining mexanik, elektron va boshqaruv sistemalaridan iborat bo‘lib, har birining o‘z o‘rnida va muvofiqligida bo‘lishi transportning umumiy funktsional imkoniyatlarini belgilaydi. Kichik hajmli transport vositalarining komponentlarini tahlil qilishda, ularning dizayni va ishlab chiqarish jarayonlarini soddalashtirish, shuningdek, komponentlarning integratsiyasini ta’minlash muhimdir.Transport vositalarining asosiy mexanik komponentlari orasida ramka va korpus, shassi, dvigatel, transmissiya tizimi va

ISSN 3030-3907

shuningdek, yurish yoki harakat tizimlari joy oladi. Ramka va korpus – transport vositasining strukturalarini tashkil etib, uning mustahkamligi va yengilligi uchun muhimdir. Kichik hajmli transportlarda, ayniqsa, shahar muhitida foydalaniladigan modullangan va yengil ramkalar keng qo‘llaniladi, ular mexanik kuchlarni taqsimlashda va energiya tejamkorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Dvigatel va transmissiya tizimi esa, energiya uzatish va yurish jarayonlarini ta’minlaydi. Elektr dvigatel va batareyalar bilan ishlovchi tizimlar esa, ekologik toza va energiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, bu esa modern transport vositalarining eng muhim tendensiyalaridan biridir.

Elektron komponentlar va boshqaruv tizimlari ham muhim o‘rin tutadi. Bular orasida, sensorlar, mikroprotsessorlar va avtomatik boshqaruv modullari joy oladi. Bu tizimlar, transport vositasining holatini real vaqtda nazorat qilish, xavfsizlikni oshirish va energiya sarfini optimallashtirish uchun ishlatiladi. Masalan, sensorlar yordamida, transport vositasining harakatini, yuk miqdorini va muhit sharoitlarini aniqlash mumkin, bu esa avtomatik to‘xtash, yengil boshqaruv va xavfsizlikni ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Elektron boshqaruv tizimlari, shuningdek, energiya taqsimoti va batareyani boshqarishni optimallashtirish imkoniyatini beradi, bu esa kichik hajmli transport vositalarining energiya samaradorligini oshiradi.Komponentlarning joylashuvi va ularning o‘zaro mosligi, sxemalar ishlab chiqishda asosiy o‘rin tutadi. Komponentlar o‘zaro bog‘lanish jarayonida, ularning joylashuvi mexanik va elektron sistemalarining samarali ishlashini ta’minlashi kerak. Modulli dizaynlar, ya’ni, komponentlarning alohida modullarga ajratilishi va ularni yagona tizimga birlashtirish, ishlab chiqarish va ta’mir qilish jarayonlarini yengillashtiradi. Bu, shuningdek, texnik xizmat va ta’mirlash uchun qulaylik yaratadi, komponentlarni almashtirish va yangilash jarayonini osonlashtiradi. Komponentlarning joylashuvi va ularga bog‘liq sxemalar, shuningdek, energiya uzatish tarmoqlari va boshqaruv kabellarining joylashuvi, umumiy tizimning ishonchliligi va xavfsizligini belgilaydi.Xavfsizlik va xavfsizlikni ta’minlash uchun, transport vositalarining komponentlari, shuningdek, ularning joylashuvi va ularga bog‘liq sxemalar muhimdir. Xavfsizlik uchun, masalan, yong‘in signalizatsiyasi, avariya to‘xtash tizimlari va yengil yong‘in o‘chirish tizimlari ishlab chiqiladi. Shuningdek, elektron va mexanik komponentlarning mosligi va mustahkamligi, xavfsizlikni ta’minlashning asosiy shartlaridan biridir. Komponentlar orasidagi muvofiqlik, energiya ta’minoti va boshqaruv tizimlarining ishonchliligi, transport vositasining barqarorligi va xavfsizligini ta’minlaydi.

Shuningdek, kichik hajmli transport vositalarining komponentlari va funksiyalarini ishlab chiqishda, ishlab chiqarish texnologiyalari va texnologik imkoniyatlar hisobga olinadi. 3D bosib chiqarish texnologiyalari va yuqori

ISSN 3030-3907

aniqlikdagi simulyatsiya vositalari yordamida, komponentlarning dizayni va ishlab chiqarilishi yanada rivojlantirilmoqda. Bu texnologiyalar, ishlab chiqarish jarayonini qisqartirish, xarajatlarni kamaytirish va yuqori sifatli komponentlar ishlab chiqarishga imkon beradi. Boshqa tomondan, elektr va elektron komponentlarning integratsiyasini osonlashtirish uchun, ular uchun yagona interfeyslar va standartlar ishlab chiqilmoqda, bu esa, kichik hajmli transport vositalarining ishlab chiqarish va ta’minot zanjirini soddalashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, kichik hajmli transport vositalarining komponentlari va funksiyalari, ularning texnik imkoniyatlari va ishlab chiqarishdagi muvofiqligi, ushbu vositalarning samarali, xavfsiz va ekologik toza bo‘lishini ta’minlash uchun muhimdir. Komponentlarning optimal joylashuvi va ular orasidagi bog‘lanishlar, texnologik innovatsiyalar va dizayn yondashuvlari bilan birgalikda, yangi avlod kichik hajmli transport vositalarining rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa, shahar muhitida, shaxsiy va kichik biznes ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o‘ynaydi va ekologik muhitga ta’sirini kamaytiradi.

Komponovkalar sxemalarini ishlab chiqish uchun simulyatsiya texnologiyalari transport vositalarining dizayn va ishlab chiqarish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu texnologiyalar yordamida, ishlab chiqarishdan oldin, mexanizmlar va elektron komponentlarning o‘zaro mosligi, energiya samaradorligi va xavfsizlik parametrlari sinovdan o‘tkaziladi. Simulyatsiya texnologiyalari, ayniqsa, kichik hajmli transport vositalarining komponovkalarini loyihalashda, muhim ma'lumotlarni vizual tarzda ko‘rsatish va sinovdan o‘tkazish imkonini beradi.

Birinchidan, simulyatsiya texnologiyalarining asosiy vazifalaridan biri — real vaqt rejimida model yaratishdir. Bu modellarda, transport vositasining har xil komponentlari (mexanik, elektron va yengil konstruktsiyalar) 3D model sifatida quriladi. Bu jarayon, kompyuter grafikasi va mexanik simulatsiyalar yordamida amalga oshiriladi. Model yordamida, komponentlarning joylashuvi va bog‘lanishlarini optimallashtirish, ularning ishlash jarayonlarini tahlil qilish mumkin bo‘ladi. Masalan, energiya sarfini kamaytirish yoki mexanizmlarning uzilish xavfini aniqlash uchun bu modellardan foydalaniladi.Ikkinchidan, simulyatsiya texnologiyalari yordamida, komponentlarning o‘zaro mosligi va tizimlarning funksional ishlashini aniqlash uchun turli xil sinovlar o‘tkaziladi. Bu jarayonda, mexanik kuchlar, harorat, bosim va elektr toki kabi parametrlar virtual muhitda o‘rnatiladi. Bu orqali, haqiqiy ishlab chiqarishdan oldin, muammolar aniqlanadi va ularni hal qilish uchun takomillashtirishlar kiritiladi. Bu usul, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va ishlab chiqilayotgan modelning ishonchliligini oshiradi.Uchinchidan, simulyatsiya texnologiyalarining muhim afzalliklaridan biri — prototiplarni yaratmasdan, turli sxemalarni sinab ko‘rish

ISSN 3030-3907

imkoniyatidir. Bu shuningdek, dizayn tafovutlarini aniqlash, yangi komponentlar va bog‘lanish usullarini ishlab chiqish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, modulli dizaynlarni sinashda, har bir modulning o‘zaro ishlashini va tizimga integratsiyasini tekshirish mumkin. Bu jarayon, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va yuqori aniqlik bilan bajarilishini ta’minlaydi.

Simulyatsiya texnologiyalari, ayniqsa, 3D bosib chiqarish texnologiyalari bilan integratsiya qilinmoqda. Bu esa, real model yaratishdan oldin, haqiqiy komponentlarning o‘lchamlari va shaklini aniq ko‘rsatishga imkon beradi. 3D bosib chiqarish yordamida, dizaynerlar va muhandislar, o‘zgarishlarni tez va arzon amalga oshirishlari mumkin, bu esa ishlab chiqarish va dizayn jarayonlarining samaradorligini oshiradi.

Yana bir muhim jihat — simulyatsiya va modellashtirish texnologiyalarining avtomatlashtirilgan tizimlar bilan integratsiyasi. Bu, dizayn va sinov jarayonlarini avtomatik ravishda bajarishni ta’minlaydi. Masalan, genetik algoritmlar yoki optimallashtirish metodlari yordamida, eng samarali sxema va komponentlar tahlil qilinadi va tanlanadi. Bu yondashuv, ishlab chiqilayotgan sxemalarning sifatini oshiradi va ishlab chiqarish muddatlarini qisqartiradi.

Shu bilan birga, simulyatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq muammolar ham mavjud. Ular orasida, modelning haqiqiy dunyo sharoitlariga mos kelmasligi, kompyuter resurslarining katta talab qilinishi va texnologiyaning yuqori narxliligi kabilar bor. Bunday muammolarni hal qilish uchun, ilg‘or dasturiy ta'minotlar, yuqori samarali kompyuterlar va keng qamrovli testlar tizimi ishlab chiqilmoqda.

KHTVlarda asosiy muammo — foydali hajmning (salon) agregatlar egallagan hajm bilan to‘qnashuvidir. Ushbu muammoni yechish uchun quyidagi sxemalar ishlab chiqildi:Ushbu sxemada dvigatel, uzatmalar qutisi va boshqaruv tizimi old qismda joylashadi. Afzalligi: Orqa qismda yuk uchun keng joy qoladi. Kamchiligi: Old o‘qqa tushadigan og‘irlik me’yordan ortib ketadi (60/40), bu esa tormozlanish paytida oldinga "shung‘ish" effektini beradi.

Orqa dvigatelli sxema (RR) Agregatlar orqa tomonda joylashadi.Afzalligi: Old qismni butunlay passiv xavfsizlik (zarbani yutuvchi) zonasi qilish mumkin. Yechim: Bu sxemada og‘irlik markazini pasaytirish uchun dvigatelni gorizontal (oppozit) holatda joylashtirish taklif etiladi.

Transport vositasining ag‘darilishga qarshilik koeffitsiyenti K quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$K = \frac{B}{2 \cdot h_g}$$

Bu yerda:B — g‘ildiraklar rutbasi (masofasi); h_g — og‘irlik markazining erdan balandligi.

ISSN 3030-3907

KHTVlar uchun K ko‘rsatkichi kamida 1.2 dan yuqori bo‘lishi shart. Bunga erishish uchun batareyalar blokini yoki dvigatelni pol darajasidan 300-350 mm dan baland bo‘lmagan nuqtaga o‘rnatish taklif qilinadi.

1-Jadval

Turli komponovka sxemalarining solishtirma tahlili

Parametr	**Old komponovka**	**Orqa komponovka**	**Markaziy (Elektr)**
Vazn taqsimoti	65/35	40/60	50/50
Salon hajmi	O‘rtacha	Kichik	Keng
Boshqaruvchanlik	Barqaror	Murakkab	Ideal
Xavfsizlik	Yuqori	O‘rtacha	Juda yuqori

Tadqiqotning eng muhim qismi — bu "Skeytbord" tipidagi platformani ishlab chiqishdir. Bunda barcha quvvat elementlari (motor-g‘ildiraklar va batareyalar) shassining pastki qismiga yashiriladi.Kabina butunlay "bo‘sh" bo‘ladi, bu esa turli dizayn variantlarini (yuk tashuvchi, yo‘lovchi, maxsus texnika) yaratish imkonini beradi.Og‘irlik markazi yerga maksimal darajada yaqinlashadi ($h_g < 400$ mm).Modulli tizim yordamida transport vositasining bazasini (L) osongina o‘zgartirish mumkin.

Kichik hajmli transport vositalarini komponovkalash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar quyidagi xulosalarga imkon beradi:Shahar sharoitida 2 o‘rinli KHTVlar uchun eng samarali sxema — **markaziy elektr uzatmalidir**.Ergonomik qulaylikni ta'minlash uchun o‘rindiqning qiyalik burchagi 25° dan kam bo‘lmasligi, boshqaruv organlari esa haydovchidan 450-550 mm radiusda joylashishi lozim. Konstruksiyada kompozit materiallardan foydalanish umumiy vaznni 20% ga kamaytirib, energiya samaradorligini 15% ga oshiradi. Xulosa qilib aytganda, komponovkalar sxemalarini ishlab chiqish uchun simulyatsiya texnologiyalarining qo‘llanilishi, transport vositalarining dizaynini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini soddalashtirish va xavfsizlikni oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. Bu texnologiyalar yordamida, ishlab chiqarish jarayonlari yanada iqtisodiy, samarali va xavfsizlikka mos bo‘lib, kelajakda kichik hajmli transport vositalarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Bu esa, shahar muhitida ekologik toza va energiya tejovchi transport echimlarini yaratishda asosiy rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ilarionov V.A. "Teoriya avtomobilya". - M.: Mashinostroyeniye, 1989.
2. Norov S.N. "Kichik hajmli transport vositalari konstruksiyasi". - Toshkent, 2021.
3. Gulyayev A.S. "Komponovka sovremennix legkovix avtomobiley". - SPb, 2018.

ISSN 3030-3907

4. International Standard ISO 2575:2010 "Road vehicles — Symbols for controls, indicators and tell-tales".
5. World Transport Statistics 2023. Annual Report.

ISSN 3030-3907

OLIY TA’LIM MUASSASALARI VA TALABALAR TURAR JOYLARIDA FACE ID BIOMETRIK TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA KIRISH–CHIQISH JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISH VA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING NAZARIY-ASOSLANGAN MODELI

G‘oyibberdiyev Abdullajon Mirzoxidovich,
Andijon davlat chet tillar intituti pedagogika psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: abdullajongoyibberdiyev199608@gmail.com
Tel: +998-99-996-49-23

The findings indicate that English proverbs prioritize concepts related to work, time management, and individual responsibility, reflecting a pragmatic and agency-oriented worldview. Uzbek proverbs, in contrast, foreground family relations, social harmony, and fate, revealing a collectivist orientation and a culturally embedded acceptance of destiny. These differences are not accidental but represent stable cognitive models shaped by historical, social, and cultural experience.

Theoretically, the study contributes to linguocognitive paremiology by demonstrating the effectiveness of integrating conceptual analysis with quantitative methods. Methodologically, it offers a replicable framework for cross-cultural proverb analysis that can be applied to other language pairs.

Practically, the results have implications for translation, foreign language teaching, and intercultural communication, where sensitivity to culturally specific conceptual models is essential. At the same time, the study has certain limitations, including the size of the proverb corpus and the focus on selected conceptual

ISSN 3030-3907

domains. Future research may expand the dataset, incorporate corpus-based tools, or explore diachronic changes in proverbial conceptualization.

In conclusion, the comparative linguocognitive analysis of English and Uzbek proverbs provides valuable insights into how language encodes cultural knowledge and cognitive patterns, confirming the role of proverbs as key indicators of linguistic worldview.

REFERENCES

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
2. Kövecses, Z. (2005). *Metaphor in Culture: Universality and Variation*. Cambridge University Press.
3. Kövecses, Z. (2010). *Metaphor: A Practical Introduction*. Oxford University Press.
4. Mieder, W. (2004). *Proverbs: A Handbook*. Greenwood Press.
5. Taylor, A. (1931). *The Proverb*. Harvard University Press.
6. Gibbs, R. W. (1994). *The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding*. Cambridge University Press.
7. Sharifian, F. (2017). *Cultural Linguistics: Cultural Conceptualisations and Language*. John Benjamins.
8. Wierzbicka, A. (1992). *Semantics, Culture, and Cognition*. Oxford University Press.
9. Langacker, R. W. (2008). *Cognitive Grammar: A Basic Introduction*. Oxford University Press.
10. Mieder, W. (2008). *Proverbs Speak Louder Than Words*. Peter Lang.

ISSN 3030-3907

ZAMONAVIY MULTIMEDIA VOSITALARI BILAN ISHLASH

Rahmatjonov Anvarjon Adhamjon o‘g‘li

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institute, Farg‘ona filiali “Sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasi” dotsent v.b.

E-mail: anvarjon.rahmatjonov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy multimedia vositalari bilan ishlashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Multimedia texnologiyalari ta’lim jarayonini interaktiv va vizual tarzda boyitadi, murakkab kontseptlarni tushunishni osonlashtiradi va bilimlarni uzoq muddat saqlashga yordam beradi. Shuningdek, multimedia vositalari kasbiy va ilmiy faoliyatda ham samarali qo‘llaniladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, multimedia vositalarini samarali ishlatish foydalanuvchi ehtiyojlariga, pedagogik yondashuvga va texnologik imkoniyatlarga bog‘liq.

Kalit so‘zlar: multimedia, interaktivlik, ta’lim, vizualizatsiya, ta’lim texnologiyalari, kasbiy faoliyat, ilmiy faoliyat, pedagogik yondashuv, virtual laboratoriya, 3D modellashtirish.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты работы с современными мультимедийными средствами. Мультимедийные технологии обогащают учебный процесс интерактивными и визуальными средствами, упрощают понимание сложных концепций и способствуют долговременному усвоению знаний. Кроме того, мультимедийные средства эффективно применяются в профессиональной и научной деятельности. Исследования показывают, что эффективное использование мультимедийных средств зависит от потребностей пользователей, педагогического подхода и технологических возможностей.

Ключевые слова: мультимедиа, интерактивность, обучение, визуализация, образовательные технологии, профессиональная деятельность, научная деятельность, педагогический подход, виртуальная лаборатория, 3D моделирование.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of working with modern multimedia tools. Multimedia technologies enrich the learning process with interactive and visual components, facilitate the understanding of complex concepts, and help retain knowledge for a long time. In addition, multimedia tools are effectively applied in professional and scientific activities. Research shows that the effective use of multimedia tools depends on user needs, pedagogical approaches, and technological capabilities.

Key words: multimedia, interactivity, education, visualization, educational technology, professional activity, scientific activity, pedagogical approach, virtual laboratory, 3D modeling.

Kirish.

Zamonaviy dunyoda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur’atlar bilan rivojlanishi ta’lim, ilm-fan va kasbiy faoliyatning turli sohalarida yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu jumladan, multimedia vositalari ham ma’lumotlarni etkazish, o‘rganish va interaktiv tajribani yaratishda muhim vosita sifatida e’tiborga molik. Multimedia texnologiyalari – bu matn, tasvir, audio va video elementlarini birlashtirgan interaktiv tizimlar bo‘lib, ularning yordamida murakkab kontseptlarni vizual va audial tarzda ifodalash mumkin. Zamonaviy multimedia vositalari bilan ishlash nafaqat ma’lumotlarni yetkazish sifatini oshiradi, balki foydalanuvchining e’tiborini jalb qilish, mustaqil o‘rganish va ijodiy faoliyatni rivojlantirish imkonini ham yaratadi.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimlarida multimediya vositalarining integratsiyasi global tendentsiyaga aylandi. Shu jumladan, raqamli ta’lim platformalari, interaktiv darsliklar, virtual laboratoriyalar va simulyatsion dasturlar multimedia asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, ular o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, vizual va audio komponentlar bilan boyitilgan materiallar o‘quv jarayonida bilimlarni uzoq muddat saqlash va tushunishni yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, multimedia vositalari murakkab kontseptlarni sodda va tushunarli shaklda taqdim etishga imkon beradi, bu esa o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Multimedia vositalarining samarali ishlatilishi nafaqat ta’lim jarayonida, balki kasbiy faoliyatda ham muhim ahamiyatga ega. Korporativ treninglar, prezentatsiyalar, onlayn seminarlar va masofaviy ta’lim platformalarida vizual va interaktiv materiallardan foydalanish xodimlar bilimini oshirish, ularni motivatsiyalash va malaka darajasini oshirishda katta rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, multimedia vositalari turli fanlararo loyihalarda – masalan, ilmiy tadqiqot, dizayn, arxitektura va muhandislik sohalarida – murakkab ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish va modellashtirishda keng qo‘llaniladi.

Zamonaviy multimedia vositalari bilan ishlash jarayonida texnologik va metodik jihatlar muhim rol o‘ynaydi. Birinchidan, foydalanuvchi uchun qulay va intuitiv interfeys mavjudligi, ikkinchidan esa kontentning sifatli, ilmiy asoslangan va interaktiv bo‘lishi talab etiladi. Shu sababli, multimedia vositalarini ishlab chiqish va tatbiq etishda pedagogik yondashuv, foydalanuvchi ehtiyojlarini hisobga olish va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash kabi jihatlar alohida e’tibor talab qiladi. Xususan, animatsiya, infografika, virtual reallik va interaktiv simulyatsiyalar kabi vositalar murakkab jarayonlarni vizual tarzda tushuntirishda

ISSN 3030-3907

katta foyda beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, multimedia vositalari bilan ishlash ko‘nikmasi zamonaviy jamiyatda shaxsning axborot savodxonligi va raqamli kompetensiyalarini oshirishning muhim qismi hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida ilmiy, ta’limiy va kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erishishga imkon yaratadi. Shu maqsadda multimedia texnologiyalarini o‘rganish va ularni samarali qo‘llash bilan bog‘liq metodik tavsiyalar, pedagogik yondashuvlar va texnologik yechimlarni tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada zamonaviy multimedia vositalari bilan ishlashning nazariy va amaliy jihatlari, ularning samaradorligini oshirish yo‘llari hamda ta’lim va kasbiy faoliyatda qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada multimediya texnologiyalarining afzalliklari, ishlash metodikasi, pedagogik va texnologik jihatlari, shuningdek, ularni samarali qo‘llash tajribalari ilmiy asosda yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy multimedia vositalari bilan ishlash masalasi bugungi kunda nafaqat ta’lim, balki kasbiy va ilmiy faoliyatlarda ham keng o‘rganilmoqda. Multimedia texnologiyalari – matn, audio, video, grafik va animatsion elementlarni birlashtirgan interaktiv vositalar bo‘lib, ular foydalanuvchiga murakkab ma’lumotlarni tushunishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, vizual va audial kontentning uyg‘unligi o‘rganish jarayonini sezilarli darajada samaraliroq qiladi (Mayer, 2009). Xalqaro tadqiqotlarda multimedia vositalarining ta’lim jarayonidagi samaradorligi ko‘plab tajribalar orqali isbotlangan. Masalan, Clark va Mayer (2016) o‘zlarining ishlarida multimediya asosida taqdim etilgan dars materiallari o‘quvchilarning bilimni uzoq muddat saqlashini yaxshilashini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, multimediya vositalari interaktivlikni oshirish orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida video va animatsiyalar bilan boyitilgan materiallar an’anaviy matnli darsliklarga nisbatan 30-50% samaraliroq natija beradi (Moreno & Mayer, 2007).

Zamonaviy multimedia vositalari bilan ishlash jarayonida texnologik va metodik jihatlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Shuni ta’kidlash joizki, multimedia vositalarini samarali qo‘llash nafaqat ularning texnologik imkoniyatlariga, balki pedagogik yondashuvlarga ham bog‘liq. Polat (2018) multimedia vositalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilishda o‘quv materialining vizualizatsiyasi, interaktivligi va foydalanuvchi ehtiyojlariga mosligi muhimligini qayd etadi. Shu ma’noda, multimedia vositalarini ishlab chiqishda metodik tavsiyalarni hisobga olish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Multimedia vositalarining kasbiy va ilmiy faoliyatda qo‘llanishi ham alohida o‘rganilgan. Masalan, arxitektura, muhandislik, dizayn va tibbiyot sohalarida 3D modellashtirish, virtual reallik va interaktiv simulyatsiyalar yordamida murakkab jarayonlarni vizualizatsiya qilish imkoniyati mavjud (Bacca et al., 2014). Shu bilan

ISSN 3030-3907

birga, korporativ treninglar va masofaviy ta’lim platformalarida multimediya asosida ishlab chiqilgan materiallar xodimlarning bilim darajasini oshirish va motivatsiyasini kuchaytirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi (Salmon, 2000).

O‘zbekiston kontekstida multimedia vositalarining ta’lim va kasbiy faoliyatda qo‘llanishi bo‘yicha tadqiqotlar ham mavjud. Masalan, Qo‘chqorov (2020) multimediya vositalarini pedagogik jarayonga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning o‘rganish motivatsiyasini oshirish va bilimni mustahkamlash imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, turli ilmiy ishlar multimediya vositalarini interaktiv darsliklar, virtual laboratoriyalar va animatsion modullar orqali qo‘llashning afzalliklarini yoritadi (Ergashev, 2019). Bundan tashqari, multimedia vositalari bilan ishlash ko‘nikmasi shaxsning raqamli savodxonligi va axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, multimedia asosida ta’lim olgan o‘quvchilar axborotni tezkor qabul qilish, uni tahlil qilish va ijodiy yechimlar ishlab chiqish bo‘yicha yuqori natijalarga erishadi (Prensky, 2001). Shu nuqtai nazardan, multimedia vositalarini o‘rganish va ulardan samarali foydalanish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Shuni ham qayd etish joizki, multimedia vositalari bilan ishlashda bir qator qiyinchiliklar ham mavjud. Masalan, kontentni sifatli tayyorlash, texnologik jihozlar bilan ishlash, interaktiv elementlarni pedagogik jihatdan to‘g‘ri qo‘llash talab etiladi. Ba’zi tadqiqotlarda multimedia vositalarining noto‘g‘ri qo‘llanilishi o‘quvchilarda e’tiborning tarqalishi va chalg‘ituvchi elementlar paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkinligi ko‘rsatilgan (Mayer & Moreno, 2003). Shu sababli, multimedia vositalarini ishlab chiqishda foydalanuvchi ehtiyojlari, pedagogik yondashuv va texnologik imkoniyatlar birgalikda hisobga olinishi zarur. Umuman olganda, xalqaro va mahalliy adabiyotlar multimedia vositalari bilan ishlashning afzalliklari, metodik yondashuvlari, texnologik jihatlari va qo‘llanish sohalarini keng qamrovda yoritgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, multimedia vositalari murakkab kontseptlarni sodda va tushunarli shaklda taqdim etish, interaktiv o‘rganish jarayonini yaratish, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, multimediya texnologiyalari kasbiy faoliyatda ham innovatsion yechimlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy multimedia vositalari bilan ishlash nafaqat ilmiy va ta’limiy, balki kasbiy faoliyatning ham ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bois, multimediya vositalarini samarali qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish, ularning pedagogik va texnologik jihatlarini o‘rganish,

ISSN 3030-3907

shuningdek, foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashtirilgan kontent yaratish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Tadqiqot muhokamasi. Zamonaviy multimedia vositalari bilan ishlashning samaradorligini tadqiq etish jarayonida bir qator muhim jihatlar aniqlanadi. Avvalo, multimediya texnologiyalari o‘quv jarayonini interaktiv va vizual tarzda boyitish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quv materialining matn, audio, video va animatsiya komponentlarini uyg‘unlashtirish bilimlarni mustahkamlashga va murakkab kontseptlarni tushunishni osonlashtirishga yordam beradi. Masalan, Mayer va Moreno (2007) olib borgan eksperimentlarda multimedia asosida taqdim etilgan dars materiallari an’anaviy matnli materiallarga nisbatan o‘quvchilar tomonidan yaxshiroq qabul qilingan va bilimlarni uzoq muddat saqlashga yordam bergani ko‘rsatildi. Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, multimedia vositalari bilan ishlashda interaktivlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Interaktiv elementlar o‘quvchilarga tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, muammolarni mustaqil hal qilish va ijodiy yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, multimedia vositalarining samaradorligi foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashtirilish bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, foydalanuvchi darajasiga mos kelmagan murakkab animatsiyalar yoki ortiqcha vizual elementlar diqqatni chalg‘itishi va o‘rganish jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Shu sababli, tadqiqotlarda multimediya kontentini ishlab chiqishda pedagogik va metodik tavsiyalarni hisobga olish tavsiya etiladi (Clark & Mayer, 2016).

Kasbiy va ilmiy faoliyat doirasida multimedia vositalarining qo‘llanilishi ham alohida tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 3D modellashtirish, virtual reallik, interaktiv simulyatsiyalar va animatsion modullar yordamida murakkab jarayonlar vizual tarzda tushuntiriladi, bu esa xodimlar va talabalar bilimini oshirish va ularning malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi (Bacca et al., 2014). Shu bilan birga, korporativ treninglar va masofaviy ta’lim platformalarida multimedia asosida ishlab chiqilgan materiallar xodimlarning motivatsiyasini oshirish va bilimni mustahkamlashda samarali vosita bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv va vizual jihatdan boyitilgan ta’lim modullari an’anaviy darsliklarga nisbatan 20-40% samaraliroq natija beradi.

O‘zbekiston sharoitida olib borilgan tadqiqotlar ham multimedia vositalari bilan ishlashning pedagogik va texnologik afzalliklarini tasdiqlaydi. Masalan, Qo‘chqorov (2020) multimediya vositalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va bilimlarni mustahkamlash imkoniyatlarini qayd etadi. Ergashev (2019) esa multimediya vositalarining interaktiv darsliklar, virtual laboratoriyalar va animatsion modullar orqali o‘quv jarayonini soddalashtirish va samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

ISSN 3030-3907

Bu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, multimedia vositalari o‘quv jarayonini boyitish va samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan birgalikda qo‘llanilganda yuqori natija beradi. Tadqiqot davomida multimedia vositalari bilan ishlashning qiyinchiliklari ham aniqlangan. Masalan, kontentni sifatli tayyorlash, texnologik jihozlardan samarali foydalanish, interaktiv elementlarni pedagogik jihatdan to‘g‘ri qo‘llash kabi masalalar mavjud. Mayer va Moreno (2003) multimedia vositalarining noto‘g‘ri ishlatilishi o‘quvchilarda e’tiborning tarqalishi va chalg‘ituvchi elementlar paydo bo‘lishiga olib kelishini ko‘rsatadi. Shu sababli, tadqiqot natijalari multimedia vositalarini ishlab chiqish va tatbiq etishda foydalanuvchi ehtiyojlarini, pedagogik yondashuvni va texnologik imkoniyatlarni birgalikda hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, tadqiqotlar multimedia vositalarining shaxsning raqamli savodxonligi va axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sirini tasdiqlaydi. Multimedia asosida ta’lim olgan o‘quvchilar axborotni tez qabul qilish, uni tahlil qilish va ijodiy yechimlar ishlab chiqish bo‘yicha yuqori ko‘nikmalarga ega bo‘ladi (Prensky, 2001). Shu ma’noda, multimedia vositalari bilan ishlash ko‘nikmasi nafaqat bilim olish, balki kasbiy va ilmiy faoliyatda ham zamonaviy talablarga javob beradigan kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot muhokamasi shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy multimedia vositalari bilan ishlashning samaradorligi bir qator omillarga bog‘liq: kontentning sifatli va ilmiy asoslanganligi, interaktivlik darajasi, foydalanuvchi ehtiyojlariga mosligi va pedagogik yondashuvlarning hisobga olinishi. Shu bilan birga, multimedia vositalari murakkab kontseptlarni sodda va tushunarli shaklda taqdim etish, o‘quv jarayonini boyitish, tanqidiy fikrlash va ijodiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot muhokamasi multimedia vositalarining nafaqat ta’lim, balki kasbiy va ilmiy faoliyatda qo‘llanishi muhim ekanligini, ularni ishlab chiqish va tatbiq etishda metodik, pedagogik va texnologik jihatlarni birgalikda hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Shu asosda, multimedia vositalarini samarali qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish va tajribaviy sinovlar o‘tkazish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa sifatida e’tiborga molik.

Xulosa. Ushbu maqolada zamonaviy multimedia vositalari bilan ishlashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, multimedia texnologiyalari o‘quv jarayonini interaktiv va vizual tarzda boyitib, murakkab kontseptlarni tushunishni osonlashtiradi hamda bilimlarni uzoq muddat saqlashga yordam beradi. Interaktiv elementlar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammolarni mustaqil hal qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, multimedia vositalari kasbiy va ilmiy faoliyatda ham samarali qo‘llanilmoqda. 3D modellashtirish, virtual reallik va animatsion

ISSN 3030-3907

simulyatsiyalar murakkab jarayonlarni vizualizatsiya qilish imkonini beradi va xodimlarning bilim va malakasini oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, multimedia vositalarini samarali qo‘llash foydalanuvchi ehtiyojlariga, pedagogik yondashuvga va texnologik imkoniyatlarga bog‘liq.

O‘zbekiston va xorijiy tadqiqotlar multimedia vositalarining afzalliklarini, interaktivlik va vizual boyitishni ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, kontent sifatini ta’minlash va metodik tavsiyalarni hisobga olish zarur. Umuman olganda, multimedia vositalari bilan ishlash nafaqat ta’lim, balki kasbiy va ilmiy faoliyatning zamonaviy talablariga javob beradigan muhim kompetensiya hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bacca, J., Baldiris, S., Fabregat, R., Graf, S., & Kinshuk. (2014). Augmented Reality Trends in Education: A Systematic Review of Research and Applications. Educational Technology & Society, 17(4), 133–149.
2. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). E-learning and the Science of Instruction: Proven Guidelines for Consumers and Designers of Multimedia Learning. 4th Edition. Wiley.
3. Ergashev, T. (2019). Multimedia Vositalaridan Ta’lim Jarayonida Foydalanish. Tashkent: O‘qituvchi nashriyoti.
4. Mayer, R. E. (2009). Multimedia Learning. 2nd Edition. Cambridge University Press.
5. Mayer, R. E., & Moreno, R. (2003). Nine Ways to Reduce Cognitive Load in Multimedia Learning. Educational Psychologist, 38(1), 43–52.
6. Moreno, R., & Mayer, R. E. (2007). Interactive Multimodal Learning Environments. Educational Psychology Review, 19(3), 309–326.
7. Polat, N. (2018). Pedagogical Approaches to Multimedia Integration in Education. Journal of Educational Technology Studies, 12(2), 45–59.
8. Prensky, M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants. On the Horizon, 9(5), 1–6.
9. Qo‘chqorov, A. (2020). Multimedia Vositalarining Ta’lim Jarayonidagi Samardorligi. Tashkent: Fan va Ta’lim nashriyoti.
10. Salmon, G. (2000). E-moderating: The Key to Teaching and Learning Online. Kogan Page.

ISSN 3030-3907

O‘ZBEKISTON ENERGETIKA TIZIMIDA PODSTANSIYALARNI MODERNIZATSIYALASH JARAYONLARI
(Farg‘ona podstansiyasi misolida)

A.X.Eraliyev
Farg‘ona davlat texnika universiteti dotsent
S.Esajonova
Farg‘ona davlat texnika universiteti 46-23 E guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston energetika tizimida podstansiyalarni modernizatsiya qilishning dolzarbligi, texnik-texnologik yangiliklar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari yoritilgan. Tadqiqot Farg‘ona podstansiyasi misolida amalga oshirilgan bo‘lib, unda transformatorlar, kommutatsiya apparatlari, himoya-avtomatika vositalari va dispetcherlik boshqaruvi modernizatsiyasi bo‘yicha tahlillar keltiriladi. Modernizatsiya jarayonlarining iqtisodiy samaradorligi hamda energiya ta’minoti ishonchliligiga ta’siri o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: podstansiya, modernizatsiya, Farg‘ona, energiya tizimi, raqamlashtirish, himoya avtomatikasi, dispetcherlik boshqaruvi, transformator, SCADA, ishonchlilik.

Аннотация: В данной статье рассмотрены процессы модернизации подстанций в энергетической системе Узбекистана, а также их актуальность в условиях роста энергопотребления и интеграции возобновляемых источников энергии. На примере Ферганской подстанции проведён анализ технического состояния оборудования, выполненных модернизационных мероприятий, внедрения цифровых систем управления и их влияния на надёжность и эффективность энергоснабжения региона.

Ключевые слова: подстанция, модернизация, Фергана, энергетическая система, цифровизация, релейная защита, диспетчерское управление, трансформатор, SCADA, надёжность.

Abstract: This article examines the modernization processes of substations within Uzbekistan’s power system and highlights their importance in the context of increasing electricity demand and the integration of renewable energy sources. Using the Fergana substation as a case study, the paper analyzes the technical condition of equipment, implemented modernization measures, the introduction of digital control systems, and their impact on the reliability and efficiency of regional power supply.

Keywords: substation, modernization, Fergana, power system, digitalization, relay protection, dispatch control, transformer, SCADA, reliability.

Kirish

ISSN 3030-3907

O‘zbekiston energetika tizimi so‘nggi yillarda sezilarli o‘zgarishlar va islohotlarni boshdan kechirmoqda. Mamlakatda elektr energiyasiga bo‘lgan talabning ortishi, sanoatning kengayishi, aholi turmush darajasining o‘sishi va qayta tiklanuvchi energiya manbalarining tarmoqqa ulanishi mavjud podstansiyalarni har tomonlama modernizatsiya qilishni taqozo etmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida energetika tizimini modernizatsiyalash va energiya samaradorligini oshirish davlat miqyosida ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash jarayonlarining barqarorligi bevosita podstansiyalar holatiga bog‘liq. Bugungi kunda mamlakat bo‘yicha yuzlab podstansiyalar 30–40 yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda va ularning aksariyati jismonan ham, ma’nan ham eskirgan. Shu sababli podstansiyalarni modernizatsiyalash — bu nafaqat texnik, balki iqtisodiy va strategik zaruratdir.

Ilmiy prognozga ko‘ra, global talab elektr energiyasi bo‘yicha esa 2050-yilga borib 80 foizga o‘sishi kutilmoqda bu talabni qondirish, shu bilan birga issiqxona gazlarini kamaytirish chiqindilar va qazib olinadigan yoqilg‘iga qaramlik, ko‘plab mamlakatlar va hududlar ulushni oshirish bo‘yicha katta marralarni belgilab olgan. elektr energiyasini ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi energiya manbalari aralashtirmoq Masalan, Yevropa Ittifoqi 2030-yilga borib qayta tiklanadigan energiyaning 32 foizi, Xitoyda esa 2030-yilga borib 35 foizga, 2050-yilga borib esa 80 foizga yetkaziladi.

Qayta tiklanadigan energiya manbalari — masalan, quyosh va shamol — an’anaviy energiya manbalariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Jumladan, ular past ekspluatatsiya xarajatlariga ega, atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytiradi hamda energiya xavfsizligi va resurslarning xilma-xilligini oshiradi.

Biroq, yashil energiya manbalari elektr tarmog‘i uchun bir qator muhim texnik muammolarni ham keltirib chiqaradi. Sababi, ularning ishlab chiqarishi o‘zgaruvchan, prognozlash qiyin va davriy xarakterga ega. Ushbu xususiyatlar tarmoqning barqarorligi, ishonchliligi hamda quvvat sifati ko‘rsatkichlariga, ayniqsa, ulardan foydalanish darajasi yuqori bo‘lganda sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Barqarorlik deganda energiya tizimining normal yoki avariya holatlarida sinxronizmni va quvvat muvozanatini saqlab qolish qobiliyati tushuniladi. Yuqori sifatli elektr energiyasiga bo‘lgan talab esa tizim barqarorligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Bu esa transport sohasida, shuningdek kuch transformatorlari va boshqa energetik uskunalarni loyihalashda yangi texnologiyalarni joriy etishni talab etadi.

Hozirgi vaqtda elektr qurilmalariga qo‘yiladigan talablar va ularning faoliyati tobora kuchayib bormoqda. Shuning uchun yangi energetika obyektlarini

ISSN 3030-3907

loyihalashtirishda nafaqat bilishni talab qiladi, balki fan va texnikaning eng so‘nggi yutuqlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish talab qilinmoqda. Afsuski, eskirgan uskunalar ulushi hali ham ishlatilmoqda, bu esa elektr energiyasini iste’molchilarga sifatli etkazib berishda hamda elektr qurilmalarini tez ishdan chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Podstansiyalar elektr energiyasini transformatsiyalash, uzatish va taqsimlashda asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. Ularning ishonchli ishlashi butun energetika tizimining samarali faoliyatini belgilab beradi. Shu nuqtai nazardan, Farg‘ona vodiysi hududidagi yirik podstansiyalardan biri bo‘lgan **Farg‘ona podstansiyasining modernizatsiya jarayonlarini o‘rganish** amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Podstansiya — bu elektr energiyasini bir kuchlanish darajasidan boshqasiga o‘zgartiruvchi, taqsimlovchi va himoya qiluvchi texnik majmua hisoblanadi. Energetik tizimning samaradorligi va ishonchliligi ko‘p jihatdan podstansiyalarning texnik holatiga bog‘liq. Podstansiyalarning asosiy funksiyalari shundaki, elektr energiyasini transformatsiyalash; elektr tarmoqlariga uzatish va taqsimlash; himoya, avtomatika va boshqaruvni amalga oshirish; tarmoq barqarorligini ta’minlash; iste’molchilarni uzluksiz energiya bilan ta’minlashdan iborat.

Shu boisdan, eskirgan podstansiyalar energiya tizimi uchun xavf tug‘diradi: avariyalar, kuchlanish pasayishi, yo‘qotishlar va iqtisodiy zararlar kuchayadi

Oxirgi yillarda O‘zbekiston hukumati tomonidan energetika sohasini modernizatsiya qilish bo‘yicha qator strategik dasturlar qabul qilindi. Ularning asosiy yo‘nalishlari eskirgan transformator va kommutatsiya uskunalarini yangilash, raqamlashtirilgan boshqaruv va monitoring tizimlarini joriy etish, elektr tarmoqlari yuklanishini optimallashtirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini integratsiya qilish, avtomatlashtirilgan himoya vositalarini takomillashtirishdan iborat. Bu jarayonlarda “O‘zbekiston Milliy Elektr Tarmoqlari” AJ va “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ muhim rol o‘ynaydi.

Farg‘ona podstansiyasi vodiy mintaqasining elektr ta’minotida asosiy tugun vazifasini bajaradi. U quyidagi texnik ko‘rsatkichlarga ega:

- Kuchlanish darajalari: 220/110/10 kV;
- Ikkilamchi transformatsiya bosqichlari;
- Yirik sanoat korxonalari va iste’molchilar tarmog‘iga ulanish;
- Avtomatlashtirilgan dispetcherlik tizimi mavjud.

Podstansiya 1970–1980-yillarda qurilgan bo‘lib, 2010-yillarga kelib texnik eskirish darajasi 65–70% ga yetgan edi.

220/110/10 kVli “Farg‘ona” podstansiyasi asosan Marg‘ilon shahrini hamda Farg‘ona shahrining ayrim hududlarini podstansiyadan chiquvchi 8 ta elektr uzatish

ISSN 3030-3907

tarmoqlari orqali elektr energiyasi bilan ta’minlaydi. Ushbu podstasiya bugungi kunda to‘liq modernizatsiya qilingan bo‘lib, 220/110 kV va 110/35 kV kuch transformatorlari yangi, yuqori samarali modellarga almashtirildi. Transformator moyi monitoringi uchun onlayn laboratoriya joriy qilindi va izolyatsiya diagnostikasi IoT sensorlar orqali amalga oshirilmoqda.

Elektr energetika tizimida kuch transformatorlari ishonchli ishlashining asosiy shartlaridan biri — ularning izolyatsiya holatini doimiy nazorat qilishdir. Bu jarayonda transformator moyi muhim diagnostik vosita hisoblanadi. Transformator moyi nafaqat sovitish vazifasini bajaradi, balki elektr izolyatsiya muhiti sifatida ham xizmat qiladi. Shu sababli moy holatini monitoring qilish transformatorning texnik ahvolini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy monitoring texnologiyalarini joriy etish orqali transformatorlarning texnik holatini real vaqt rejimida nazorat qilish, nosozliklarni erta aniqlash va ularning oldini olish imkoniyati yaratiladi. Natijada energetik tizimning uzluksizligi, xavfsizligi va iqtisodiy samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Podstansiya kommutatsiya apparatlari modernizatsiyasida moyli ajratkichlar vakuumli va gazli (SF_6) apparatlar bilan almashtirildi, zamonaviy mikroprotsessorli boshqaruv bloklari o‘rnatildi va avariya o‘chirish tezligi 2–3 baravar oshirildi.

Hozirgi kunda elektr energetika tizimlarining ishonchliligi va samaradorligini oshirishda podstansiyalardagi kommutatsiya apparatlarini modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, an’anaviy elektromexanik rele va boshqaruv qurilmalarini zamonaviy **mikroprotsessorli boshqaruv bloklari (MPBB)** bilan almashtirish texnik-iqtisodiy jihatdan samarali yechim hisoblanadi.

Podstansiya kommutatsiya apparatlarini zamonaviy mikroprotsessorli boshqaruv bloklari bilan jihozlash elektr energetika tizimini modernizatsiya qilishning muhim bosqichi hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar nafaqat texnik ishonchlilikni oshiradi, balki energiya samaradorligini ta’minlab, zamonaviy raqamli energetika tizimiga o‘tishni jadallashtiradi.

Himoya avtomatikasi va releni modernizatsiya qilishda esa, elektromexanik relelar raqamli relelar bilan almashtirildi hamda masofaviy diagnostika, registratsiya va jurnalizatsiya tizimi joriy qilindi, yangi relelar tezkorlik, sezgirlik va funksionallik jihatidan ancha ustun bo‘lib xizmat qilmoqda. Masofadan boshqarishda **SCADA tizimining joriy etilib, r**eal vaqt rejimida monitoringi, uskunalar holatini onlayn nazorat qilishi va dispetcherlik jarayonlarining avtomatlashtirilishi yo‘lga qo‘yilgan.

ISSN 3030-3907

Shu bilan birga, birinchi toifadagi sanoat iste’molchilarini ishonchli elektr energiyasi bilan ta’minlaydigan eng ishonchli elektr qurilmasini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarning to‘liq to‘plami keltirilgan. Sxema yechimlarini belgilovchi hamda asbob-uskunalarni tanlashda asosiy mezonlar quyidagilardan iborat: yuqori ishonchlilik, xavfsizlik, moslashuvchanlik, ekologik tozalik, uzilishlar vaqtining minimal bo‘lishi, foydalanish va texnik xizmat ko‘rsatish qulayligi, tizimning boshqa tarkibiy qismlari bilan to‘liq moslik, shuningdek kelajakda sxemani o‘zgartirish imkoniyati.

Elektr energetika tizimida modernizatsiya jarayonlari, ayniqsa podstansiyalar va elektr qurilmalarini zamonaviy texnologiyalar asosida yangilash, nafaqat texnik ishonchlilikni oshiradi, balki yuqori iqtisodiy samaradorlikni ham ta’minlaydi. Zamonaviy mikroprotsessorli boshqaruv tizimlari, avtomatlashtirilgan monitoring vositalari va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish ekspluatatsiya xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi.

Ekspluatatsiya xarajatlarining kamayishida an’anaviy rele-himoya va mexanik boshqaruv tizimlari muntazam texnik xizmat va tez-tez ta’mirlashni talab qiladi. Mikroprotsessorli qurilmalar esa xizmat ko‘rsatish oralig‘ini uzaytiradi, ehtiyot qismlar sarfini kamaytiradi va inson omiliga bog‘liq xatolarni qisqartiradi. Bu esa yillik ekspluatatsiya xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi.

Hozirgi vaqtda elektr qurilmalarida qo‘llaniladigan ilg‘or texnologiyalar ushbu mezonlarning deyarli barchasiga to‘liq erishish imkonini bermoqda. Biroq, elektr energiyasiga bo‘lgan uzluksiz o‘sib borayotgan talab ishlab chiqarish quvvatlarining ko‘payishiga va natijada tarmoq elementlari orqali o‘tadigan toklarning ortishiga olib keladi. Shu sababli, ilgari o‘rnatilgan uskunalar issiqlik va dinamik barqarorlik talablari bo‘yicha zamonaviy standartlarga mos kelmasligi mumkin, chunki ularning nominal parametrlari hozirgi tok, kuchlanish yoki quvvat sig‘imi qiymatlaridan ancha past.

O‘zbekiston energetika tizimida podstansiyalarni modernizatsiya qilish energetika xavfsizligini ta’minlashning asosiy omillaridan biridir. Farg‘ona podstansiyasida olib borilgan modernizatsiya ishlari nafaqat mintaqa iste’molchilarini barqaror energiya bilan ta’minlashga, balki tizimning iqtisodiy samaradorligini oshirishga ham xizmat qildi. Raqamlashtirish, himoya avtomatikasini takomillashtirish, zamonaviy transformator va kommutatsiya uskunalarini joriy etish O‘zbekiston energetika tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqmoqda. Shu bilan birga uzluksiz elektr energiyasi bilan iste’molchilarni elektr energiyasi bilan ta’minlash va elektr qurilma hamda jihozlarni uzoq muddat ishlashiga sharoit yaratmoqda.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. “Elektr energetika tarmog‘ini modernizatsiyalash dasturi – 2030.” Toshkent, 2023.
2. “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ. “Podstansiyalarni raqamlashtirish va SCADA tizimlarini joriy etish bo‘yicha hisobot.” Toshkent, 2022.
3. Karimov A., Xudoyberdiyev Sh. “Elektr energetikasi tizimlarida avtomatlashtirish va raqamlashtirish.” – Toshkent: Energiya nashriyoti, 2021.
4. International Energy Agency (IEA). “Digitalization and the Future of Power Systems.” – Paris, 2023.

ISSN 3030-3907

YUQORI KUCHLANISHLI PODSTANSIYALARDA KOMMUTATSIYA APPARATLARINING O‘RNI

A.X.Eraliyev
Farg‘ona davlat texnika unversiteti dotsent
A.SH.Ismoilov
Farg‘ona davlat texnika unversiteti 46-23E guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yuqori kuchlanishli podstansiyalarda qo‘llaniladigan kommutatsiya apparatlarining vazifasi, tuzilishi va ahamiyati yoritilgan. Kommutatsiya apparatlariga ajratgichlar, o‘chirgichlar, transformatorlar va boshqa himoya hamda boshqaruv qurilmalariham kiritilgan. Ularning to‘g‘ri tanlanishi elektr tarmog‘ining barqaror va ishonchli ishlashlari ko‘rib chiqilgan.Maqolada shuningdek, komutatsiyon appartlarning kamchiliklari va avzaliklari keltirib otilgan.

Kalit so‘zlar: Ajratgich, o‘chirgich, transformator, kommutatsiya apparatlari, podstansiya, himoya qurilmalari.

Аннотация: В данной статье рассмотрены функции, конструкция и значение коммутационных аппаратов, применяемых на высоковольтных подстанциях. К коммутационным аппаратам относятся разъединители, выключатели, трансформаторы, а также другие устройства защиты и управления. Показано, что правильный выбор этих аппаратов обеспечивает стабильную и надежную работу электрической сети. Кроме того, в статье приведены преимущества и недостатки коммутационных аппаратов.

Ключевые слова: Разъединитель, выключатель, трансформатор, коммутационные аппараты, подстанция, защитные устройства.

Abstract: This article discusses the functions, structure, and importance of switching devices used in high-voltage substations. Switching devices include disconnectors, circuit breakers, transformers, and other protection and control equipment. The article highlights that the proper selection of these devices ensures the stable and m reliable operation of the power network. In addition, the advantages and disadvantages of switching devices are also presented.

Keywords: Disconnector, ctrucebreaker, transformer, switching devices, substation, protective devices.

Kirish

Yuqori kuchlanishli podstansiyalar elektr energiyasini ishlab chiqarish manbalaridan iste’molchilargacha yetkazib berish jarayonida muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Ular elektr energiyasining kuchlanish darajasini o‘zgartirish, uzatish tarmoqlari o‘rtasida taqsimlash hamda energetik tizimning barqaror ishlashini ta’minlash vazifasini bajaradi. Mazkur podstansiyalarda qo‘llaniladigan kommutatsiya apparatlari esa elektr zanjirlarini ulash va uzish, avariya holatlarida

ISSN 3030-3907

tokni tezkor o‘chirish, shuningdek, himoya va avtomatika tizimlari bilan birgalikda ishlash orqali uskuna va tarmoqlarning xavfsizligini ta’minlaydi.

Kommutatsiya apparatlarining to‘g‘ri tanlanishi ularning nominal kuchlanish, tok, qisqa tutashuvga chidamlilik hamda ekspluatatsion sharoitlarga mos bo‘lishiga bog‘liq. Ushbu apparatlarning ishonchli ishlashi elektr energiyasi uzatishdagi uzilishlarning oldini olish, texnologik jarayonlarning uzluksizligini ta’minlash va avariya holatlarining salbiy oqibatlarini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, zamonaviy yuqori kuchlanishli podstansiyalarda mikroprotsessorli rele himoyasi va avtomatika tizimlari bilan uyg‘unlashgan kommutatsiya qurilmalaridan foydalanish energiya ta’minoti ishonchliligini yanada oshiradi hamda ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Kommutatsiya apparatlari elektr zanjirlarini ulash, uzish, normal va avariya rejimlarida boshqarish, tarmoqlarni himoya qilish hamda servis ishlarini xavfsiz amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli yuqori kuchlanishli podstansiyalarning samaradorligi, energiya ta’minoti ishonchliligi va avariya xavfsizligi to‘g‘ridan to‘g‘ri kommutatsiya apparatlarining konstruktiv mukammalligi va ishlash ishonchliligiga bog‘liq [1].

Bugungi O‘zbekistonning energetika tizimi 110 kV, 220 kV, 500 kV kuchlanishli podstansiyalar orqali ishlaydi. Mamlakat bo‘yicha ularning soni yil sayin oshmoqda, chunki: yuklamalar ko‘paygan, yangi sanoat zonalari ochilmoqda, uy-joylar, yangi massivlar ko‘payganligi uchun “Yangi O‘zbekiston” energiya strategiyasi qabul qilingan.

O‘zbekistondagi eng muhim o‘zgarishlar: 500 kV lik magistral tarmoqlar yangilanmoqda. Masalan: 500 kV Sirdaryo–Toshkent, 500 kV Navoi–Samarqand, 500 kV Surxondaryo–Afg‘oniston liniyasi. Bu liniyalar orqali katta quvvatlar uzatiladi va import-eksport yo‘lga qo‘yiladi.

So‘nggi yillarda quyidagi yirik podstansiyalar ishga tushdi: 500 kV “Surxon” podstansiyasi 220 kV “Qo‘qon-2” podstansiyasi, 220 kV Qoraqalpog‘iston podstansiyasi, 220 kV “G‘uzor–Surxon” podstansiyalari modernizatsiya qilingan. Ular to‘liq raqamlashtirilgan, SCADA tizimiga ulangan va masofadan boshqariladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi izchil oshib bormoqda. Xususan, Navoiy, Buxoro, Qoraqalpog‘iston va Jizzax viloyatlarida barpo etilayotgan yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari mamlakat energetika balansida muhim o‘rin egallamoqda. Mazkur stansiyalarda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi uzoq masofalarga uzatilishi uchun kuchlanish darajasi yuqori qiymatlarga ko‘tariladi, bu esa mavjud podstansiyalarni modernizatsiya qilish va yangi yuqori kuchlanishli podstansiyalarni qurishni taqozo etmoqda.

ISSN 3030-3907

Elektr yuklamalarining keskin ortishi natijasida elektr tarmoqlari kengaytirilmoqda. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysi, Toshkent shahri hamda Sirdaryo–Guliston hududlari yuklama jihatidan eng faol hududlar sifatida ajralib turmoqda. Ushbu hududlarda ko‘plab yangi 110 kV va 220 kV kuchlanishli podstansiyalar qurilib, foydalanishga topshirilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston energetika tizimida zamonaviy kommutatsiya apparatlariga bo‘lgan talab juda yuqori. Ayniqsa, yuqori kuchlanishli podstansiyalarda SF_6 gazli o‘chirgichlar asosiy o‘rinni egallamoqda. Hozirgi vaqtda 220 kV va 500 kV kuchlanishli podstansiyalarning deyarli barchasi SF_6 gazli o‘chirgichlar bilan jihozlanmoqda. Kommutatsiya apparatlari elektr zanjirlarini ulash va uzish, tok va kuchlanishni boshqarish, avariya holatlarini aniqlash va tezkor ajratish, shuningdek, elektr qurilmalarini va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarni himoya qilish uchun mo‘ljallangan. Ular elektr ta’minoti tizimining ishonchli, uzluksiz va xavfsiz ishlashini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Podstansiyalarda qo‘llaniladigan kommutatsiya apparatlari elektr tarmoqlarini ishga tushirish va to‘xtatish, avariya holatlarini avtomatik tarzda ajratish hamda profilaktik va ta’mirlash ishlarini xavfsiz olib borish imkonini yaratadi. Agar bunday apparatlar mavjud bo‘lmasa, tarmoqlarda qisqa tutashuvlar, kuchlanish tebranishlari yoki ortiqcha yuklamalar natijasida yirik energetik avariyalar yuzaga kelishi mumkin [2].

Yuqori kuchlanishli podstansiyalarda qo‘llaniladigan kommutatsiya apparatlari asosan o‘chirgichlar hisoblanadi. Ular vakuumli, havo va gazli (SF_6) turlarga bo‘linadi. O‘chirgichlar elektr zanjirini yuklama ostida ham uzish qobiliyatiga ega bo‘lgan muhim qurilmalardir.

Vakuumli o‘chirgichlar yuqori kuchlanishli tizimlarda keng qo‘llanilib, uzoq xizmat muddati, yuqori ishonchliligi va ekologik xavfsizligi bilan ajralib turadi. Ularning xizmat muddati odatda 20–25 yilni tashkil etadi. Vakuumli o‘chirgichlarda kontaktlar vakuum muhitida joylashgan bo‘lib, uzilish jarayoni aynan shu muhitda sodir bo‘ladi. Vakuumda atom va molekulalar soni juda kam bo‘lgani sababli ionlanish darajasi past bo‘ladi va hosil bo‘lgan elektr yoyi (duga) juda qisqa vaqt ichida, ya’ni 1–2 millisekund davomida o‘chadi.

Vakuumli o‘chirgichlar asosan 6–10 kV kuchlanishli tarmoqlarda, shuningdek, 20 kV va 35 kV gacha bo‘lgan podstansiyalarda, sanoat korxonalari, transformator punktlari hamda taqsimlash va ta’minot podstansiyalarida keng qo‘llaniladi. Ushbu o‘chirgichlarning asosiy qismlariga vakuum kamerasi, harakatlanuvchi va qo‘zg‘almas kontaktlar, mexanik uzgich mexanizmi, izolyatsiya qobig‘i hamda yoyni o‘chirish tizimi kiradi. Kontaktlar odatda mis-xrom qotishmalaridan tayyorlanib, yuqori toklar ta’sirida erib ketmasligi uchun maxsus materiallardan foydalaniladi.

ISSN 3030-3907

Vakuumli o‘chirgichlarning afzalliklariga juda tez uzish qobiliyati, ekologik xavfsizligi, texnik xizmatga ehtiyoj sezmasligi, yuqori ishonchliligi va 10 ming martadan ortiq kommutatsiya amallarini muammosiz bajarish imkoniyati kiradi. Bundan tashqari, ularning ichida moy yoki gaz mavjud emasligi sababli portlash xavfi juda past. Biroq, 35 kV dan yuqori kuchlanishlarda vakuumli o‘chirgichlarni ishlab chiqarish texnologik jihatdan murakkab bo‘lib, ularning narxi moyli o‘chirgichlarga nisbatan qimmatroq hisoblanadi.

Shu bilan birga, vakuumli o‘chirgichlar 6–10 kV kuchlanishli podstansiyalarda, transformator tomonidagi asosiy o‘chirgich sifatida hamda avtomatlashtirilgan rele himoyasi va avtomatika (RZA) tizimlarida keng qo‘llanilib, zamonaviy elektr ta’minoti tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Moyli o‘chirgichlar elektr tarmoqlarida tokni ulash va uzish uchun mo‘ljallangan kommutatsiya apparatlari bo‘lib, elektr yoyini o‘chirish jarayonida maxsus transformator moyidan foydalanadi. Elektr kontaktlari ajralganda hosil bo‘ladigan yoy moy ichida paydo bo‘ladi va moyning sovituvchi hamda izolyatsiyalovchi xususiyati hisobiga xavfsiz tarzda o‘chiriladi. Shu sababli ushbu turdagi o‘chirgichlar “moyli o‘chirgichlar” deb ataladi.

Moyli o‘chirgichlarning asosiy vazifalari elektr tarmog‘ini ortiqcha tok va qisqa tutashuvlardan himoyalash, zanjirni yuklama ostida ham uzish va ulash hamda elektr yoyini xavfsiz o‘chirish orqali uskunalarni shikastlanishdan saqlashdan iborat.

Tuzilishi jihatidan moyli o‘chirgichlar kontaktlar, moyli bak (idish), yoy o‘chiruvchi kamera, haydovchi mexanizm (qo‘lda yoki avtomatik boshqaruv uchun), shuningdek izolyatorlardan tashkil topadi. Ishlash prinsipi shundan iboratki, kontaktlar ajralganda moy ichida yoy hosil bo‘ladi, moy qizib gaz ajratadi va hosil bo‘lgan gaz yoyni siqib sovitadi, natijada tok uziladi va elektr zanjiri ochiladi.

Moyli o‘chirgichlar katta hajmli, ya’ni kontaktlar to‘liq moy ichida joylashgan, hamda kichik hajmli, ya’ni faqat yoy o‘chiruvchi kamera moy bilan to‘ldirilgan turlarga bo‘linadi. Ular asosan 35–220 kV kuchlanishli podstansiyalarda, elektr uzatish liniyalarida, generator va transformatorlarni himoyalashda hamda o‘rta kuchlanishli sanoat tarmoqlarida qo‘llaniladi.

Ushbu o‘chirgichlarning afzalliklariga yoyni ishonchli o‘chirishi, texnik xizmatining nisbatan osonligi va arzonligi kiradi. Biroq, moyning portlovchanligi, doimiy texnik xizmat va moyni almashtirish zarurati, shuningdek zamonaviy gazli va vakuumli o‘chirgichlarga nisbatan katta o‘lcham va og‘irlikka ega bo‘lishi ularning asosiy kamchiliklari hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

SF_6 gazli o‘chirgichlar yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlarida tokni uzish va qisqa tutashuv holatlarida himoya qilish uchun keng qo‘llaniladigan zamonaviy kommutatsiya apparatlaridir. Ushbu o‘chirgichlarda yoyni o‘chirish muhiti sifatida sulfur geksaflorid (SF_6) gazi ishlatiladi. Bu gaz elektr yoyini juda tez o‘chiruvchi, kam yonuvchan va yuqori dielektrik xususiyatga ega.

SF_6 gazli o‘chirgichlarning asosiy vazifalari qisqa tutashuv toklarini uzish, tarmoqni avtomatik himoyalash, yuqori kuchlanishli podstansiyalarda liniyalarni kommutatsiya qilish hamda elektr tizimining barqaror ishlashini ta’minlashdan iborat. Ular asosan 100–500 kV kuchlanishli tarmoqlarda keng qo‘llaniladi.
Ushbu o‘chirgichlarning tuzilishiga kontaktlar, SF_6 gazi bilan to‘ldirilgan kamera, yoy o‘chirish mexanizmi, mexanik yuritgich, izolyatorlar va gaz bosimini nazorat qiluvchi tizim kiradi. Ishlash jarayonida kontaktlar ajralganda hosil bo‘lgan yoy SF_6 gazi ta’sirida tez sovitiladi va ionlar bog‘lanib, yoy juda qisqa vaqt ichida yo‘qoladi. SF_6 gazi yoyni o‘chirishda moyli o‘chirgichlarga nisbatan 3–4 baravar samaraliroq hisoblanadi.

SF_6 gazli o‘chirgichlarning afzalliklariga tezkor va shovqinsiz ishlashi, uzoq xizmat muddati, katta kuchlanishlarga chidamliligi va portlash xavfining pastligi kiradi. Kamchiliklari esa SF_6 gazining kuchli issiqxona gazi ekanligi, gaz sizishi bilan bog‘liq ekologik muammolar, yuqori narx va xizmat ko‘rsatish uchun yuqori malaka talab qilinishidir. Ushbu o‘chirgichlar 35 kV dan 500 kV gacha bo‘lgan kuchlanishlarda eng ko‘p qo‘llanilib, 750 kV va undan yuqori kuchlanishlar uchun ham ishlab chiqariladi.

